

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI**  
**MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH**  
**MARKAZI ANDIJON FILIALI**

**«TASDIQLAYMAN»**



Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali direktor o'rinbosari

D.M.Gapparova

*yozilgan*

**“FARMASEVT ASSISTENTI”**

(144 s)

(Malaka oshirish guruxlari uchun)

**MA'RUZA MATNLAR TO'PLAMI**

Uslubiy kengashda ko'rib chiqildi  
va ma'qullandi

“ 6 ” *yozilgan*  
*Sh.*

2026 yil

<b>2.1.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi.</li> <li>2. Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish.</li> <li>3. Farmakonazorat va aholi sog'lig'ini mustahkamlash.</li> <li>4. Dorixonada sifatni ta'minlash tizimi.</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p align="center"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasida dorixona xizmati. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi. Litsenziya xaqida tushuncha.Farmatsevtik faoliyat turlariga litsenziya olish masalalari. Dorixonaning moddiy-texnika bazasi, xonalarining yangi zamonaviy anjomlar,yordamchi vositalar bilan jihozlanishi. Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, xuquqlari.</p> <p align="right">13</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <p>Tinglovchi: Dorixonalarda turli xildagi dori vositalarni tayyorlash. Dorixonalarda turli xil dorilarning tegishli qoida va tartib asosida saqlanishi. Dorilarning sifati va muddatini nazorat etish masalalari.Dorixona ombori haqida va u erda tovarlar harakatini tashkil qilish. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari.Turli xildagi dorixonalar tomonidan olib boriladigan sanitariya tadbirlari.</p>
<b>O'qitish metodlari</b>	<b>Zamonaviy ta'lim usullari bilan ishlash</b>

O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p align="center"><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p align="center"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitaladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p align="center">Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-bosqich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga o'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan tarzda mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollariga javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.</p> <p>Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar." Aqliy hujum" , "Mozaika"sxemasi bo'yicha tinglovchilarni yangi mavzu</p>

		bo'yicha bilimi mustaxkamlanadi.
<b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy 5 daqiqa</b>	Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi . Uyga vazifa: <b>O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi</b> mavzusini o'qib kelish va mavzuga oid 10 ta test tuzish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.O'zb Res prezidenti va Vazirlar Mahkamasi, SSVning farmasevtikaga oid qaror va buyruqlari 2.Farmatsiya iqtisodi va farmatsiyadagi dolzarb masalalar.Navoiy-2019 y.V.N.Turaqulov,A.O.Hazratqulova 23-54 bet	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

### **Mavzu: O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi.**

#### **Dars rejasi:**

1. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi.
2. Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish.
3. Farmakonazorat va aholi sog'lig'ini mustahkamlash.
4. Dorixonada sifatni ta'minlash tizimi.

O'zbekistonda dorixona ochish tartibi bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, bunda **litsenziya olish, joyni belgilash, sanitariya qoidalari va normalariga rioya qilish hamda malakali kadrlar ta'minlash** muhim ahamiyatga ega, jarayonning asosiy qonuniy bazasini Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va Sog'liqni Saqlash Vazirligi (SSV) buyruqlari tashkil etadi, jumladan, mazkur yangilanishlar va umumiy talablarni SSV portalidan va huquqiy ma'lumotlar bazalaridan kuzatish mumkin.

#### **1. Asosiy Hujjatlar va Qonunlar:**

- **Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish:** Prezidentning tegishli farmonlari (masalan, 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son farmoni) farmatsevtika sohasini rivojlantirishga qaratilgan.

- **Dorixonalarining joylashuvi va jihozlanishi:** SSV tomonidan tasdiqlangan Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (SanQvaN) mavjud (masalan, 0071-24-son).
- **Yaxshi dorixona amaliyoti (GPP):** Dorixonalarining faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlar joriy etilgan.

## 2. Asosiy Talablar:

- **Litsenziya Olish:** Dorixona faoliyatini boshlash uchun SSVdan farmatsevtik faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya olinadi.
- **Joy Tanlash:** Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi (SEOM) talablariga javob beradigan, aholi gavjum joylarda, ma'lum sanitariya me'yorlariga mos bino tanlanadi.
- **Jihozlash:** Dorixona kerakli jihozlar (dori saqlash shkaflari, sovutgichlar, tortuvchi moslamalar, kompyuterlar) bilan ta'minlanishi shart.
- **Kadrlar:** Malakali farmatsevt (farmatsevt-provizor) va o'rta tibbiy xodimlar (farmatsevtlar) bo'lishi zarur.
- **Hujjatlar Tayyorlash:** Ariza, ta'sis hujjatlari, mulkiy huquq yoki ijara shartnomasi, xodimlarning malaka sertifikatlari, sanitariya-epidemiologik xulosa va boshqa hujjatlar topshiriladi.

## 3. Jarayon Bosqichlari (Umumiy):

1. **Biznes-reja tuzish** va moliyaviy asosni ta'minlash.
2. **Bino-inshootni tanlash** va sanitariya-epidemiologik ekspertizadan o'tkazish (SEOM).
3. **Litsenziya olish** uchun SSVga murojaat qilish (elektron tarzda yoki bevosita).
4. **Dorixona faoliyatini yo'lga qo'yish** (dori vositalarini xarid qilish, xodimlarni jalb qilish).

Qisqacha aytganda, dorixona ochish qat'iy qonuniy talablar, sanitariya me'yorlari va litsenziyalash jarayonini o'z ichiga oladi, bu jarayonlarda SSVning me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosiy yo'l-yo'riq hisoblanadi.

Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni, shuningdek ularni tayyorlashni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklida tashkil etilishi mumkin. Dorixonalarining<sup>3</sup> shaxobchalari, davolash-profilaktika muassasalarining dorixonalari ham dorixonalar jumlasiga kiradi.

2.1.2 **o'z-o'zini nazorat qilish:** malakali shaxs tomonidan dorixonani qonunchilik va ushbu standart bilan belgilangan farmatsevtika faoliyati talablarini bajarilishini baholash jarayoni.

2.1.3 **standart operatsion protseduralar (SOP):** ma'lum jarayonlarni bir xilligini ta'minlovchi to'liq yozma qo'llanmalar.

2.1.4. **sifat uchun mas'ul shaxs.** Dorixona va dorixona shaxobchasi faoliyatini amalga oshirishda sifatni ta'minlashga mas'ul bo'lgan shaxs.

### 3. Umumiy qoidalar

3.1 Mazkur standart maksimal terapevtik foydaga erishish, samarali, sifatli, bezarar, kamsarf dori vositalarini ratsional qo'llashga ko'maklashish, farmatsevtik xizmatlar ko'rsatishda farmatsevt xodimlarning javobgarligini oshirish, har bir bemorga kafolatlangan malakali xizmat ko'rsatish, aholi sog'lini mustahkamlashga yo'naltirilgan farmatsevtik xizmatlar, aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlashda dorixona faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

3.2 Mazkur standart davolash natijalarini baholash va eng qulay davolashga imkon beruvchi dori vositalarini qo'llash hamda shifokor, bemor va farmatsevt xodimning o'zaro bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan.

Farmatsevt xodim tomonidan bemorning sog'lig'ini mustahkamlashda g'amxo'rlik ko'rsatish va davolash natijalari bo'yicha o'zida javobgarlikni his qilishi uning asosiy koidasi hisoblanadi.

3.3 Dorixonada dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga asosan amalga oshiriladi.

3.4 Dorixona orqali dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish litsenziyalanadigan farmatsevtika faoliyati talab va shartlariga mos kelishi shart.

3.5 Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni tashkillashtirish ishlari aholiga sifatli va malakali xizmat ko'rsatishni ta'minlashi va kafolatlashi kerak.

### 4 Asosiy tamoyillar va talablar

4.1 Mazkur standart aholiga farmatsevtik xizmatlar ko'rsatish va dori vositalari, tibbiy buyumlarni sifatli taqdim etish bilan bog'liq kompleks talablarni, shuningdek ularni optimal qo'llash maqsadida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni ifodalaydi.

4.2 Mazkur standartning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- yaxshi sifatli dori vositalarini va tibbiy buyumlarni berish;
- dori vositalarining tarkibi va yaxshi qo'llanilishiga tegishli ishonchli va xolis ma'lumotlarni taqdim etish;
- dori vositalarini ratsional qo'llanilishi va to'g'ri ishlatilishi bo'yicha targ'ibot qilish;

4.3 Yaxshi dorixona amaliyotining asosiy talablari quyidagilar hisoblanadi:

- inson sog'lig'ini saqlash maqsadida bemorga e'tiborni qaratish;
- dori vositalari ratsional qo'llanilishi va yaxshi ishlatilishi bo'yicha ko'maklashish;
- kasbiy etikaga va mahfiylikka rioya qilish;
- sifatli farmatsevtik xizmatlarni ko'rsatish;
- deontologiya, farmakoterapiya va farmakologiya asoslarini egallagan malakali farmatsevt kadrlarning mavjudligi;

4.4 Dorixona o'z faoliyatida sanitariya-epidemiologiya qoidalari va me'yorlari, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalari, yong'inga qarshi va boshqa talablar asosida amalga oshirishi lozim.

- farmakonazorat va aholi sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklar profilaktikasida farmakoterapiyaga tegishli ishonchli va maxfiy turli masalalarda o'zaro tibbiyot tashkilotlari va dorixonalarining uzviy bog'liqligi;
- muntazam ravishda farmatsevt kadrlar malakasini oshirish uchun o'quv dasturlari;
- tegishli hujjatlarning mavjudligi;
- sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini tarqalishini oldini olish va aniqlash, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni xarid qilish tizimi bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni ta'minlash.

– **5 Bino va asbob-uskunalar**

- 5.1 Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni sifatini saqlashda va xavfsizligini ta'minlashda, uni saqlash va realizatsiya qilishdagi qo'yilgan litsenziya talablariga muvofiq kerakli asbob-uskuna, jihozlar va bino bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.
- 5.2 Tayyor dori vositalarini va tibbiy buyumlarni realizatsiya qiluvchi dorixona va dorixonaning filiali alohida binoda, hamma xonalari bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib kirish, chiqish eshiklari boshqa tashkilotlardan alohida bo'lishi, shuningdek turar joy va noturar joy binolarining birinchi qavatida joylashgan bo'lishi mumkin (tayyor va termolabil dori vositalarini saqlash va qadoqlash uchun mo'ljallangan xonalar birinchi qavat ostidagi xonalarda joylashgan bo'lishi mumkin).
- Dorixonada tayanch-harakatlantiruvchi funksiyasi buzilgan kishilarga mos ravishda kirish (chiqish) eshiklarini e'tiborga olish kerak.
- 5.3 Dorixona binosida boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi bo'linmalarni faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 5.4 Dorixonada (farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga muvofiq) peshtlavha bo'lishi kerak.
- 5.5 Dorixonadagi xonalarning taqsimlanishi, o'lchami va asbob-uskunalari dori vositalarini va tibbiy buyumlarni sifatini, xavfsizligini ta'minlashi va farmatsevtik faoliyatining hajm va turlariga hamda amaldagi me'yorlarga mos kelishi kerak.
- 5.6 Dorixona kanalizatsiya, havo almashtirish, konditsionerlar, suv ta'minoti, isitgich, elektr ta'minoti tizimiga ega bo'lishi shart.
- 5.7 Dorixonaning ma'muriy-maishiy xonasining umumiy maydoni xodimlar soniga bog'liq bo'lib, u amaldagi me'yoriy va qoidalarga javob berishi kerak.
- 5.8 Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash xonalari havo parametrlarini qayd etuvchi asboblardan (termometrlar, gigrometrlar yoki psixrometrlar) bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

– **6 Qabul qilish, saqlash va realizatsiya qilish**

- 6.1 Dorixona omborxonasida mahsulotlarni qabul qilish uchun joy bo‘lishi, shuningdek bir xil turdagi mahsulotlarni qo‘shilib ketishi va
- sifatini buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda ularni soni va sifatini saqlanishini ta‘minlashni ko‘zda tutgan bo‘lishi kerak.
- 6.2 Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ularni ishlab chiqaruvchilardan, shuningdek dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chet el ishlab chiqaruvchilari, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlardan xarid qilish huquqiga ega.
- 6.3 Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan dori vositalarining g‘ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.
- 6.4 Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, ularning sifati va xavfsizligini ta‘minlovchi sharoitlarda saqlanishi kerak.
- 6.5 Dorixonada retsept asosida beriladigan dori vositalari retseptda yozilgan dori vositalarining miqdori va dozasiga mos kelishi lozim.
- Retseptda savdo nomi bilan tayinlangan dori vositasi dorixonada mavjud bo‘lmagan hollarda, ushbu dori vositasining xalqaro patentlanmagan nomiga asosan boshqa savdo nomiga ega bo‘lgan dori vositasiga bemor ruxsati bilan va/yoki shifokor bilan kelishilgan holda sinonimik almashtirilishi mumkin. Bunda retseptning orqa tarafiga berilgan dori vositasining nomi, berilgan sana yoziladi va imzo qo‘yiladi.
- 6.6 Dorixona mutaxassislari tomonidan iste‘molchilarga ikkilamchi o‘rami buzilgan holda berilishi mumkin, lekin birlamchi o‘rami buzilgan holda dori vositasi berish taqiqlanadi.
- 6.7 Dorixonaga jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan dori vositalarini qaytarib olish taqiqlanadi.
- 6.8 Dorixona tomonidan realizatsiya qilinadigan dori vositalarida ishlatilishi bo‘yicha davlat tilida qo‘llash yo‘riqnomasi bo‘lishi kerak
- 6.9 Bemorga uning hohishiga ko‘ra dorixonadan olinayotgan dori vositasining davlat tilida qo‘llash yo‘riqnomasiga muvofiq dorixonadagi mavjud sinonimlari (generik formalari haqida) va narxlari bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot berilishi mumkin.
- **7 Xodimlar**
- 7.1 Dorixona mudiri oliy farmatsevtik ma‘lumotli, malakali va mutaxassisligi buyicha 3 yillik mexnat stajiga ega bo‘lishi kerak. Dorixona filialining mudiri farmatsevtik ma‘lumotga ega bo‘lishi kerak.
- 7.2 Dorixona mutaxassislari o‘z faoliyati jarayonida farmatsevtika etikasi va deontologiyasi me‘yorlariga rioya qilishlari shart.
- 7.3 Hamma xodimlar etarli miqdorda maxsus kiyim va oyoq kiyimlari bilan ta‘minlangan bo‘lishlari kerak hamda belgilangan tartibga muvofiq tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari lozim.

## **Dorixonada sifatni ta‘minlash tizimi**

13.1 Dorixonadagi sifatni ta'minlash tizimi – tayyor dori vositalarini va tibbiy buyumlarni sifatini kafolatlanishi ularni ishlatilishi, saqlanishi, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni berilishi bo'yicha xodimlarni o'qitish, o'z-o'zini nazorat qilishni o'tkazish, hujjatlarni yuritish va saqlash chora-tadbirlarini tashkillashtirish jamlanmasidir.

13.2 Sifat tizimi to'liq hujjatlashtirilgan, uning samaradorligi nazoratga olingan bo'lishi kerak.

13.3 Sifatni ta'minlash tizimi dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishga mo'ljallangan bo'lib, u quyidagilarni kafolatlashi kerak:

- 1) dori vositalarini va tibbiy buyumlarni sifatini tasdiqlovchi muvofiqlik sertifikatini bo'lishi kerak;
- 2) dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi omborxonalar va dorixona o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida olinadi va keltiriladi;
- 3) xarid qilish, qabul qilish, saqlash, nazorat qilish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshiriladi;
- 4) rahbar xamda xodimlarning mas'uliyati va vazifalari aniq belgilanadi;
- 5) dori vositalarini va tibbiy buyumlar sifatini ta'minlash uchun yaroqlilik muddati davomida saqlash, tarqatish va realizatsiya qilish bo'yicha etarli darajada tadbirlar amalga oshiriladi;
- 6) sifat auditori va/yoki o'z-o'zini nazorat qilish usullarini o'tkazish mavjud bo'lib, u orqali dorixona amaliyotida sifat tizimini ta'minlash samaradorligi va yaroqliligi muntazam ravishda baholanadi.

13.4 Sifat tizimini amalga oshirish uchun etarli ma'lumotga ega bo'lgan xodim, etarli miqdorda xonalar, asbob-uskuna va texnik vositalar bo'lishi kerak.

### **Mavzuga oid tibbiy atamalar**

- **Farmatsiya** – dori vositalarini yaratish, ishlab chiqarish, saqlash va sotish bilan shug'ullanuvchi tibbiyot sohasi.
- **Farmatsevtik faoliyat litsenziyasi** – dorixona ochish va farmatsevtik faoliyat bilan shug'ullanish uchun beriladigan ruxsatnoma.
- **Dori vositasi** – kasalliklarni davolash, oldini olish yoki tashxis qo'yish uchun ishlatiladigan modda yoki preparat.
- **Farmatsevt** – dorixona faoliyatini yurituvchi, dori vositalari bilan ishlashga ixtisoslashgan mutaxassis.
- **Farmatsevt-texnolog** – dorilarni tayyorlash va ularning sifatini nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.
- **Retsept** – shifokor tomonidan bemorga ma'lum dori vositasini berish uchun yozib beriladigan tibbiy hujjat.
- **Dori vositalarini saqlash sharoiti** – dorilarning sifatini saqlash uchun belgilangan harorat, namlik va boshqa talablar.
- **Farmatsevtik nazorat** – dori vositalarining sifati, xavfsizligi va qonuniy muomalasini tekshirish jarayoni.
- **Dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish** – dorilarni rasmiy ravishda davlat tomonidan tasdiqlash jarayoni.

□ **Dorixona muassasasi** – aholiga dori vositalari va tibbiy buyumlarni yetkazib beruvchi farmatsevtik tashkilot.

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.
- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.
- Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

**”Mozaika” - ish o‘yinini o‘tkazish usuli.**

Bunda tinglovchilar guruhlarga bo‘linadilar. Mavzuga oid savollar va javoblar yozilib konvertga joylashtiriladi. Har bir guruhdan tinglovchi konvert tanlab, ichidagi savollarni ma’lum vaqt ichida to‘g‘ri javoblarga joylashtirib berishlari shart.

So‘ngra o‘qituvchi to‘g‘ri javobni doskada ko‘rsatadi. Birinchi va to‘g‘ri javob bergan guruh baholandi.

**Nazorat savollar:**

1. O‘zbekiston Respublikasida dorixona ochish uchun qaysi organlardan ruxsat olish talab etiladi?
2. Dorixona ochish uchun litsenziya olishning asosiy shartlari nimalardan iborat?
3. Dorixona ochish joyi tanlanayotganda qaysi talablar hisobga olinadi?
4. Dorixona ochish uchun talab qilinadigan minimal kadrlar tarkibi qanday bo‘lishi kerak?
5. Dorixonada dori vositalarini saqlash va realizatsiya qilish bo‘yicha qanday sanitariya-gigiyena talablar mavjud?
6. Dorixona ochish uchun ariza va hujjatlar qanday tartibda topshiriladi?
7. O‘zbekiston Respublikasida dorixona faoliyati qanday normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi?
8. Dorixona ochilgandan keyin litsenziya va nazorat organlari tomonidan qanday tekshiruvlar o‘tkaziladi?
9. Dorixonada retsept asosida dori vositalarini berish tartibi qanday belgilangan?
10. Dorixonani yopish yoki litsenziyani bekor qilish qaysi hollarda amalga oshiriladi?

**Test savollari:**

**1. O‘zbekistonda dorixona faoliyati qaysi organ tomonidan litsenziyalanadi?**

- A) Adliya vazirligi
- B) Iqtisodiyot vazirligi
- C) Sog‘liqni saqlash vazirligi

D) Moliya vazirligi

**To'g'ri javob: C**

**2. Dorixona ochish uchun qanday hujjat majburiy hisoblanadi?**

A) Sertifikat

B) Litsenziya

C) Patent

D) Guvohnoma

**To'g'ri javob: B**

**3. Dorixona rahbari qanday ma'lumotga ega bo'lishi kerak?**

A) O'rta ta'lim

B) O'rta maxsus tibbiy

C) Oliy farmatsevtik yoki tibbiy

D) Iqtisodiy

**To'g'ri javob: C**

**4. Dorixona binosi qaysi talablarga javob berishi shart?**

A) Faqat qulay joylashuvga

B) Sanitariya va gigiyena talablariga

C) Faqat maydoniga

D) Faqat ijaraga olingan bo'lishi

**To'g'ri javob: B**

**5. Dorixona ochish uchun minimal xodimlardan biri kim bo'lishi shart?**

A) Hisobchi

B) Menejer

C) Farmatsevt

D) Sotuvchi

**To'g'ri javob: C**

**6. Dorixonada dori vositalari qanday sharoitda saqlanishi kerak?**

A) Xohlagan joyda

B) Faqat yopiq shkafda

C) Belgilangan harorat va namlikda

D) Muzlatkichda

**To'g'ri javob: C**

**7. Dorixona faoliyati qaysi qonun bilan tartibga solinadi?**

A) "Ta'lim to'g'risida"gi qonun

B) "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonun

C) "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonun

D) "Mehnat kodeksi"

**To'g'ri javob: C**

**8. Dorixona ochishda yong'in xavfsizligi talablari kim tomonidan tekshiriladi?**

A) Sog'liqni saqlash vazirligi

B) Ichki ishlar organlari

C) Yong'in xavfsizligi xizmati

D) Soliq inspeksiyasi

**To'g'ri javob: C**

**9. Dorixonada retsept asosida beriladigan dorilar kim nazorati ostida sotiladi?**

- A) Sotuvchi
- B) Menejer
- C) Farmatsevt
- D) Hisobchi

**To‘g‘ri javob: C**

**10. Dorixona litsenziyasi qancha muddatga beriladi?**

- A) 1 yil
- B) 3 yil
- C) 5 yil
- D) Muddatsiz

**To‘g‘ri javob: D**

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

- 1 X.S. Zaynutdinov, R.Z. Ziyoyev, O.S. Isaxodjayev, G.Ye. Sodiqova «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti» Toshkent, “Ilm Ziyoye” nashriyoti, 2012 y.
2. Yusupov M.A., Komilov A.M. «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti» Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004 y
3. Oxunova Z.S., G.A. Madraximova “ Farmatsiya menejmenti” Toshkent, “Ilm Ziyoye” nashriyoti, 2006 y.
4. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saidova M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy ko‘rsatma 1-to‘plam Toshkent – 2009, 78 bet.
5. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saipova D.T., Saidova, M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar 2-to‘plam Toshkent – 2014, 63 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2010 yil 18 iyun 191-sonli buyrug‘i
7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2002 yil 15 aprel 177-sonli buyrug‘i “Dorixona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarini tashqi bezagiga doir qoidalarini tasdiqlash” haqidagi.

<b>2.1.O‘quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, xuquqlari.</b>
---	--

13

### **Ma‘ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg‘ulot</b>

<p style="text-align: center;"><b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Farmatsevt assistenti tushunchasi va uning dorixonadagi o'рни</li> <li>2. Dorixonada farmatsevt assistentining asosiy vazifalari</li> <li>3. Farmatsevt assistentining kasbiy huquqlari</li> <li>4. Farmatsevt assistentining mas'uliyati va javobgarligi</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissinini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissinini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda ehtiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p style="text-align: center;"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasida dorixona xizmati. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi. Litsenziya xaqida tushuncha.Farmatsevtik faoliyat turlariga litsenziya olish masalalari. Dorixonaning moddiy-texnika bazasi, xonalarining yangi zamonaviy anjomlar,yordamchi vositalar bilan jihozlanishi. Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, xuquqlari.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <p>Tinglovchi: Dorixonalarda turli xildagi dori vositalarni tayyorlash. Dorixonalarda turli xil dorilarning tegishli qoida va tartib asosida saqlanishi. Dorilarning sifati va muddatini nazorat etish masalalari.Dorixona ombori haqida va u erda tovarlar harakatini tashkil qilish. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari.Turli xildagi dorixonalar tomonidan olib boriladigan sanitariya tadbirlari.</p>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>Zamonaviy ta'lim usullari bilan ishlash</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil etish</p>	<p>Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli</p>
<p>O'qitish vositalari</p>	<p>Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar</p>
<p>Qayta aloqaning usul va vazifalari</p>	<p>Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar</p>

bajarilgan o'quv topshiriqlarini  
baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-bosqich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimini tekshirish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan holda mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilarning o'tilgan mavzuni takrorlash uchun "Aqliy hujum"metodidan foydalaniladi. Tinglovchilar savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."Issiq kartoshka " interfaol o'yini orqali mustaxkamlanadi.</p>
<b>3-bosqich</b>	Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan	Tinglaydilar,

<b>Yakuniy 5 daqiqa</b>	tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi . Uyga vazifa: Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, xuquqlari mavzusini o'qib kelish va mavzuga oid 5 ta savol tayyorlash. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.Natsionalnaya programma po borbe protiv tabaka v Respublike Uzbekistan na 2008 – 2012 gg. Tashkent 2007 g. 2.V.YE.AvakovO.V. ChurilovaA.M.Sharipov“Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.	uyga vazifani belgilab oladilar
-------------------------	---	---------------------------------

### **Mavzu: Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, xuquqlari.**

#### **Reja**

1. Farmatsevt assistenti tushunchasi va uning dorixonadagi o'rni
2. Dorixonada farmatsevt assistentining asosiy vazifalari
3. Farmatsevt assistentining kasbiy huquqlari
4. Farmatsevt assistentining mas'uliyati va javobgarligi

#### **1. Farmatsevt assistenti tushunchasi va uning dorixonadagi o'rni**

Farmatsevt assistenti — bu dorixona faoliyatida farmatsevt yoki provizor rahbarligida ishlaydigan o'rta maxsus tibbiy xodim bo'lib, u dori vositalarini saqlash, tayyorlash, qadoqlash va aholiga berish jarayonlarida bevosita ishtirok etadi. Farmatsevt assistenti dorixonaning kundalik ish faoliyatini tashkil etishda muhim o'rin tutadi va farmatsevtik xizmatlarning sifatli ko'rsatilishiga o'z hissasini qo'shadi.

Dorixonada farmatsevt assistentining asosiy o'rni dori vositalari bilan bog'liq texnologik va yordamchi jarayonlarni amalga oshirishdan iborat. U dorixonaga kelib tushgan dori vositalarini qabul qiladi, ularning yaroqlilik muddati, tashqi ko'rinishi va hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi. Shuningdek, dori vositalarini belgilangan sanitariya-gigiyena talablari asosida to'g'ri saqlashni ta'minlaydi.

Farmatsevt assistenti farmatsevt yoki provizorning ko'rsatmalariga amal qilgan holda retsept asosida dori vositalarini tayyorlashda yordam beradi, ularni qadoqlaydi va yorliqlaydi. Bundan tashqari, bemorlarga dori vositalarini berishda farmatsevtga ko'maklashadi hamda dori vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha umumiy ma'lumotlarni yetkazadi.

Dorixonadagi tartib-intizom, tozalik va mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish ham farmatsevt assistentining muhim vazifalaridan biridir. U dorixonada sanitariya holatini saqlash, asbob-uskunalar va ish joyining tozaligini ta'minlash orqali farmatsevtik xizmat sifatini oshiradi.

## **2. Dorixonada farmatsevt assistentining asosiy vazifalari**

Farmatsevt assistentining asosiy vazifalari dorixona faoliyatining uzluksiz va samarali olib borilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u farmatsevt yoki provizor rahbarligida amalga oshiriladi. Farmatsevt assistenti dorixonaga kelib tushgan dori vositalarini qabul qilishda ishtirok etadi, ularning miqdori, sifati, yaroqlilik muddati va hujjatlarining to'g'riligini tekshiradi. Bu jarayon dori vositalarining xavfsizligi va sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Farmatsevt assistenti dori vositalarini saqlash jarayonida belgilangan sanitariya-gigiyena qoidalarini va saqlash sharoitlariga qat'iy rioya qiladi. U dorilarni harorat, namlik va yorug'likka bo'lgan talablariga muvofiq joylashtiradi, saqlash muddatlarini nazorat qiladi va yaroqlilik muddati o'tgan dori vositalarini o'z vaqtida aniqlab, farmatsevtga xabar beradi.

Retsept asosida tayyorlanadigan dori vositalarini tayyorlashda farmatsevt assistenti farmatsevtga yordam beradi. U dori moddalarini o'lchash, aralashtirish, qadoqlash va yorliqlash ishlarini bajaradi. Shu bilan birga, tayyor dori vositalarini tartibli ravishda joylashtirib, ularni bemorlarga berishga tayyorlaydi.

Farmatsevt assistenti aholiga dori vositalarini berish jarayonida farmatsevtga ko'maklashadi. U dori vositalarini berishda retseptga muvofiqligini tekshiradi hamda dori vositalarini qabul qilish tartibi, saqlash sharoitlari va ehtiyot choralariga oid umumiy ma'lumotlarni tushuntiradi. Bunda bemor bilan muomala madaniyatiga rioya qilish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, farmatsevt assistenti dorixonada mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qiladi, ish joyining tozaligi va tartibini saqlaydi, asbob-uskunalarining to'g'ri ishlatilishini ta'minlaydi. U hujjatlarni yuritishda ham farmatsevtga yordam beradi, hisobot va qaydlarni belgilangan tartibda rasmiylashtiradi.

## **3. Farmatsevt assistentining kasbiy huquqlari**

Farmatsevt assistentining kasbiy huquqlari uning mehnat faoliyatini samarali, xavfsiz va qonuniy asosda olib borishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu huquqlar O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda dorixona ichki tartib-qoidalariga muvofiq belgilanadi.

Farmatsevt assistenti o'z lavozimiga doir vazifalarni bajarishda farmatsevt yoki provizordan aniq ko'rsatmalar olish huquqiga ega. U dori vositalarini qabul qilish, saqlash va tayyorlash jarayonida zarur bo'lgan ma'lumotlar, yo'riqnomalar va

texnologik ko'rsatmalar bilan ta'minlanishini talab qilishi mumkin. Bu huquq ish jarayonida xatolarning oldini olish va dori vositalari sifati hamda xavfsizligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Farmatsevt assistenti mehnat sharoitlarining sanitariya-gigiyena va mehnat muhofazasi talablariga mos bo'lishini talab qilish huquqiga ega. U ish joyida zarur asbob-uskunalar, maxsus kiyim-bosh va himoya vositalari bilan ta'minlanishi lozim. Agar ish jarayonida sog'liq uchun xavf tug'diruvchi holatlar yuzaga kelsa, bu haqida rahbariyatga xabar berish va tegishli choralar ko'rilishini talab qilish huquqiga ega.

Shuningdek, farmatsevt assistenti o'z kasbiy malakasini oshirish, qayta tayyorlash va bilimlarini yangilash huquqiga ega. U malaka oshirish kurslarida qatnashish, yangi farmatsevtik texnologiyalar va dori vositalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu huquq farmatsevt assistentining professional rivojlanishini ta'minlaydi.

Farmatsevt assistenti dori vositalarining sifati yoki yaroqliligi bo'yicha shubha tug'ilganda, ularni sotuvga chiqarishni vaqtincha to'xtatish va farmatsevtga xabar berish huquqiga ega. Bu huquq bemorlar salomatligini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, farmatsevtik faoliyatda muhim ahamiyatga ega.

#### **4. Farmatsevt assistentining mas'uliyati va javobgarligi**

Farmatsevt assistenti dorixonada olib boriladigan farmatsevtik faoliyatning muhim ishtirokchisi bo'lib, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan va mas'uliyat bilan bajarishi shart. Uning mas'uliyati dori vositalarining sifati, xavfsizligi va aholiga to'g'ri yetkazilishiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Farmatsevt assistenti dori vositalarini qabul qilish, saqlash, tayyorlash va berish jarayonlarida belgilangan me'yoriy hujjatlar, sanitariya-gigiyena qoidalari va ichki tartib-intizom talablariga rioya etishi uchun javobgar hisoblanadi. Agar ushbu qoidalarga amal qilinmasa, dori vositalarining sifati buzilishi yoki bemor salomatligiga zarar yetishi mumkin.

Farmatsevt assistenti retsept asosida beriladigan dori vositalarini faqat farmatsevt yoki provizor nazorati ostida tayyorlash va berish uchun mas'uldir. Retseptga zid ravishda dori berish, noto'g'ri yorliqlash yoki dozani adashtirish jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin va bu holatlar uchun assistent intizomiy yoki qonuniy javobgarlikka tortiladi.

Shuningdek, farmatsevt assistenti dorixonadagi moddiy boyliklarning saqlanishi uchun ham javobgar bo'lishi mumkin. Dori vositalarining yo'qolishi, buzilishi yoki noto'g'ri saqlanishi natijasida yetkazilgan zarar<sup>13</sup> uchun u belgilangan tartibda javob beradi. Hujjatlarni to'g'ri yuritish, hisob-kitob va qaydlarni aniqlik bilan rasmiylashtirish ham uning mas'uliyatiga kiradi.

Farmatsevt assistenti xizmat davomida bemorlar bilan muloqotda kasbiy etikaga amal qilishi, axborot maxfiyligini saqlashi va dorixonaning obro'siga putur yetkazadigan

xatti-harakatlardan tiyilishi lozim. Mehnat intizomini buzish, vazifalarni lozim darajada bajarmaslik intizomiy choralar ko‘rilishiga sabab bo‘ladi.

Dorixonona farmatsevt assistenti vazifalari dori vositalarini sotish, mijozlarga qo‘llash bo‘yicha to‘liq ma‘lumot berish, retseptlarni tekshirish, dorilarning sifatini nazorat qilish, dorixonaning tartibini saqlash, qonun-qoidalarga amal qilish hamda bemorlar bilan etikaga muvofiq munosabatda bo‘lishni o‘z ichiga oladi; huquqlari esa zarur ma‘lumotlarni olish, narxlar va sifatini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish, shuningdek, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirish erkinligini o‘z ichiga oladi.

#### **Farmatsevt assistenti vazifalari:**

- **Dori vositalarini sotish:** Elektron retseptlar asosida dorilarni realizatsiya qilish.
- **Ma‘lumot berish:** Mijozlarga dori vositasining qo‘llash tartibi, dozalari, saqlash usuli, yaroqlilik muddati va boshqa muhim ma‘lumotlarni tushuntirish.
- **Nazorat va hisobga olish:** Dori vositalarining harakatini nazorat qilish va hisobga olish tizimida ishtirok etish.
- **Mijozlar bilan munosabat:** Etika qoidalariga rioya qilish, savodxonlik va professionallikni namoyon etish.
- **Sifatni ta‘minlash:** Dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatish.
- **Yo‘riqnomalar bilan tanishtirish:** Mijozlarni dorilarning qo‘llash yo‘riqnomasi bilan tanishishga undash.

#### **Farmatsevt assistenti huquqlari:**

- **Ma‘lumot olish huquqi:** Dorilar haqida to‘liq ma‘lumot (narxi, sifati, qo‘llanishi) olish va berish.
- **Hujjatlarni talab qilish:** Sifatini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatishni talab qilish.
- **Kasbiy faoliyat huquqi:** O‘z vakolatlari doirasida dorixonada farmatsevtik faoliyatni amalga oshirish.
- **Nazorat qilish huquqi:** Dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligini ta‘minlash bo‘yicha nazorat qilish.

13

#### **Mavzuga oid tibbiy atamalar**

- Farmatsevtik xizmat** – dorixonada aholiga dori vositalari va farmatsevtik maslahatlar ko‘rsatish jarayoni.
- Retsept** – shifokor tomonidan bemorga dori vositasini berish uchun yozilgan rasmiy hujjat.

- **Dori vositalari realizatsiyasi** – dori preparatlarini dorixonada sotish yoki berish jarayoni.
- **Farmakologiya** – dori vositalarining ta’siri, qo‘llanishi va organizmga ta’sirini o‘rganadigan fan.
- **Dozalash** – dori vositasining bemor uchun kerakli miqdorini aniqlash.
- **Saqlash sharoiti** – dori vositalarini belgilangan harorat va namlikda saqlash tartibi.
- **Farmatsevtik nazorat** – dori vositalarining sifati va to‘g‘ri berilishini tekshirish jarayoni.
- **Yaroqlilik muddati** – dori vositasining foydalanish uchun belgilangan amal qilish davri.
- **Antiseptika** – mikroorganizmlarni yo‘q qilish yoki ularning ko‘payishini to‘xtatish usullari.
- **Farmatsevtik etikasi** – farmatsevt va assistentlarning kasbiy axloq qoidalari.

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.
- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamog‘lari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.
- Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

**“Issiq kartoshka metodi”** – bu ta’lim va muhokama jarayonida ishlatiladigan interaktiv o‘quv usuli bo‘lib, u qatnashchilarni faollikka undash va masala yoki savolga tezkor javob topishga majbur qiladi. Bu metod ayniqsa darslarda, seminar yoki treninglarda ishlatiladi.

### Metodning mohiyati

- Muallif yoki o‘qituvchi bir “issiq kartoshka” (masala, savol yoki muammo) beradi.
- Savol ishtirokchi orasida “o‘tadi”, ya’ni bir kishi uni oladi va javob beradi yoki fikr bildiradi.
- Javob bergach, ishtirokchi “kartoshkani” keyingi kishiga uzatadi.
- Shu tarzda savol ishtirokchilar orasida aylanadi va har bir kishi faol qatnashadi.

### Metodning afzalliklari

1. **Faollikni oshiradi** – har bir ishtirokchi javob berishga majbur bo‘ladi.
2. **Tez fikrlashni rivojlantiradi** – savol tezkor aylanadi, vaqt chegarasi bor.
3. **O‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash** – kim qaysi mavzuda mustahkam bilimga ega ekanini ko‘rsatadi.
4. **Stressni kamaytiradi** – kartoshka o‘yin shaklida aylanadi, jarayon qiziqarli bo‘ladi.
5. **Jamoaviy fikrlashni rag‘batlantiradi** – hamma fikr bildiradi, bir kishi dominant bo‘lib qolmaydi.

## Metoddan foydalanish qoidalari

- Savol yoki masala **qisqa va aniq** bo'lishi kerak.
- Javob berish uchun **cheklangan vaqt** belgilanadi (masalan, 20–30 soniya).
- Agar ishtirokchi javob bera olmasa, “kartoshka” keyingi kishiga uzatiladi.
- Savol va javoblar muhokama qilinadi, xulosalar chiqariladi.

## Misol

- O'qituvchi: “Dorixonada sifatni ta'minlash tizimining asosiy elementlari qaysilar?”
- Ishtirokchi javob beradi: “Kadrlar, saqlash sharoiti, hujjat yuritish, nazorat va farmakovigilansiya.”
- Javob tugagach, “kartoshka” navbatdagi ishtirokchiga uzatiladi va u qo'shimcha fikr bildiradi.

## Nazorat savollari

1. Farmatsevt assistenti kim va uning dorixonadagi o'rni nimadan iborat?
2. Farmatsevt assistentining dorixonadagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Farmatsevt assistenti dori vositalarini qabul qilish va saqlashda qanday mas'uliyatlarga ega?
4. Retsept asosida dori vositalarini tayyorlashda farmatsevt assistentining vazifalari nimalardan iborat?
5. Farmatsevt assistentining kasbiy huquqlari qaysilar?
6. Farmatsevt assistenti mehnat sharoitlari bo'yicha qanday huquqlarga ega?
7. Farmatsevt assistenti malaka oshirish bo'yicha qanday imkoniyatlarga ega?
8. Farmatsevt assistenti qaysi holatlarda dori vositasini berishni to'xtatishga haqli?
9. Farmatsevt assistenti qanday holatlarda javobgarlikka tortiladi?
10. Farmatsevt assistentining kasbiy etikaga rioya etishdagi mas'uliyati nimadan iborat?

## Test savollari

1. Farmatsevt assistenti kim rahbarligida faoliyat olib boradi?  
A) Shifokor  
B) Hamshira  
C) Farmatsevt yoki provizor  
D) Laborant  
To'g'ri javob: C
2. Farmatsevt assistentining asosiy vazifasi qaysi?  
A) Tashxis qo'yish  
B) Dori vositalarini sifatli saqlash va berishga yordam berish  
C) Jarrohlik amaliyoti o'tkazish  
D) Retsept yozish  
To'g'ri javob: B
3. Dori vositasining yaroqlilik muddati o'tgan bo'lsa, farmatsevt assistenti nima qilishi kerak?  
A) Sotuvga chiqaradi

- B) Bemorni ogohlantirib beradi  
C) Farmatsevtga xabar beradi  
D) Narxini arzonlashtiradi  
To‘g‘ri javob: C
4. Farmatsevt assistenti qaysi huquqqa ega?  
A) Mustaqil ravishda retsept yozish  
B) Dori vositasini o‘zboshimchalik bilan almashtirish  
C) Xavfsiz mehnat sharoitini talab qilish  
D) Tashxis qo‘yish  
To‘g‘ri javob: C
5. Farmatsevt assistentining javobgarligi nimaga bog‘liq?  
A) Bemor yoshiga  
B) Dorixonada joylashuviga  
C) Vazifalarni to‘g‘ri bajarishiga  
D) Reklama faoliyatiga  
To‘g‘ri javob: C
6. Retseptga zid ravishda dori berish qanday oqibatga olib keladi?  
A) Rag‘batlantirishga  
B) Javobgarlikka  
C) Lavozim oshishiga  
D) Imtiyozlarga  
To‘g‘ri javob: B
7. Farmatsevt assistenti qaysi holatda dori berishni to‘xtatishga haqli?  
A) Xaridor talab qilganda  
B) Dorixonada navbat ko‘p bo‘lsa  
C) Dori sifati shubhali bo‘lsa  
D) Dorixonada yopilayotganda  
To‘g‘ri javob: C

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

- 1 X.S. Zaynutdinov, R.Z. Ziyoyev, O.S. Isaxodjeyev, G.Ye. Sodiqova «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti» Toshkent, “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2012 y.
2. Yusupov M.A., Komilov A.M. «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti» Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004 y
3. Oxunova Z.S., G.A. Madraximova “ Farmatsiya menejmenti” Toshkent, “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2006 y.
4. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saidova M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy ko‘rsatma 1-to‘plam Toshkent – 2009, 78 bet.
5. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saipova D.T., Saidova, M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar 2-to‘plam Toshkent – 2014, 63 bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2010 yil 18 iyun 191-sonli buyrug‘i
7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2002 yil 15 aprel 177-sonli buyrug‘i “Dorixonona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarini tashqi bezagiga doir qoidalarini tasdiqlash” haqidagi.

<b>2.1.O‘quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari.</b>
---	---

**Ma’ruza mashg’ulotini o‘qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O‘quv mashg’ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg’ulot</b>
<b>Ma’ruza mashg’ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi tushunchasi va ahamiyati</li> <li>2. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining tuzilishi</li> <li>3. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining asosiy vazifalari</li> <li>4. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish</li> </ol>
<p style="text-align: center;">13</p> <p><b>O‘quv mashg’uloti maqsadi:</b>  <b>1.Ta’limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko’nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko’nikmalarni amaliyotda qo’llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi</p>	

Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash	
<b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>	
Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish	
Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish	
O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash	
Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish	
<p><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasida dorixona xizmati. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarni ochish tartibi. Litsenziya xaqida tushuncha.Farmatsevtik faoliyat turlariga litsenziya olish masalalari. Dorixonaning moddiy-texnika bazasi, xonalarining yangi zamonaviy anjomlar,yordamchi vositalar bilan jihozlanishi. Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, xuquqlari.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <p>Tinglovchi: Dorixonalarda turli xildagi dori vositalarni tayyorlash. Dorixonalarda turli xil dorilarning tegishli qoida va tartib asosida saqlanishi. Dorilarning sifati va muddatini nazorat etish masalalari.Dorixona ombori haqida va u erda tovarlar harakatini tashkil qilish. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari.Turli xildagi dorixonalar tomonidan olib boriladigan sanitariya tadbirlari.</p>
O'qitish metodlari	“Atamani top’,”Dorixona tashkil et’ Rolli o’yini usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish</b></p> <p><b>10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitaladi va aytiladi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>

	<p>2.O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o‘tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo‘llaniladigan usullarni aytib o‘yin qoidalirini tushintiradi.</p>	
<p><b>2-bosqich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O‘qitishning noan‘anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarini tekshirish maqsadida”” metodi bo‘yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o‘qituvchi tomonidan taqdimot “Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi. <b>O‘qitishning noan‘anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar mavzu bo‘yicha bilimi mustahkamlanadi.</b></p>	<p>Tinglovchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarini tekshirish maqsadida”atamani top ” metodi bo‘yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar.”Dorixonona tashkil et ”Rolli o‘yini sxemasi bo‘yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p><b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e‘lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari mavzusini o‘qib kelish.</p> <p><b>Tavsiya etiladigan adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>“Farmatsiya menejmenti”</b> – O‘zbekiston tibbiyot oliygohlari uchun darslik.</li> <li>2. <b>Sh. Karimov – “Farmatsevtika iqtisodiyoti va menejmenti”.</b></li> <li>3. <b>A. Xoliqov – “Dorixonona ishini tashkil etish”<sup>1,3</sup>.</b></li> <li>4. <b>“Farmakologiya asoslari”</b> – tibbiyot talabalari uchun qo‘llanma.</li> <li>5. <b>O‘zbekiston Respublikasi “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati</b></li> </ol>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

**Mavzu: Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari.**

**Dars reja:**

1. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi tushunchasi va ahamiyati
2. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining tuzilishi
3. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining asosiy vazifalari
4. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish

**1. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi tushunchasi va ahamiyati**

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi — bu shifoxona, poliklinika, klinika va boshqa tibbiy muassasalar tarkibida faoliyat yurituvchi maxsus farmatsevtik bo'linma bo'lib, u bemorlarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va sanitariya vositalari bilan uzluksiz ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu dorixona muassasa ichki ehtiyojlari uchun mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy vazifasi davolash va profilaktika jarayonlarining samarali olib borilishini ta'minlashdan iborat.

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi tibbiy muassasaning davolash jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki dori vositalarining o'z vaqtida va to'g'ri yetkazilishi bemor sog'lig'ini saqlash va davolash samaradorligini oshiradi. Ushbu dorixona orqali bo'limlar zarur dori vositalari bilan ta'minlanadi, dori vositalarining sifati va xavfsizligi nazorat qilinadi hamda ularning to'g'ri saqlanishi ta'minlanadi.

Mazkur dorixonaning ahamiyati shundaki, u tibbiy muassasa ichida dori vositalarining markazlashgan ta'minotini tashkil etadi. Bu esa dori vositalarini hisobga olish, sarfini nazorat qilish va isrof bo'lishining oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi orqali sterillangan eritmalar, infuzion suyuqliklar va ayrim hollarda individual dori shakllari tayyorlanadi.

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi tibbiy xodimlar uchun ham muhim axborot manbai hisoblanadi. U shifokor va hamshiralarni dori vositalarining qo'llanilishi, dozasi, yon ta'sirlari va saqlash sharoitlari haqida zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Bu esa dori bilan bog'liq xatolarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

**2. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining tuzilishi**

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining tuzilishi uning funksional vazifalarini samarali bajarishga mos holda tashkil etiladi. Dorixona tarkibiy jihatdan bir necha asosiy bo'lim va xonalardan iborat bo'lib, har bir bo'lim muayyan vazifani bajarishga ixtisoslashgan bo'ladi. Tuzilmaning to'g'ri tashkil etilishi dori

vositalarining xavfsiz saqlanishi, hisobga olinishi va bemorlarga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dorixona tarkibida, avvalo, qabul qilish va saqlash bo‘limi mavjud bo‘ladi. Bu bo‘limda dori vositalari va tibbiy buyumlar qabul qilinadi, ularning miqdori, sifati va yaroqlilik muddati tekshiriladi. Qabul qilingan dori vositalari belgilangan tartibda ombor xonalariga joylashtiriladi. Saqlash xonalari dori vositalarining xususiyatlariga qarab ajratiladi: sovutkichli xonalar, qorong‘i joyda saqlanadigan dorilar uchun maxsus shkaflar, zaharli va kuchli ta‘sir etuvchi moddalar uchun alohida seyflar tashkil etiladi.

Dorixona tuzilmasida dori tayyorlash bo‘limi ham muhim o‘rin tutadi. Bu bo‘limda shifokor buyurtmasiga asosan individual dori shakllari — eritmalar, kukunlar, surtma va boshqa preparatlar tayyorlanadi. Ushbu bo‘lim sanitariya-gigiyena talablariga to‘liq javob berishi, zarur asbob-uskunalar bilan jihozlangan bo‘lishi lozim.

Shuningdek, dorixona tarkibida bo‘limlarga dori tarqatish xonasi mavjud bo‘ladi. Bu yerda dori vositalari tibbiy bo‘limlarga belgilangan talabnomalar asosida beriladi. Dori tarqatish jarayonida dori nomi, miqdori, saqlash sharoiti va foydalanish muddati qat‘iy nazorat qilinadi.

Dorixonaning tuzilmasida hisob-kitob va hujjatlar yuritiladigan ish xonasi ham ajratiladi. Ushbu xonada dori vositalarining kirim-chiqimi, sarfi, hisoboti va hisobot hujjatlari yuritiladi. Bu bo‘lim dorixona faoliyatining shaffofligini va nazoratini ta‘minlaydi.

### **3. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining asosiy vazifalari**

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining asosiy vazifalari tibbiy muassasada davolash va profilaktika jarayonlarini uzluksiz va samarali olib borishni ta‘minlashga qaratilgan. Dorixona faoliyati bemorlar xavfsizligi, dori vositalarining sifati va ularning oqilona qo‘llanilishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Dorixonaning eng muhim vazifalaridan biri tibbiy bo‘limlarni zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan o‘z vaqtida ta‘minlashdan iboratdir. Buning uchun dorixona shifoxona bo‘limlaridan kelib tushgan talabnomalarni qabul qiladi, ularni tekshiradi va belgilangan tartibda dori vositalarini yetkazib beradi. Bu jarayonda dori nomi, dozasi, miqdori va yaroqlilik muddati qat‘iy nazorat qilinadi.

Dorixonaning yana bir muhim vazifasi dori vositalarini to‘g‘ri saqlash va ularning sifatini saqlab qolishdir. Dorixona xodimlari dori vositalarini saqlashda ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalariga, sanitariya-gigiyena talablariga va amaldagi me‘yoriy hujjatlarga amal qiladilar. Harorat, namlik, yorug‘lik rejimiga rioya qilinishi dorixonaning kundalik nazorat vazifalariga kiradi.

Shuningdek, dorixona dori vositalarining hisobini yuritish va ularning sarfini nazorat qilish vazifasini ham bajaradi. Dori vositalarining kirim-chiqimi, qoldig'i va sarfi hujjatlar orqali rasmiylashtiriladi. Bu jarayon dori vositalarining isrofgarchiligining oldini olishga va moddiy javobgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Dorixonaning muhim vazifalaridan yana biri shifokor buyurtmalariga asosan individual dori shakllarini tayyorlashdir. Bunday dorilar steril va nosteril sharoitda tayyorlanib, maxsus belgilangan qoidalarga muvofiq markirovka qilinadi. Bu jarayon bemorlar uchun individual davolash rejalarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, dorixona tibbiy xodimlarni dori vositalari bo'yicha axborot bilan ta'minlaydi. Dorixona mutaxassislari shifokor va hamshiralarga dori vositalarining qo'llanilishi, yon ta'sirlari, muvofiqligi va saqlash sharoitlari haqida maslahatlar beradilar. Bu esa dori bilan bog'liq xatolar va asoratlarning oldini olishga yordam beradi.

#### **4. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish**

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi faoliyatini to'g'ri tashkil etish dori vositalari bilan ta'minlash jarayonining uzluksizligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Dorixona faoliyati amaldagi qonun hujjatlari, sog'liqni saqlash sohasiga oid me'yoriy hujjatlar hamda ichki buyruqlar asosida olib boriladi.

Dorixona faoliyatini tashkil etishda, avvalo, ish jarayonining rejalashtirilishi muhim hisoblanadi. Dorixona xodimlari o'rtasida vazifalar aniq taqsimlanadi, har bir xodimning mas'uliyati va javobgarligi belgilanadi. Dori vositalarini qabul qilish, saqlash, tayyorlash va bo'limlarga tarqatish jarayonlari alohida tartib asosida amalga oshiriladi.

Dorixona faoliyatida ichki nazorat muhim o'rin tutadi. Ichki nazorat dori vositalarining sifati, yaroqlilik muddati, saqlash sharoitlari va hisob-kitob hujjatlarining to'g'ri yuritilishini o'z ichiga oladi. Dorixona mudiri yoki mas'ul farmatsevt tomonidan muntazam ravishda tekshiruvlar o'tkaziladi, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etiladi.

Shuningdek, davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi faoliyati tashqi nazorat organlari tomonidan ham tekshiriladi. Sog'liqni saqlash organlari, sanitariya-epidemiologiya xizmatlari va boshqa vakolatli tashkilotlar dorixona faoliyatining amaldagi talablarga muvofiqligini nazorat qiladi. Bu nazorat dori vositalarining sifati va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dorixona faoliyatini tashkil etishda farmatsevt assistentlari va boshqa xodimlarning kasbiy tayyorgarligi ham katta ahamiyatga ega. Xodimlar muntazam ravishda malaka oshirib borishlari, yangi dori vositalari va normativ hujjatlar bilan tanishib borishlari zarur.

Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi (DPMP dorixonasi) bemorlarga dori-darmon yetkazish, ularni tayyorlash, saqlash va nazorat qilish, shuningdek, shifokorlar buyruqlari asosida dorilarni taqsimlash, dori ta'minotini nazorat qilish, dori vositalari sifatini saqlash, farmasevtik xizmat ko'rsatish orqali davolash-profilaktika jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan muhim bo'g'in hisoblanadi.

### **DPMP dorixonasining asosiy vazifalari:**

1. **Dori ta'minoti:** Muassasa ehtiyojlariga ko'ra dorilar, tibbiy buyumlar, disinfektant vositalarni xarid qilish, saqlash va taqsimlash.
2. **Dori tayyorlash:** Shifokor reseptlariga binoan dorilarni o'zida (in-house) tayyorlash (steril, no-steril, quyma, ampulalar, malhamlar).
3. **Nazorat va sifatni ta'minlash:** Dori vositalarining saqlash sharoitini (harorat, yorug'lik) nazorat qilish, ularning yaroqlilik muddatini o'tkazmaslik va sifatini ta'minlash.
4. **Farmasevtik xizmat:** Shifokorlar va bemorlarga dori vositalari bo'yicha maslahatlar berish, ulardan to'g'ri foydalanishni tushuntirish.
5. **Hujjatlar yuritish:** Dori vositalarining hisobini yuritish, davlat nazorat organlari talablariga muvofiq hujjatlarni rasmiylashtirish.
6. **Aylanma mablag'larni boshqarish:** Dori sotib olish uchun ajratilgan mablag'larni samarali boshqarish.

### **DPMP dorixonasining ahamiyati:**

- **Tezkor ta'minot:** Bemorlarga shoshilinch zarur dorilarni tez yetkazish imkonini beradi.
- **Xavfsizlik:** Dori sifatini nazorat qilish orqali bemorlar salomatligini himoya qiladi.
- **Maxsus ehtiyojlar:** Ba'zi dorilarni individual tayyorlash orqali bemorning o'ziga xos holatiga mos keluvchi muolajani ta'minlaydi.

DPMP dorixonasi, asosan, davolash-profilaktika muassasasi ichida dori ta'minotini yaxshilash va bemorlarga sifatli farmasevtik xizmat ko'rsatishga qaratilgan.

### **Mavzuga oid tibbiy atamalar**

13

1. **Davolash-profilaktika muassasasi (DPM)** – aholiga tibbiy yordam ko'rsatadigan shifoxona, poliklinika va boshqa tibbiy tashkilotlar.
2. **Dori vositalari ta'minoti** – bemorlarni zarur dori preparatlari bilan ta'minlash jarayoni.
3. **Farmasevtik nazorat** – dori vositalarining sifati, saqlanishi va berilishini tekshirish.
4. **Retseptura** – dori vositalarini retsept asosida tayyorlash va berish jarayoni.
5. **Sterilizatsiya** – mikroorganizmlarni to'liq yo'q qilish jarayoni.

6. **Dozalash** – dori vositasining aniq miqdorini belgilash.
7. **Farmatsevtik logistika** – dori vositalarini qabul qilish, saqlash va tarqatish tizimi.
8. **Yaroqlilik muddati** – dori vositasining foydalanish mumkin bo‘lgan davri.
9. **Antiseptika** – mikroblarni yo‘q qilish yoki ularning rivojlanishini to‘xtatish usullari.
10. **Farmatsevtik hujjatlar yuritish** – dori vositalarini hisobga olish va qayd etish tizimi.

### “Atamani top”

**Maqsad:** talabalarning tibbiy atamalarni eslab qolishini mustahkamlash.

#### Sxema:

1. O‘qituvchi 2 guruhga bo‘ladi.
2. Har bir guruhga atama yoki ta’rif yozilgan kartochkalar beriladi.
3. Bir guruh ta’rifni o‘qiydi, ikkinchi guruh **mos tibbiy atamani topadi**.
4. To‘g‘ri javob uchun **1 ball** beriladi.
5. Eng ko‘p ball to‘plagan guruh g‘olib bo‘ladi.

### 1-interfaol o‘yin: “Dorixonani to‘g‘ri tashkil et”

**Maqsad:** DPM dorixonasining vazifalari va bo‘limlarini tushunish.

#### O‘yin jarayoni (sxema):

1. O‘qituvchi talabalarni **2–3 guruhga** bo‘ladi.
2. Har bir guruhga kartochkalar beriladi. Kartochkalarda quyidagilar yozilgan bo‘ladi:
  - Dori vositalarini qabul qilish
  - Saqlash
  - Bo‘limlarga tarqatish
  - Retsept asosida berish
  - Hisob-kitob yuritish
3. Talabalar kartochkalarni **dorixona ish jarayoni ketma-ketligi bo‘yicha joylashtiradi**.

#### Sxema:

Dori vositalarini qabul qilish



Saqlash nazorati



Bo‘limlarga taqsimlash



Bemorlarga berish



Hisob va hujjatlarni yuritish

**Natija:** to‘g‘ri ketma-ketlikni tuzgan guruh g‘olib bo‘ladi.

### Nazorat savollari

13

1. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi deganda nima tushuniladi?
2. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining tibbiy muassasadagi ahamiyati nimadan iborat?

3. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining asosiy tarkibiy bo'limlarini sanab bering.
4. Dorixonada dori vositalarini qabul qilish va saqlash jarayoni qanday tashkil etiladi?
5. Dorixonaning tibbiy bo'limlarni dori vositalari bilan ta'minlashdagi vazifalari nimalardan iborat?
6. Dori vositalarining hisobini yuritish nima uchun muhim hisoblanadi?
7. Individual dori shakllari tayyorlashda dorixonaning roli qanday?
8. Dorixona faoliyatida ichki nazorat nima va u qanday amalga oshiriladi?
9. Dorixona faoliyati ustidan tashqi nazoratni qaysi tashkilotlar amalga oshiradi?
10. Dorixona xodimlarining malaka oshirishi nima uchun zarur?

### **Test savollari**

1. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasining asosiy vazifasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - A) Aholiga chakana dori sotish
  - B) Tibbiy muassasani dori vositalari bilan ta'minlash
  - C) Faqat hujjatlar yuritish
  - D) Tibbiy xizmat ko'rsatish
2. Dorixona tarkibiga qaysi bo'lim kiradi?
  - A) Operatsion zal
  - B) Qabul va saqlash bo'limi
  - C) Diagnostika bo'limi
  - D) Reanimatsiya bo'limi
3. Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dori vositalari qayerda saqlanadi?
  - A) Ochiq javonlarda
  - B) Oddiy ombor xonasida
  - C) Maxsus seyflarda
  - D) Dori tarqatish xonasida
4. Dorixona dori vositalarini bo'limlarga qanday asosda beradi?
  - A) Og'zaki so'rov asosida
  - B) Talabnoma hujjati asosida
  - C) Erkin tartibda
  - D) Bemor xohishiga ko'ra
5. Dorixonada dori vositalarining hisobini yuritishning asosiy maqsadi nima?
  - A) Dori narxini oshirish
  - B) Isrofgarchilikning oldini olish
  - C) Dorixona yopilishini ta'minlash
  - D) Xodimlar sonini kamaytirish <sup>13</sup>
6. Individual dori shakllari kimning buyurtmasiga asosan tayyorlanadi?
  - A) Hamshira
  - B) Bemor
  - C) Shifokor
  - D) Dorixona mudiri

7. Dorixona faoliyatida ichki nazoratni kim amalga oshiradi?
  - A) Bemorlar
  - B) Dorixona xodimlari va mas'ul shaxs
  - C) Faqat tashqi tashkilotlar
  - D) Tibbiy bo'limlar
8. Dorixona faoliyati ustidan tashqi nazoratni qaysi organlar olib boradi?
  - A) Bank muassasalari
  - B) Ta'lim muassasalari
  - C) Sog'liqni saqlash va sanitariya nazorat organlari
  - D) Savdo tashkilotlari
9. Dorixona xodimlarining malaka oshirishi nimaga xizmat qiladi?
  - A) Ish vaqtini qisqartirishga
  - B) Yangi dori vositalari va talablarni bilishga
  - C) Dorixona faoliyatini to'xtatishga
  - D) Hisobotlarni bekor qilishga
10. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi faoliyatining asosiy natijasi nima?
  - A) Foyda olish
  - B) Bemorlar xavfsizligini ta'minlash
  - C) Dorilarni reklama qilish
  - D) Savdo hajmini oshirish

### Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. **E.R. Toshmuxamedov** – “**Farmatsevtika ishini tashkil qilish**”. Toshkent: *Iqtisod-moliya*, 2008.
  - Dorixonalar faoliyatini tashkil etish, retseptlar bilan ishlash, dori tayyorlash va nazorat qilish masalalari yoritilgan.
2. **E.R. Toshmuxamedov, X.S. Zaynutdinov va boshqalar** – “**Farmatsevtika ishini tashkil qilish**” (darslik).
  - Farmatsevtika xizmati, dorixona bo'limlari, DPM dorixonasi faoliyati haqida batafsil ma'lumot beradi.
3. “**Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi**” – referat va o'quv materiallari to'plami.
  - DPM dorixonasining tuzilishi, vazifalari, dorilarni saqlash qoidalari va dorixona mudirining vazifalari haqida ma'lumot beriladi.

### 2. Me'yoriy hujjatlar va qo'llanmalar

4. **O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 400-son buyrug'i** – “Davolash-profilaktika muassasalari dorixonalari ishini yaxshilash to'g'risida”.
5. **Davlat farmakopeyasi** (O'zbekiston Respublikasi) – dori vositalarini tayyorlash va saqlash standartlari.
6. **Sanitariya qoidalari va me'yorlari (SanPiN)** – tibbiyot muassasalarida dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash talablari.

### 3. Qo'shimcha o'quv manbalari

7. **Farmakologiya** – tibbiyot institutlari uchun darslik.
8. **Farmatsevtik texnologiya** – dori tayyorlash usullari haqida.

9. **Dorixona iqtisodiyoti va menejmenti** – dorixona faoliyatini boshqarish asoslari.
10. **Farmatsevtika terminologiyasi va amaliyoti** – farmatsevtik faoliyatda qo‘llaniladigan tushunchalar.

Bu adabiyotlarda **shifoxona (DPM) dorixonasi tuzilishi, vazifalari, dorilarni saqlash, bo‘limlarga tarqatish va nazorat qilish** kabi masalalar batafsil yoritiladi.

<b>2.2.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati,uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi.</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	5. Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari. 6. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan farmatsevtika sanoatining rivojlanishi. 7. Maxalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> <b>1.Ta'limiy :</b> Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b> Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatini natijalari:</b>
Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati,uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi. Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejment turlari. Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Respublikada chiqarish farmatsevtik ishlab soxasini rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan dori turlari, ularga qo'yilgan talablar. Maxalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.	Tinglovchi: Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati,uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi. Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejment turlari. Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Respublikada chiqarish farmatsevtik ishlab soxasini rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan dori turlari, ularga qo'yilgan talablar. Maxalliy ishlab

	chiqarilayotgan dori vositalari.
O'qitish metodlari	“Aqliy hujum” ,”Mozaika”usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar
<b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b> <b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b> <b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b> <b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini</b>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida”Aqliy hujum” metodi bo'yicha savol javob qilinadi.<sup>13</sup></p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot “Ma'ruza o'qish” usulida tushuntiriladi. <b>O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar</b> mavzu</p>	Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida”Aqliy hujum” metodi bo'yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar.

<p><b>qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>bo'yicha <b>bilimi</b> mustahkamlanadi.</p>	<p>Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."Mozaika" sxemasi bo'yicha tinglovchilar bilimini mustahkamlanadi.</p>
<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .  Uyga vazifa: Farmatsiya menejmentifani va uning vazifalari, mohiyati,uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi mavzusini o'qib kelish va mavzuga oid 10 ta atama yozib kelish.  Tavsiya etiladigan adabiyotlar:  1.Xolmatov A.X., <b>Tibbiyot terminologiyasi asoslari</b>, Toshkent, 2019.  2.Sultonov M., <b>Lotin tili va tibbiy terminologiya</b>, Toshkent, 2018.  3.O'zbekiston Respublikasi, <b>Tibbiyot sohasida lotin atamalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanma</b>, Toshkent, 2020.  4.Karimov Sh., <b>Anatomiya va lotin tili terminologiyasi</b>, Toshkent, 2017.  5.Toshkent tibbiyot akademiyasi, <b>Tibbiyot terminlari va lotin atamalari o'quv qo'llanmasi</b>, 2021.  6. Farmatsiya iqtisodi va farmatsiyadagi dolzarb masalalar.Navoiy-2019 y.V.N.Turaqulov, A.O.Hazratqulova 86-89 bet</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

**Mavzu: Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati,uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi.**

## **Dars rejasi:**

1. Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari.
2. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan farmatsevtika sanoatining rivojlanishi.
3. Maxalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.

### **Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati, funksiyasi.**

Dorixona xodimlari aholi va DPMLami dori vositalari yetkazib berishdek asosiy vazifalarini bajarishlarida ular o'z faoliyatlarida ichki mehnat tartib-qoidalariga amal qiladilar.

Bu qoidalar farmatsevtlarni mehnat intizomini mustahkamlaydi, dorixonada xavfsiz mehnat sharoitlarini to'g'ri taslikil qilish, ish vaqtdan to'liq va unumli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, sifatli tovar ishlab chiqarish, aholi va davolash muassa- salariga madaniy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Dorixona xodimlarining ichki mehnat tartib-qoidalari quyidagi bo'limlami o'z ichiga oladi:

- xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish tartibi;
- xodimlarning asosiy vazifalari;
- ma'muriyatning asosiy vazifalari;
- ish vaqti va undan foydalanish;
- dam olish vaqti va uning turlari;
- ishdagi muvaffaqiyatlar uchun taqdirlash;
- mehnat intizomini buzganlik uchun ko'riladigan chora - tadbirlar (jazolar).

Dorixona ma'muriyati bu ichki mehnat tartib-qoidalarini ko'zga tashlanadigan joyga osib qo'yishlari lozim. Bundan tashqari, lavozim yo'riqnomalari va maxsus texnik qoidalar va yo'riq- nomalar ham bo'lib, ular ayrim xizmatchilarning mehnat vazifalarini mustahkamlaydi.

Turli farmatsevt lavozimlarida ishlaydiganlar uchun lavozim yo'riqnoma (instruksiya)larda ularning huquq va vazifalari aniqlab berilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi fuqarolarning mehnat huquqlari 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Dorixona rahbariyatining eng asosiy vazifalaridan biri qoidalar va uslublar bo'yicha ishga qabul qilinayotgandagi kirish, ish joyidagi birlamchi va qayta

o'tkaziladigan instruktajlar hisoblanadi.

Bizning amaliyotda ish vaqti bu mehnat qonunlariga muvofiq ravishda, shartnomada ko'zda tutilgan holda xodimning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishga majbur bo'lgan vaqt tushuniladi. Mehnat qonunchiligiga ko'ra, ish vaqtini quyidagi turlari belgilangan: normal ish vaqti va qisqartirilgan ish vaqti.

Normal ish vaqti Mehnat kodeksiga muvofiq, haftasiga 40 soatdan oshmasligi lozim. Bu ko'rsatkich 1996-yil 1-aprelgacha 41 soatni tashkil etar edi. Normal ish vaqti 40 soat bo'lganda, har kuni 7 soatdan ishlash kerak. Shanbada esa 5 soatni tashkil etadi yoki bir xil qilib ish kuniga ko'ra, korxonada ma'muriyati mehnat ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqishlari lozim.

Qisqartirilgan ish vaqti — xodimning yoshiga va mehnat sharoitiga qarab belgilanishi mumkin. Hozirgi vaqtda qisqartirilgan ish vaqti 14—16 yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga 24 soatdan oshmasligi lozim. 16—18 yoshdagilarga esa 36 soatdan oshmasligi kerak. Qisqartirilgan ish vaqti bo'lishiga qaramay, bu xodimlar bir xil ish haqini oladilar. Normal ish vaqti, o'z navbatida, quyidagi turlarga ajraladi:

1. To'liqsiz ish vaqti.
2. Me'yoranmagan ish vaqti.

To'liqsiz ish vaqti homilador ayollarga, 3 yoshgacha bolalari bor va ko'p bolali ayollarga, uyda bemor bo'lib unga qarab turuvchi kishida tibbiyot xulosasi bo'lganda beriladi. Bunday xodimlar barcha qatori to'liq ish haqi oladilar.

Me'yoranmagan ish vaqti, bu — normal ish vaqtiga teng bo'lib, turli lavozimdagi moddiy javobgar shaxslar, qaysiki, yakshanba, bayram kunlari va kundalik ish vaqtdan keyin ham \* ishni davom ettirishlari mumkin. Lekin bu ortiqcha ishlagani uchun ularga qo'shimcha ish haqi yoki kun berilmaydi, bu xodimlarga ta'tilga qo'shib beriladi va shu kunlarga ham haq to'lanadi.

Tungi ish vaqti ishlab chiqarishni to'xtatish mumkin bo'lmagan korxonalarda qo'llaniladi, jumladan, dorixonalarda ham. Tungi ish vaqti kech soat 22 dan ertalabki 6 gacha hisoblanadi. Tungi navbatchilikka homilador ayollar, nogironlar va bolalar qo'yilmaydi, biroq 16 yoshgacha bolalari bor ayollarni esa ularning roziligi bilan qo'yiladi.

Korxonalarda xodimlarni asosiy ish vaqtidan so'ng, ortiqcha vaqtga ishga jalb qilish mumkin. Ularni haftasiga 2 kundan ortiq va 4 soatdan ortiq ishga jalb qilib bo'lmaydi va bir yilda esa 120 soatdan ortiqcha ishga jalb qilish mumkin emas.

Xodim ishlab chiqarish zaruratiga ko'ra, ortiqcha ishga jalb qilinsa, u holda unga qo'shimcha haq to'lanadi yoki boshqa kuni dam olishi mumkin. Bunda xodimga har bir ortiqcha ishlagan soatiga o'rtacha ish haqining 2 barobaridan kam boimagan miqdorda haq tolanadi. Lekin 18 yoshgacha bo'lgan xodimlarni, homiladorlar, nogironlar va 3 yoshgacha bolalari bor ayollarni ortiqcha ishlarga jalb qilinmaydi.

Qonunchilik bo'yicha dam olish vaqtining quyidagi turlari mavjud: ish kuni davomida i. ovqatlanish va dam olish kunlari, bayram kunlari va ta'tillar kiradi.

Ovqatlanish va dam olish vaqti ish boshlangandan so'ng uzog'i bilan 4 soatdan keyin beriladi. Bu tanaffus vaqti 15 minut- dan 2 soatgacha berilishi mumkin va u ish vaqtiga kirmaydi. Agar xodim dam olish va ovqatlanish vaqtida jarohat olsa, u holda uni ish vaqtida jarohat olgan hisoblanadi. Maishiy jarohat ishdan tashqari vaqtda olganga kiradi. Shuning uchun har qanday korxonada tushlik vaqtida ovqatlanish uchun qulay sharoit yaratib berilishi lozim.

**Mavzu:** "O'zfarmosanoat" davlat konsernining tashkiliy tuzilishi va vazifalari. "Dori-darmon" Aksionerlik kompaniyasi, tuzilishi va vazifalari.

Dars rejasi:

1. "O'zfarmosanoat" davlat konsernining tashkiliy tuzilishi.
2. "Dori-darmon" Aksionerlik kompaniyasi, tuzilishi va vazifalari.

Farmonda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risidagi nizam, vazirlikning na'muriy boshqaruv xodimlarining soni, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Nazorat inspeksiyasi to'g'risidagi, vazirlikning o'rinbosarlari, shu bilan birga, boshqarish jarayonida, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining o'rinbosari hisoblanishi ko'rsatilgan. Ushbu Farmon va amaldagi qarorlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmatsiya sog'liqni saqlash tizimini ajralmas qismi ekanligi qayd etilgan. Ta'kidlash lozimki, respublikada farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtirishda, O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-sonli qarori muhim rol o'ynaydi. «Dori-darmon» davlat aksiyadorlik uyushmasi va uning hududiy birlashmalari dori vositalari hamda tibbiyot buyumlari buyurtmalarining asosiy turlari, ya'ni davlat buyurtmalari bo'yicha sog'liqni saqlash organlari tomonidan tasdiqlangan hayotiy zarur (asosiy) dori vositalari va tibbiy ashyolar bilan ta'minlashni bajarilishi aniq ko'rsatildi.

Shu qarorga asosan davlat aksiyadorlik uyushmasi va hududiy «Dori-darmon» davlat aksiyadorlik birlashmalari o'zining ishlab chiqarish — xo'jalik va moliyaviy faoliyati istiqbolini mustaqil belgilaydi, bozor konyunkturasini tashkil etgan holda marketing xizmatlarini ko'rsatib, o'z ta'sischilarining manfaatlarini ifodalaydi. ^

«Dori-darmon» DAU faoliyatini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 20-maydagi 131-sonli qarori bilan «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi. Ushbu qarorga ko'ra, «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniya sining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi aholisini sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash;
- marketing tadqiqotlari o'tkazish hamda hayotiy muhim bo'lgan asosiy dori vositalari va tibbiyot buyumlariga, shu jumladan, giyohvand hamda hisobda turadigan psixotrop preparatlarga buyurtmalarni shakllantirish hamda tuziladigan shartnomalar asosida respublika sog'liqni saqlash tizimi muassasalarining ularga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha davlat zaxirasining dori vositalari va tibbiyot buyumlariga ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash;
- «Dori-darmon» aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan dorixona muassasalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, mavjud farmatsevtika tovarlari resurslari to'g'risidagi yagona respublika axborotlar tizimini yaratish;
- dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni tashkil etishga investitsiyalarni jalb qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish.

Ushbu qarorga muvofiq, «Dori-darmon» AK tarkibiga kirgan korxonalar va taslikilotlar ro'yxati va tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

### **Mavzuga oid tibbiy atamalar**

1. **Farmatsevtika** – dori vositalarini ishlab chiqarish va o'rganish sohasi.
2. **Retsept** – shifokor tomonidan yozilgan dori buyurtmasi.

3. **Farmakologiya** – dori vositalarining ta’sirini o‘rganuvchi fan.
4. **Doza** – dori vositasining ma’lum miqdori.
5. **Farmatsevt** – dori vositalari bilan ishlovchi mutaxassis.
6. **Logistika** – dori vositalarini yetkazib berish va taqsimlash tizimi.
7. **Generik dori** – asl dorining arzon analogi.
8. **Farmatsevtik xizmat** – dorixona orqali aholiga ko‘rsatiladigan xizmat.
9. **Saqlash sharoiti** – dori vositalarini ma’lum harorat va namlikda saqlash talablari.
10. **Farmatsevtik nazorat** – dorilar sifati va xavfsizligini tekshirish jarayoni.

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.
- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.
- Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

### **”Mozaika” - ish o‘yinini o‘tkazish usuli.**

Bunda tinglovchilar guruh-larga bo‘linadilar. Mavzuga oid savollar va javoblar konvertga joylashtiriladi. Har bir guruhdan tinglovchi konvert tanlab, ichidagi savollarga mos javoblarni ma’lum vaqt ichida to‘g‘ri joylashtirib berishlari shart.

So‘ngra o‘qituvchi to‘g‘ri javoblarni tekshiradi. Birinchi va to‘g‘ri javob bergan guruh baholandi.

### **Mavzuga oid testlar**

#### **1. Farmatsiya menejmenti fani nima bilan shug‘ullanadi?**

- A) Faqat dorixonani ochish bilan
- B) Farmatsevtik tizim va resurslarni samarali boshqarish bilan
- C) Faqat dori vositalarini ishlab chiqarish bilan
- D) Klinika tadqiqotlari bilan

**Javob: B**

13

#### **2. Farmatsiya menejmentining asosiy vazifalaridan biri nima?**

- A) Dori vositalari narxini oshirish
- B) Farmatsevtik xizmat sifatini oshirish
- C) Faqat dorixonalarni yopish

D) Mahsulotlarni eksport qilish

**Javob: B**

**3. Farmatsiya menejmenti fani qaysi tizimni boshqarishda qo'llaniladi?**

A) Sog'liqni saqlash va farmatsevtika tizimini

B) Faqat transport tizimini

C) Faqat savdo tizimini

D) Faqat ta'lim tizimini

**Javob: A**

**4. Quyidagi qaysi ijtimoiy fan farmatsiya menejmenti bilan integratsiyalashgan?**

A) Psixologiya, iqtisod, huquq

B) Geografiya

C) Fizika

D) Astronomiya

**Javob: A**

**5. Farmatsiya menejmentida resurslarni boshqarish nimani o'z ichiga oladi?**

A) Xodimlarni va moddiy resurslarni samarali taqsimlash

B) Faqat dori vositalarini ishlab chiqarish

C) Faqat reklama qilish

D) Faqat hujjatlarni yuritish

**Javob: A**

**6. Farmatsiya menejmentining mohiyati nimada aks etadi?**

A) Dori vositalarini sotishni oshirishda

B) Sifatli va xavfsiz farmatsevtik xizmatni ta'minlashda

C) Faqat dorixonalarni ro'yxatdan o'tkazishda

D) Mahsulotlarni import qilishda

**Javob: B**

**7. Farmatsiya menejmenti qaysi faoliyatni tartibga soladi?**

A) Ishlab chiqarish, distribyutsiya va chakana realizatsiya

B) Faqat ilmiy ishlanmalarni

C) Faqat reklama va marketingni

D) Faqat xodimlarni ishga olish

**Javob: A**

**8. Quyidagi qaysi usullar farmatsiya menejmentida qo'llaniladi?**

A) Rejalashtirish, nazorat, tashkiliy boshqaruv

B) Faqat tajriba o'tkazish

C) Faqat laboratoriya sinovlari

D) Faqat reklama kampaniyalari

**Javob: A**

**9. Farmatsiya menejmenti fanining boshqâ ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi nimaga xizmat qiladi?**

A) Resurslarni tejash va samarali boshqaruvni ta'minlash

B) Faqat dorixonani yopishga

C) Dori vositalari narxini oshirishga

D) Reklamani kuchaytirishga

**Javob: A**

### **10. Farmatsiya menejmenti fanining maqsadi nima?**

- A) Faqat dorixonalar sonini ko'paytirish
- B) Sog'liqni saqlash tizimida farmatsevtik xizmat sifatini oshirish
- C) Faqat dorilarni eksport qilish
- D) Faqat laboratoriya ishlarini olib borish

**Javob: B**

### **10 ta nazorat savol**

1. Farmatsiya menejmenti fanining mohiyati nimada?
2. Farmatsiya menejmentining asosiy vazifalarini sanab bering.
3. Farmatsiya menejmenti qaysi faoliyat turlarini boshqaradi?
4. Farmatsiya menejmenti va iqtisod fanining integratsiyasi qanday amalga oshadi?
5. Farmatsiya menejmentida kadrlar bilan ishlash qanday tashkil etiladi?
6. Resurslarni boshqarish farmatsiya menejmentida qanday ahamiyatga ega?
7. Farmatsiya menejmenti nazorat va rejalashtirishni qanday amalga oshiradi?
8. Farmatsiya menejmenti fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi nimaga xizmat qiladi?
9. Farmatsevtik xizmat sifatini oshirish uchun farmatsiya menejmenti qanday chora-tadbirlar ko'radi?
10. Farmatsiya menejmenti fanining dori vositalari bilan bog'liq qaysi jarayonlarda qo'llanilishi mumkin?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

6. **“Farmatsiya menejmenti”** – O'zbekiston tibbiyot oliygohlari uchun darslik.
7. **Sh. Karimov** – **“Farmatsevtika iqtisodiyoti va menejmenti”**.
8. **A. Xoliqov** – **“Dorixona ishini tashkil etish”**.
9. **“Farmakologiya asoslari”** – tibbiyot talabalari uchun qo'llanma.
10. **O'zbekiston Respublikasi “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida”gi qonuni.**

<p><b>2.2.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b></p>	<p><b>Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejment turlari.</b></p>
--	---

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<p><b>Vaqt 80 daqiqa</b></p>	<p><b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b></p>
<p><b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b></p>	<p><b>Nazariy mashg'ulot</b></p>
<p align="center"><b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Farmasevtika menejmenti tushunchasi va uning mohiyati</li> <li>2. Farmasevtika menejmentining ob'ekti</li> <li>3. Farmasevtika menejmentining sub'ekti</li> <li>4. Farmasevtika menejmentining asosiy turlari</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p align="center"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati,uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi. Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejment turlari. Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Respublikada chiqarish farmatsevtik ishlab soxasini rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan dori turlari, ularga qo'yilgan talablar. Maxalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <p>Tinglovchi: Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati,uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi. Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejment turlari. Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Respublikada chiqarish farmatsevtik ishlab soxasini rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan dori turlari, ularga qo'yilgan talablar. Maxalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.</p>

O'qitish metodlari	Zamonaviy ta'lim metodlari usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitaladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida"" metodi bo'yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. <b>O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar mavzu bo'yicha bilimi</b> mustahkamlanadi.</p>	Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida"Blits savol " metodi bo'yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.

<b>xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b>		Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."Baliq skeleti "sxemasi bo'yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi . Uyga vazifa: Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejment turlari. mavzusini o'qib kelish va mavzuga oid 10 ta test tuzish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.Natsionalnaya programma po borbe protiv tabaka v Respublike Uzbekistan na 2008 – 2012 gg. Tashkent 2007 g. 2.V.YE.AvakovO.V. ChurilovaA.M.Sharipov"Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi." 2010g.	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

**Mavzu: Menejment ob'ekti va sub'ekti. Menejment turlari.**

**Reja**

1. Farmasevtika menejmenti tushunchasi va uning mohiyati
2. Farmasevtika menejmentining ob'ekti
3. Farmasevtika menejmentining sub'ekti
4. Farmasevtika menejmentining asosiy turlari

**1. Farmasevtika menejmenti tushunchasi va uning mohiyati**

Farmasevtika menejmenti — bu farmasevtika sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar, jumladan dorixonalar, farmasevtika korxonalari, ulgurji ta'minot tizimlari va sog'liqni saqlash muassasalaridagi dorixona bo'limlarini samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyatdir. Farmasevtika menejmentining asosiy maqsadi dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan aholining ehtiyojini sifatli, xavfsiz va uzluksiz ta'minlashdan iborat.

Farmasevtika menejmenti iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. U dori vositalarini ishlab chiqarish, saqlash, taqsimlash va realizatsiya qilish jarayonlarida resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, menejment farmasevtika xodimlarining mehnatini to'g'ri tashkil etish, ularning kasbiy faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish vazifalarini ham bajaradi.

Farmasevtika menejmentining mohiyati boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat kabi asosiy boshqaruv funksiyalari amalga oshiriladi. Dorixona yoki farmasevtika korxonasi samarali ishlashi aynan ushbu funksiyalarning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liqdir.

Shuningdek, farmasevtika menejmenti sog'liqni saqlash tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u nafaqat iqtisodiy foyda olishni, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham ko'zda tutadi. Ya'ni, aholini sifatli va xavfsiz dori vositalari bilan ta'minlash, dori vositalaridan oqilona foydalanishni targ'ib qilish va farmasevtik xizmatlar sifatini oshirish farmasevtika menejmentining muhim vazifalaridan biridir.

## **2. Farmasevtika menejmentining ob'ekti**

Farmasevtika menejmentining ob'ekti — bu boshqaruv ta'siri yo'naltiriladigan jarayonlar, tizimlar va faoliyat turlaridir. Ya'ni, menejment ob'ekti farmasevtika sohasida amalga oshiriladigan barcha tashkiliy, iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar farmasevtika tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Farmasevtika menejmentining ob'ektiga, avvalo, dori vositalarining harakati bilan bog'liq jarayonlar kiradi. Bular dori vositalarini ishlab chiqarish, xarid qilish, qabul qilish, saqlash, taqsimlash va aholiga yetkazib berish bosqichlaridan iboratdir. Ushbu jarayonlarning har biri alohida boshqaruv yondashuvini talab qiladi, chunki dori vositalarining sifati va xavfsizligi bevosita ushbu bosqichlarga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, farmasevtika menejmentining ob'ektiga moddiy-texnik resurslar ham kiradi. Dorixona va farmasevtika korxonalaridagi binolar, asbob-uskunalar, texnologik jihozlar, omborlar va transport vositalari boshqaruv ob'ekti hisoblanadi. Bu resurslardan oqilona foydalanish farmasevtika tashkilotining iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Farmasevtika menejmentining muhim ob'ektlaridan yana biri moliyaviy resurslardir. Daromad va xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy oqimlarni boshqarish, dori vositalarining tannarxini nazorat qilish va foydani oshirish masalalari menejment ob'ektiga kiradi. Moliyaviy boshqaruv farmasevtika tashkilotining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, farmasevtika menejmentining ob'ektiga mehnat jarayonlari ham kiradi. Farmatsevtlar, farmatsevt assistentlari va boshqa xodimlarning mehnatini

tashkil etish, ish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash boshqaruv ob'ekti hisoblanadi.

### **3. Farmasevtika menejmentining sub'ekti**

Farmasevtika menejmentining sub'ekti — bu boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar va tashkilotlardir. Ya'ni, menejment sub'ekti farmasevtika sohasida qarorlar qabul qiluvchi, rejalashtiruvchi, tashkil etuvchi va nazorat qiluvchi rahbarlar hamda mutaxassislarni o'z ichiga oladi. Ular boshqaruv jarayonining faol ishtirokchilari bo'lib, farmasevtika tashkilotlari faoliyatining samaradorligini ta'minlaydilar.

Farmasevtika menejmentining asosiy sub'ektlariga dorixona mudiri, farmasevt menejerlar, bo'lim boshliqlari va mas'ul farmatsevtlar kiradi. Ushbu shaxslar dorixona yoki farmasevtika korxonasi faoliyatini umumiy boshqaradi, ish rejalari tuzadi, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

9. **Standartlash** – dori vositalarining sifat ko‘rsatkichlarini belgilangan me’yorlarga moslashtirish jarayoni.
10. **GMP (Good Manufacturing Practice)** – dori vositalarini ishlab chiqarishda xalqaro sifat va xavfsizlik talablari tizimi.

### **Nazorat savollari**

1. Respublika farmatsevtik ishlab chiqarish sohasining shakllanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?
2. Mustaqillik yillarida farmatsevtik ishlab chiqarish sohasida qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?
3. Respublikada ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining asosiy turlarini sanab bering.
4. Qaysi farmakologik guruhlariga mansub dori vositalari mahalliy ishlab chiqarishda keng tarqalgan?
5. Fitopreparatlarning afzalliklari nimada namoyon bo‘ladi?
6. Dori vositalarini ishlab chiqarishda GMP talablari nimani anglatadi?
7. Dori ishlab chiqarishda xomashyoga qanday talablar qo‘yiladi?
8. Dori vositalarining qadoqlanishi va markirovkasi nima uchun muhim?

9. Farmatsevtik ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari nimalardan iborat?
10. Farmatsevtik ishlab chiqarish sohasida uchraydigan asosiy muammolarni izohlang.

### Test savollari

1. Farmatsevtik ishlab chiqarish sohasining asosiy maqsadi nima?
  - A) Foyda olish
  - B) Aholini sifatli va xavfsiz dori vositalari bilan ta'minlash
  - C) Faqat eksportni rivojlantirish
  - D) Dorixonalar sonini ko'paytirish
2. Respublika farmatsevtik ishlab chiqarishida eng ko'p uchraydigan dori shakli qaysi?
  - A) Aerosollar
  - B) Tabletkalar va kapsulalar
  - C) Shamchalar
  - D) Plastrlar
3. Fitopreparatlar asosan nimadan tayyorlanadi?
  - A) Sun'iy moddalar
  - B) Kimyoviy reagentlar
  - C) Dorivor o'simliklar
  - D) Mineral tuzlar
4. GMP talablari nimani ta'minlaydi?
  - A) Dorilar narxining arzonligini
  - B) Dorilarni reklama qilishni
  - C) Dorilar sifati va xavfsizligini
  - D) Dorilarni tez sotilishini
5. Dori vositalarining markirovkasida qaysi ma'lumot bo'lishi shart?
  - A) Ishlab chiqaruvchi reklamalari
  - B) Narxi
  - C) Qo'llash usuli va yaroqlilik muddati
  - D) Dorixona manzili
6. Mahalliy farmatsevtik ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi qaysi?
  - A) Importni ko'paytirish
  - B) Import o'rini bosuvchi dori vositalarini ishlab chiqarish
  - C) Dorilarni qadoqlamasdan sotish
  - D) Faqat xorijiy dorilarni tarqatish
7. Dori vositalari muomalaga chiqarilishidan oldin nima qilinadi?
  - A) Reklama qilinadi
  - B) Davlat ro'yxatidan o'tkaziladi
  - C) Dorixonalariga tarqatiladi
  - D) Saqlashga yuboriladi

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi. **“Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun.**
2. T. S. Azimov. **Farmatsevtik texnologiya asoslari.** – Toshkent.  
A. X. Xolmatov. **Farmakologiya.** – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
3. Toshkent farmatsevtika instituti. **Farmatsiya asoslari** o‘quv qo‘llanma.
4. M. N. Nabiyev. **Farmatsevtika kimyosi.** – Toshkent.

<b>2.3.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Lotin tili terminologiyasidan keng foydalanish.</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	8. Retseptura-dori vositalarining yozilishi? 9. Dori shakllari asosan kaysi turlarga bulinadi? 10.Surtmalar massasiga qo`yiladigan talablar?
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> <b>1.Ta'limiy :</b> Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash <b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b> Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatini natijalari:</b>
Lotin tili terminologiyasidan keng foydalanish. Dori vositalari, xamda retsept blankalari bilan ishlash. Lotincha-yunoncha termin-elementlarni umumiy ma'nosini bilish.So'z birikmalarining ma'nosini tug'ri taxlil kilish.	Tinglovchi: Lotin tili fanini o'zlashtirish asosida lotin tili harflarini yozilishi va o'qilishini, a'zo nomlarini lotincha va yunoncha tarjimasini, farmatsevtik terminlar haqida tushuncha. Terminlarni fonetik va grammatik jihatdan tug'ri o'qish va yozish,ularni amaliyotda qo'llash.
O'qitish metodlari	13 "Sport lotto",T-jadval usuli"usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma

so'rov test, misol, va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar, yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida "Sport lotto" metodi bo'yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. <b>O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar mavzu bo'yicha bilimi</b> mustaxkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida "Sport lotto" metodi bo'yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar. "T-jadval" sxemasi bo'yicha tinglovchilar</p>

		bilimi mustahkamlanadi.
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Lotin tili terminologiyasidan keng foydalanish mavzusini o'qib kelish.</p> <p>1.Tavsiya etiladigan adabiyotlar: Xolmatov A.X., <b>Tibbiyot terminologiyasi asoslari</b>, Toshkent, 2019.</p> <p>2.Sultonov M., <b>Lotin tili va tibbiy terminologiya</b>, Toshkent, 2018.</p> <p>3.O'zbekiston Respublikasi, <b>Tibbiyot sohasida lotin atamalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanma</b>, Toshkent, 2020.</p> <p>4.Karimov Sh., <b>Anatomiya va lotin tili terminologiyasi</b>, Toshkent, 2017.</p> <p>5.Toshkent tibbiyot akademiyasi, <b>Tibbiyot terminlari va lotin atamalari o'quv qo'llanmasi</b>, 2021.</p> <p>6. Farmatsiya iqtisodi va farmatsiyadagi dolzarb masalalar.Navoiy-2019 y.V.N.Turaqulov,A.O.Hazratqulova 86-89 bet</p>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

### **Mavzu: Lotin tili terminologiyasidan keng foydalanish.**

#### **Dars rejasi:**

1. Retseptura-dori vositalarining yozilishi?
2. Dori shakllari asosan qaysi turlarga bo'linadi?
3. Surtmalar massasiga qo'yiladigan talablar?

Retseptura-dori vositalarining yozilishi, tayyorlab berish va qabul qilish qoidalari ko'rsatilgan yo'nalish bo'lib, farmakologiyaning bo'limidir. Bu bo'lim vrachlik retsepturasini (dori vositalarini yozilishi va qabul qilish qoidalari) va farmatsevtik retsepturani (dori vositalarini tayyorlash qoidalari) o'z ichiga oladi.

Retsept

**Retsept-bu tibbiy xodimni dorixonaga dori vositasini tayyorlash va berish to'g'risidagi yozma murojaatidir.** Dori vositalarining retseptda yozilishini quyidagi tasdiqlangan qoidalari qabul qilingan. <sup>13</sup>

1. Retseptlar qabul qilingan bir xil shaklli blankalarda (tipografiyada chop etilgan) aniq va o'qilishi oson va qulay yozilishi zarur.
2. Retseptlar siyox yoki sharik ruchka bilan yozilishi shart. Yozilganlarni qayta to'g'rilash, o'chirish man etiladi.
3. Har bir retseptda bitta zaharli dori yoki ikkita zaharsiz dorilar yozilishi mumkin.

4. Zaruriyat tug'ilganda retseptning yuqori ko'rinarli qismiga dorini tez berilishini talab etish uchun «Sito» (tez) yoki «Statum» (juda tez) so'zlari yoziladi.

5. Har bir retseptda quyidagi ketma-ket joylashgan ma'lumotlar bo'lishi shart:

a) Tibbiyot muassasasining nomi, adresi, telefoni yozilgan muxri,

b) Bemorning ismi va familiyasi (bolalar va 60 yoshdan oshganlar uchun yoshi yoziladi),

v) retsept yozilgan sana (kun, oy va yil),

g) shifokorning ismi va familiyasi,

d) lotin alifbosida yozilgan dori vositasining nomi, tarkibi va miqdori, bir-biriga yaqin bo'lgan dori nomlarini qisqartirish man etiladi,

ye) qoida bo'yicha qisqartirilgan holda dorining shakli va provizorga ko'rsatma,

j) dori vositasini ishlatish tartibi (rus yoki o'zbyek tilida). Bu erda bemorga dorini qanday yo'l bilan va qachon yuborish yoki ishlatish, miqdori, necha marta va qancha qabul qilish aniq yoziladi,

z) shifokorning shaxsiy imzosi,

6. «A» ro'yxatiga kiritilgan zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dori vositalari maxsus retseptura blankasida va 5-bandda qayd etilgan talablardan tashqari tibbiy muassasa boshlig'ining imzosi va muassasaning dumaloq va uchburchak muxri bo'lishi kerak.

7. Kuchli ta'sir etuvchi va zaharli dorilar yozilgan retsept bir oygacha o'z kuchini yo'qotmaydi. Bu muddatdan oshgan retseptlar dorixonalarda qabul qilinmaydi.

8. Yuqorida keltirilgan retsept qoidalarini buzgan shaxslarga tegishli choralari ko'riladi. Dori vositasini yozishda birinchi galda asosiy modda (basis), keyin yordamchi (adjuvans), ta'm beruvchi (carrigens) va doriga shakl beruvchi (constitius) ko'rsatilishi mumkin.

Agar retseptda bir necha dori bir xil dozada (miqdorda) yoziladigan bo'lsa, unda oxirgi dori nomidan keyin ana (aa)-barobar so'zi yozilib, keyin uning miqdori (g, mg, ml) yoziladi. Retseptda yozilgan dori vositasining qaytadan berilish zaruriyati bo'lsa, unda «Repetitur-takrorlansin, Bis repetitur-ikki marta takrorlansin» so'zlari yozib qo'yiladi.

**Dori shakllari asosan uch turda bo'lishi mumkin: qattiq, suyuq va yumshoq. Ayrim dorilar bir necha shaklda yozilishi, tayyorlanishi va berilishi mumkin.**

### **Qattiq dori shakllari**

Qattiq dori shakllariga kukunlar, kapsulalar, tablyetkalar, drajye va pilyulalar kiradi.

Kukunlar- pulveris (bosh kyel. birl. – pulvis; qarat kyel. birl. –pulveris)

Kukunlar dyeb ichish va sirtga qo'llash uchun mo'ljallangan sochiluvchan qattiq dori shakliga aytiladi.

Ular keng ishlatiladigan dori shakli bo'lib, boshqa dori shakllari orasida 25-30 % ni tashkil qiladi va turli minerallar, organik moddalardan va quritilgan o'simlik qismlaridan tayyorlanishi mumkin. Kukunlar yirikroq, mayda va juda maydalangan bo'ladi. Ular qancha mayda bo'lsa, sirtga<sup>13</sup> qo'llanganda shuncha tanaga yaxshi yopishadi, ichilganda esa yaxshi so'riladi va farmakologik ta'siri tez yuzaga chiqadi.

Kukun bir dori vositasidan-oddiy, bir nychadan tashkil topgan bo'lsa-murakkab kukunlar dyeyiladi. Bundan tashqari, ular ryetsyepda yozilishi bo'yicha bo'lingan va bo'linmagan bo'lishi mumkin. Retseptda yozilgan dorining bir martalik dozasi

ko`rsatilgan bo`lsa, bu bo`lingan (dozalangan), ishlatish uchun umumiy miqdori keltirilgan bo`lsa-bo`linmagan (dozalanmagan) kukun deyiladi.

Bo`linmagan kukunlar asosan sirtga qo`llash uchun byeriladi va byemorni o`zi kyerakligicha tyeriga yoki yaraga syepadi. Ichishga mo`ljallangan kukunlar ham bo`lishi mumkin. Ular ham oddiy (bir doridan iborat) va murakkab (bir nyecha doridan iborat) bo`lishi mumkin.

Bo`lingan (dozalangan) kukunlar asosan ichish uchun beriladi. Har bir kukun ma'lum bir dozada (miqdorda) bir marta qabul qilinadi. Retseptda kukunning umumiy miqdori (soni) 10-12 dan yoziladi. Har bir kukunning miqdori 0,1-1, 2g atrofida bo`lishi kerak. Agar dori vositasining bir martalik dozasi 0,1g dan kam bo`lsa, unda indifferent (ta`sirsiz) moda (shakar, natriy bikorbonat) qo`shilib, talab qilingan miqdorga etkaziladi. Dozalangan kukunlar ham dozalanmagan kukunlar singari oddiy (bir dori vositasidan iborat) va murakkab (bir necha dorilardan tashkil topgan) bo`lishi mumkin.

Agar yozilgan dori vositasi yengil uchuvchan yoki nam so`rib oluvchi xususiyatga ega bo`lsa, unda har bir kukun xitoy yoki parafinlangan qog`ozda beriladi. Bu to`g`rida retseptda qayd qilinishi kerak. Boshqa hollarda kukunlar oddiy toza va oq qog`ozga o`rab beriladi.

Tibbiy kapsulalar -capsulaye medicinalis (bosh kyelish. birl. capsula medicinalis, qaratqich kyel. birl. capsulaye medicinalis)

Dozalangan kukunsimon va suyuq dori vositalarini kraxmaldan, jelatinadan yoki glyutoidlardan yasalgan va ichish uchun beriladigan pardalik dori shakliga kapsulalar deyiladi.

Kapsulalar tarkibiga qarab turlicha ko`rinishda bo`lishi mumkin. Kraxmalli kapsulalar oq rangli qopqoq bilan yopiladigan (diamyetri 11 dan 23 mm gacha), angishvonasimon bo`ladi. Ularda yomon ta'mli va hidli dori vositalari beriladi. Cho`ziluvchan va qattiq jelatinali kapsulalar sharsimon, tuxumsimon. uzunchoq shaklli bo`ladi. Ularga 0, 1 dan 1, 5 grammgacha dori vositasi joylanadi. Qattiq kapsulalarda uchuvchan, nam so`rib oluvchi va mahalliy ta`sir etuvchi dori vositalari beriladi. Cho`ziluvchan kapsulalarda asosan suyuq dori vositalari zavodlarda tayyorlanadi.

Retseptda kapsulalarni yozilishi dozalangan kukunlar singari bo`lib. faqat qanday kapsula turi ekanligi ko`rsatiladi, xolos.

Tabletkalar -tabulettaye (bosh kelish. birl. -tabuletta, qaratqich kelish. birl. -tabulettaye, qaratqich kelish. ko`plik son- tabulettarum, kelish. ko`plik son- tabulettis)

Tabletkalar fabrika-zavodlarda maxsus tabletka chiqarish uchun moslashgan mashinalarda presslash yo`li bilan tayyorlanadigan qattiq dori shaklidir. Ular turli ko`rinishda-dumaloq, ikki tomoni g`ubbalik yoki tuxumsimon shaklda bo`lishi mumkin. Tabletkalar ko`p tomonlama qulaylikka ega, ularni uzoq muddat saqlash, yomon maza va hidini niqoblash, qabul qilinishini osonligi va ixchamligi va b. shular jumlasidandir. Tabletkalarni sathi un, kraxmal, dekstrin, kakao va boshqalar bilan qoplanadi. Ayrim hollarda esa dori vositalari me<sup>13</sup>da shiras ta`sirida parchalanib ketmasligi va ingichka ichakdan o`tib, so`rilishini ta'minlash maqsadida tabletkalar maxsus parda bilan qoplanadi.

Tabletkalarni og`irligi uning tarkibidagi dori vositalari miqdoridan ko`proq bo`ladi, chunki ularni tarkibida shakl beradigan indifferent va yopishtiruvchi moddalar

qo`shiladi. Bular tayyor dori shakli bo`lgani uchun retseptda yozilishida faqat asosiy dori vositasi va uning miqdori ko`rsatiladi, xolos.

### **Suyuq dori shakllari**

Suyuq dori shakllariga eritmalar, damlamalar, qaynatmalar, tindirmalar (nastoykalar), suyuq ekstraktlar, aralashmalar, shilimshiqlar va emulsiyalar kiradi. Ular keng ko`lamda ishlatilib, dori shakllari orasida 60-65 % ni tashkil etadi.

Yeritmalar-solutionis (birlik-solutio, qaratqich kel. solutionis)

Yeritmalar-qattiq, gazsimon va suyuq dori vositalarini erituvchida erigan tiniq dori shaklidir. Erituvchi modda sifatida distillangan suv (Aqua destillata), ayrim hollarda etil spirti (Spiritus ayethylicus 40-70-90-96 %), glitserin (Glycerinum) va turli moylar ishlatiladi. Ular tiniq cho`kmasiz bo`lishi kerak.

Yeritmalar ishlatilishiga qarab quyidagi guruhlarga bo`linadi.: ichga yuborish uchun eritmalar, inyektsiya uchun va sirtga qo`llash uchun.

Ichga yuboriladigan eritmalar og`iz orqali (per os) va to`g`ri ichak yo`li (per rectum) bilan kiritiladi.

Og`iz orqali ichiladigan eritmalarini retseptda yozishda dori vositasining bir martalik o`rtacha davo dozasi qabul etiladigan dorining umumiy soniga ko`paytiriladi, erituvchi qaysi hajmda bo`lishiga qarab, u ham istyemol etish miqdoriga ko`paytiriladi. Bunday eritmalar osh (15 ml), desert (10 ml) va choy qoshig`ida (5 ml) ichilishi mumkin. Ular 10-12 marta yoziladi.

To`g`ri ichakka yuboriladigan eritmalar-klizmalar. Ko`pincha bu yo`l eritmani og`iz orqali yuborishni iloji bo`lmaganda (bexush holat, og`iz, qizilo`ngach, oshqozon operatsiyalari va kasalliklari) ishlatiladi. Klizma qilinadigan dori vositalari mahalliy va rezorbtiv ta`sir etishi mumkin. Klizmaning umumiy hajmi kattalar uchun 100-150 ml, bolalar uchun-30-50 ml bo`lishi kerak. Katta hajmdagi klizmalar ichni suradi.

Aralashmalar (Mixture) Suyuq dori shakli bo`lib, tarkibida bir necha dori vositalarini saqlaydi. Eritma xira va cho`kmalari bo`lishi mumkin. Shuning uchun ham qo`llashdan oldin chayqatiladi. Ichish uchun qoshiqlarda 10-12 marta, sirtga qo`llash uchun (chayish, yuvish) esa 100-200 ml gacha yoziladi. Miksturani retseptda yozilishi ichiladigan eritma singari bo`ladi.

Tomchilar (Guttaye)-yeritmani bir turi bo`lib. ichish uchun va sirtga qo`llash uchun beriladi. Tomchining hajmi va og`irligi erituvchi solishtirma og`irligiga va tomizg`ichning kata-kichikligiga bog`liq. Farmakopeyaga asoslanib 20<sup>0</sup> C haroratda tomizg`ini diametri 0,6 mm bo`lsa 1 ml distillangan suvda 20 tomchi, 1 ml 90<sup>0</sup> C etil sirtida -51 tomchi bor. Bu eritmalar 1 marta ichish uchun 5-10 tomchidan berilib, hammasi bo`lib 20 marta uchun yoziladi. Suvda erigan dori vositasining 1 martalik o`rtacha davolash dozasi 5 yoki 10 tomchida bo`lishi kerak .

### **Yumshoq dori shakllari**

Yumshoq dori shakllariga surtmalar, pastalar, linimentlar, shamchalar va plasto`rlar kiradi.

Surtmalar - Unguyenta (birlik, bosh kelish.-unguyentum, birl. son. qaratqich kelish. – unguyenti)

Surtmalar sirtga qo`llash uchun muljallangan yumshoq tarkibli dori shaklidir.

Surtmalarining asosiy tarkibidagi bir yoki bir necha dori vositasi bir tekis tarqalgan bo`ladi. Surtma asoslari terini qurib qolishidan saqlaydi, yumshatadi,

cho`ziluvchanligini oshiradi. Surtmalarning asosi sifatida moylar, moysimon moddalar, spermatsit, moy kislotalar, yuqori spirtlar, vazelin, parafin, lanolin, asalari mo`mi, vazelin moyi, qoramoy. sellyuloza efirlari, fitosterinlar, bentonit moyi ishlatiladi. Ko`zga ishlatish uchun mo`ljallangan surtmalar yuqori darajada tozalangan vazelindan tayyorlanadi.

Surtmalar massasiga qo`yiladigan talablar

1. Talabga javob beradigan yumshoqligi
2. Ko`pchilik dori vositalari bilan mos bo`lishi, kimyoviy va biologik tomondan indifferent bo`lishi,
3. Suyuqliklarni o`ziga tortib olishi va tarkibidagi ta'sir etadigan dori vositalari bilan oson va bir tekisda aralashishi, osonlik bilan ularni ajrata olishi
4. Mikroorganizmlar ko`paya olmaydigan va surtilgan joyidan oson ajraladigan bo`lishi kerak. Surtmalar retseptda 2 xilda yozilishi mumkin

Agar retseptda asos ko`rsatilmagan bo`lsa vazelin olinadi. Surtmani kontsentratsiyasi ko`rsatilmagan bo`lganda esa "A" va "B" guruhiga kiruvchi moddalardan tashqari 10 % surtma tayyorlanadi.

Pastalar – Pastaye (birlik son. bosh kelishik-pasta; birlik son qaratqich kelish.-pastaye) Tarkibida 25 % dan ortiq quruq modda saqlagan surtma pasta deyiladi. Agar dori vositasining miqdori 25 % dan kam bo`lsa qo`shimcha indifferent quruq moddalar (kukunlar, talk, oq moy, kraxmal va b.) kiritiladi. Pastalar surtmalarga nisbatan qattiqroq bo`lgani uchun surtilgan joyda uzoqroq saqlanadi, yaxshigina so`rib olish va quruq holatni ta'minlovchi xossaga ega.

### **"Sport lotto" usuli.**

Qopchaga raqamlar yozilgan sharchalar solinadi. Alohida varaqga savollar yoziladi. Tinglovchilarga galma galdan sharchalarni olish taklif etiladi va nechinchi raqamli sharcha bo`lsa, varaqdagi shu raqamli savolga javob beradi.

(O`tilgan mavzuni takrorlash uchun qo`llaniladi).

### **"T- jadval" usuli.**

Tinglovchilarni uchta kichik guruhga ajratiladi. Har bir kichik guruh uchun vazifa yozilgan flipchartlar 3 tomonga osib qo`yiladi va shart tushuntirib beriladi. Tayyorlanish uchun vaqt belgilanadi. Vazifani bajarishda guruhdagi tinglovchilarni xammasi ishtirok etishi maqsadga muvofiq. Belgilangan vaqt tugagach, har bir guruhning to`g`ri javoblari sanaladi va tinglovchilar kartochkalar bilan rag`batlantiriladi. (Yangi mavzuni mustahkamlash uchun qo`llanildi).

### **tibbiy atama (Lotin tili asosida) va tarjimasi**

1. **Cranium** – bosh suyaklari
2. **Thorax** – ko`krak qafasi
3. **Ren** – buyrak
4. **Hepar** – jigar
5. **Ventriculus** – oshqozon
6. **Arteria** – arteriya
7. **Vena** – vena (qon tomiri)
8. **Os coxae** – son suyagi
9. **Oculus** – ko`z

10. **Auricula** – quloq

**Mavzuga oid testlar**

1. **Lotin tili tibbiyotda nima uchun ishlatiladi?**

- A) Tilni o‘rganish uchun
- B) Terminologiyani standartlashtirish va xalqaro tushunishni osonlashtirish uchun
- C) Faqat shifokorlar uchun shaxsiy kodlash

**Javob: B**

2. **“Homo sapiens” qanday ma’noni bildiradi?**

- A) Kasallik nomi
- B) Inson turi
- C) Dori vositasi

**Javob: B**

3. **“Caput” atamasi qaysi organni bildiradi?**

- A) Qo‘l
- B) Bosh
- C) Oyok

**Javob: B**

4. **“Aqua” so‘zi Lotin tilida nimani anglatadi?**

- A) Havo
- B) Suv
- C) Yoqilg‘i

**Javob: B**

5. **“Musculus” so‘zi nima uchun ishlatiladi?**

- A) Mushak
- B) O‘pka
- C) Qon tomiri

**Javob: A**

6. **“Os” tibbiy terminologiyada qaysi organni bildiradi?**

- A) Burun
- B) Og‘iz
- C) Qosh

**Javob: B**

7. **“Pulmo” so‘zi Lotin tilida qaysi organ bilan bog‘liq?**

- A) Yurak
- B) O‘pka
- C) Jigar

**Javob: B**

8. **“Flexio” atamasi qaysi harakatni bildiradi?**

- A) Egish
- B) Cho‘zish
- C) Aylantirish

**Javob: A**

9. **“Ligamentum” so‘zi nima ma’noni anglatadi?**

- A) Bog‘lovchi to‘qima
- B) Mushak
- C) Qon tomir

**Javob: A**

10. **Tibbiyotda Lotin tilidagi atamalar ishlatilishi nimani ta’minlaydi?**

- A) Faqat ilmiy maqolalarni yozish
- B) Davolash usullarini standartlashtirish va xalqaro muloqotni osonlashtirish

C) Davolash vaqtini qisqartirish

**Javob: B**

### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Xolmatov A.X., **Tibbiyot terminologiyasi asoslari**, Toshkent, 2019.
2. Sultonov M., **Lotin tili va tibbiy terminologiya**, Toshkent, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi, **Tibbiyot sohasida lotin atamalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanma**, Toshkent, 2020.
4. Karimov Sh., **Anatomiya va lotin tili terminologiyasi**, Toshkent, 2017.
5. Toshkent tibbiyot akademiyasi, **Tibbiyot terminlari va lotin atamalari o'quv qo'llanmasi**, 2021.
6. Farmatsiya iqtisodi va farmatsiyadagi dolzarb masalalar.Navoiy-2019 y.V.N.Turaqulov,A.O.Hazratqulova 86-89 bet

<b>2.4.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>“Dori turlari texnologiyasi fanining predmeti, maqsadi va rivojlanish tarixi.</b>
---	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. “Dori turlari texnologiyasi” fanining maqsadi va rivojlanishi.</li> <li>2. DPM da bemorlarning dori vositalarini qabul qilish, saklash va qo'llash tartibi.</li> <li>3. Dori turlari texnologiyasi” fanining predmeti, maqsadi va rivojlanishi.</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatini natijalari:</b>
Dori turlari texnologiyasi fanining predmeti, maqsadi va rivojlanish tarixi. Dori vositasi, dori moddasi, zaxarli va kuchli ta'sir etuvchinarkotik va psixotrop dorilari ro'yhati xaqida tushuncha. Dori shakllarini sinflarga bo'linishi, ularni organizmga yuborish yo'llari.	Tinglovchi: Dori turlari: suyuq dorilar, eritmalar, suspenziyalar, emulsiyalar, yumshoq dori turlari. Linimentlar, surtma dorilar, pastalar. Kosmetologik kremlar. Steril dori turlari va aseptik sharoitda tayyorlanadigan dori shakllari. In'eksion dorilar va ularning organizmga ta'siri.
13	
O'qitish metodlari	“Baxs munozara” “Klaster “ usullari bilan ishlash

O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p style="text-align: center;"><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida"Baxs munozara" metodi bo'yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi.<sup>13</sup> <b>O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar mavzu bo'yicha bilimi</b> mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida"Baxs munozara" metodi bo'yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.</p>

		Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."Klaster" sxemasi bo'yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi . Uyga vazifa: : "Dori turlari texnologiyasi fanining predmeti, maqsadi va rivojlanish tarixi mavzusini o'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1. Xolmatov A.X., <b>Farmatsevtik texnologiya asoslari</b> , Toshkent, 2019.  2.Sultonov M., <b>Dori turlari texnologiyasi</b> , Toshkent, 2018. 3.O'zbekiston Respublikasi, " <b>Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida</b> "gi Qonun, Toshkent, 2020. 4.Toshkent farmatsevtika instituti, <b>Farmatsevtika texnologiyasi o'quv qo'llanma</b> , 2021.  5.Karimov Sh., <b>Farmatsevtika kimyosi va texnologiyasi</b> , Toshkent, 2017	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

**Mavzu: "Dori turlari texnologiyasi fanining predmeti, maqsadi va rivojlanish tarixi.**

#### **Dars rejasi:**

1. "Dori turlari texnologiyasi" fanining maqsadi va rivojlanishi.
2. DPM da bemorlarning dori vositalarini qabul kilish, saklash va qo'llash tartibi.
3. Dori turlari texnologiyasi" fanining predmeti, maqsadi va rivojlanishi.

Texnologiya (yunoncha *techné* - san'at, ustalik, mohirlik va *logos* - ta'limot, bilim, fan) - ishlab chiqarish jarayonidagi tabiiy-ilmiy va texnik qonuniyatlar haqidagi fandır. Ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida fanni bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylantirish jarayonida texnologiya asosiy o'rinda turadi. Texnologiya

farmasevt kadrlar tayyorlashda ularning asosiy faoliyatini belgilab beruvchi bilimlardan hisoblanadi. Farmasevtlarning asosiy ish joyi bo'lgan dorixonaning vazifasi dorilarni tayyorlash va iste'molchiga yetkazib berishdir. Shuningdek, farmasevtika zavodlarining ishi, galen preparatlari fabrikasi va laboratoriyalari, dorixona omborlari qoshidagi nazorat-tahlil laboratoriyalari, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan tumanlar va xom ashyo tayyorlash bilan mashg'ul bo'ladigan shoxobchalarining ishi ham dorixonaning barqaror faoliyati uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. Bu esa aholini sifatli dori-darmon bilan uzluksiz ta'minlashga imkon beradi. Texnologiya amaliy fan bo'lib, kimyo, fizika, anatomiya, fiziologiya, farmakologiya, mikrobiologiya, farmakognoziya, farmasevtik kimyo va boshqa fanlardan keng foydalaniladi. Dori turlari texnologiyasi ko'proq farmasiyaga oid fanlar: farmakognoziya (dorivor o'simlikxomashyolari va ulardan olingan moddalarni o'rganuvchi fan), farmasevtik kimyo (turli xil kimyoviy farmasevtik moddalarni o'rganuvchi fan), dorixona va dori ishlab chiqaruvchi muassasalarni ko'rish, rejalashtirish, dorixona ishini tashkil qilish va shunga o'xshash fanlar bilan chambarchas bog'langan.

Shu munosabat bilan bu fan oldida dori moddalarini tayyorlash usullarini o'rganish va ularni hozirgi zamon talablari asosida yanada takomillashtirish, dori-darmonlar sifatini yuksak darajaga ko'tarish muammolarini yoritish vazifasi turadi.

Qadim zamonlardan buyon turli moddalar dori sifatida ishlatilib kelingan. Ko'p dori turlari ming yillar davomida uzluksiz o'zgarishlarga uchragan. Qadim zamonlarda odam davolanish uchun tabiatdagi har xil moddalardan (o'simliklar, gullar, giyohlar, mineral mahsulotlar va jonzoqlar mahsulotlari) foydalangan. Bu moddalarni dori sifatida qo'llanishda dastlab hech qanday jiddiy dalillarsiz, xalq tabobati tajribalari, tabiblar kuzatish yoki shaxsiy tajribasiga suyangan holda tavsiya qilingan, qo'llanilgan.

Keyinchalik shifobaxsh giyohlar va o'simliklarni maydalab ishlatish va ularni boshqa mahsulotlarga aralashtirib qo'llanish yo'lga qo'yilgan. Qadimgi Misrda hozirgi vaqtda qo'llaniladigan ayrim dori turlari (masalan, eritmalar, damlamalar, surtma dorilar) ishlatila boshlangan. Misr, Hindiston, Tibet, Xitoy, Gresiya, Rim va boshqa mamlakatlarda dori vositalari tarkibini o'rganish, tayyorlash va bemorlarni davolash bilan asosan din ahli, tabiblar shug'ullanganlar. Dorilar tayyorlash va muolajalash asta-sekin maxsus toifa kishilar, bilimli tabiblar qo'lga o'tadi va shu tariqa tibbiyot mutaxassisleri paydo bo'la boshlaydi. O'sha davrning bir qancha mashhur olimlari tibbiyot va farmasiya fanlarining taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, qadimgi yunon shifokori Gippokrat (Buqrot - eramizdan avvalgi 460-355 yillar) maxsus tibbiy maktab yaratibgina qolmay, o'simlik va jonzoqlardan dori vositalari tayyorlashga ham katta e'tibor bergan. U qaynatma, damlama, surtma va boshqa dori turlarini muvaffaqiyat bilan ishlatgan. «Korpus Xippokratikup» asarida ko'pgina dorivor o'simlik va giyohlarning shifobaxshlik xususiyatlarini tahlil qilgan.

U Qadimgi Rimda o'z zamonasining mashhur shifokori va dorishunosi bo'lmish Klavdiy Galen (Sharqda Jolinus eramizning 131-201 yillari) vinodan va

sirkadan nastoykalar tayyorlashni yo`lga qo`ygan, bemorlarni malhamlar, pilyulalar, eritmalar, qaynatmalar va dorivor moddallarning aralashmalari bilan davolagan. Galen o`sha vaqtda ma`lum bo`lgan dorilarni tayyorlash qoidalarini ham tabaqalashtirgan.

Dorishunoslik, o`simliklar, jonzotlar va ona-tabiatning boshqa ne`matlaridan inson sog`ligi yo`lida ilmiy foydalanish haqida gap borganda «hayot haqidagi fan» kitobining muallifi, hind shifokori Sushruta xizmatlarini e`tirof etish o`rinli. Uning ushbu kitobida 700 dan ko`proq dorivor o`simliklar tasvirlangan. Inson salomatligi yo`lida tabiat ne`matlaridan foydalanish - dorishunoslikni rivojlantirishda tibet va xitoy xalq tabobati vakillarining xizmatlari ham katta. Qolaversa, kuhna Sharqningyozma merosi «Avesto» kitobida mingdan ziyod dorivor o`simliklar, giyohlar ro`yxati keltirilib, ulardan dori tayyorlash usullari bayon qilingan. Jumladin za`faron, qorakunjut, sedana, piyoz, xurmo, do`lana, behi, zira, isiriq, zaytun yog`i, asal va zirktan dori sifatida foydalanish texnologiyasi bayon etilgan.

Tib ilmining ravnaqi, dorishunoslik fanining tarkib topishi va inson hayoti uchun zarur dori vositalarining yaratilish va qo`llanilishi haqida gap borganda sharqning mashhur olimlarm Al-Xorazmiy, Zakariya ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Buxoriy, albatta Abu Ali ibn Sinolar nomi iftixor ila tilga olinadi.

Ko`hna Sharq insoniyat tibbiy qarashlarining qadimiy o`chog`i hisoblanadi. Turkiy va forsiy tillarda so`zlashuvchi xalqlarning og`zaki ijodi va “Avesto” dagi dalillar buni aniq tasdiqlaydi.

Tarixiy dalillarga ko`ra O`zbekiston xalqlari tabobat bilan shug`ullanishlari ibtidoiy tuzum oxiri va quldorlik jamiyatining boshlanish davriga to`g`ri keladi.

Bu davrga kelib, qon ketishini to`xtatish, yarani berkitib davolash, yallig`lanishlarni ochib davolash, chiqqan a`zolari joyiga solish, dorivor o`tlarni qo`llash, ya`ni ularning og`riq qoldiruvchi, narkotik, ich yumshatuvchi, ich qotiruvchi xususiyatlarini bilib foydalanganlar. Ularni chaynab yoki suvda bo`ktirib iste`mol qilishgan.

O`rta asr farmasiyasi va dori texnologiyasi tarixida salmoqli o`rinni arab va O`rta Osiyo olimlari olgan. Bu borada tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino (980-1037) alohida o`rin tutadi.

Uning “Tib qonunlari” nomli 5 jildli asari yunon, rum, indus va O`rta Osiyo olimlarining tibbiyot sohasidagi fikrlari majmuasi sifatida yoritilgan.

Bunda Abu Ali ibn Sino o`zining tibga oid asarlarida, xususan, “Tib qonunlari” ning ikkinchi va beshinchi kitoblarida 810 ta sodda (yakka) va 275 ta murakkab dorilarni bayon etgan. Juda ko`p murakkab dorilarning 2-3 va undan ham ortiq nusxalarini (variantlarini) keltirgan. Bundan tashqari, Ibn Sino 64 xil yurak dorilarini alohida bayon etgan. Shularning hammasini hisobga olsak, Ibn Sino ko`rsatgan murakkab dorilarning soni 400 dan ortib ketadi.



Ibn Sino dorilarning xossalari haqida soʻzlab, birinchi galda, ularning issiqlik, sovuqlik, hoʻllik va quruqlik xususiyatlariga toʻxtaladi. Bu xususiyatlarni u mizoj, deb ataydi. Demak Ibn Sinoning fikricha, dori moddalarining asosiy xususiyatlari ularning mizojlaridir. Uning yozishicha, dorilarning mizoji odam mizojidan farq qiladi. Ibn Sinoning taʼkidlashicha, odam mizoji odamdan boshqada boʻlmaydi. Shuningdek, dori mizoji ham har bir dori uchun oʻziga xosdir.

Ibn Sinoning koʻrsatishicha, dorilardagi mizoj ikki xil boʻladi. Birinchi xili unsurlarda boʻladigan dastlabki aralashma mizojdir. Ikkinchisi, oʻzlarining maxsus mizojlari boʻlgan bir necha moddalar aralashmasidan paydo boʻlgan oʻrtacha mizojdir. Masalan, taryakning mizoji shundaydir. Taryak tarkibiga kirgan sodda dorilardan har birining oʻziga xos mizoji boʻlib, bular aralashib, ikkinchi mizoj hosil qiladilar. Ibn Sinoning yozishicha, har bir dorida oʻzining taʼsir etish quvvati boʻlib, bu xususiyat odam organizmida oʻzgarishga uchraydi. Bunda Ibn Sino oʻsha zamondagi dorilar haqidagi nazariy tushunchaga asoslangan. Oʻrta asrlarda dorilarning xususiyati va taʼsir etish quvvati nazariy jihatdan quyidagicha tushunilgan: har bir dori qabul qilinganidan soʻng inson tanasida undagi tugʻma haroratning taʼsirida faollashadi. Undagi quvvat bilquvva (potensial) holatdan bilfeʼl (kinetik) holatga oʻtadi. Shundan keyingina dori oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Ibn Sino dorilarning odam tanasiga va uning kasalliklariga taʼsiri masalasiga shu nuqtai nazardan qaragan. Ibn Sino biror doridan foydalanishdan oldin uning taʼsirini sinab koʻrish kerakligini taʼkidlaydi. U dorilarni sinab koʻrishning ikki usulini koʻrsatgan. Birinchisi tajriba usuli, ikkinchisi solishtirma usul.

Tajriba usulida sinab koʻrish, albatta, odam tanasida olib borilishi kerak, chunki bir dori odam tanasiga, hayvon tanasiga nisbatan boshqacharoq taʼsir koʻrsatishi mumkin. Demak, Ibn Sinoning fikricha, dori moddalarining mizoji ularning qanday organizmga taʼsir etishiga qarab turlicha boʻladi. Ibn Sinoning taʼkidlashicha tajriba usuli bilan dorini sinab koʻrishda maʼlum sharoitlar mavjud boʻlishi kerak. Birinchidan, tajribadan oʻtkaziladigan dorida araziy xususiyatlar boʻlmasligi zarur. Ikkinchidan, tajriba oʻtkaziluvchi kishi faqat bitta kasallik bilan ogʻrigan boʻlishi kerak. Uchinchidan, dori oʻz kuchi jihatidan oʻziga teng keladigan kasallikka qarshi ishlatilishi lozim. Solishtirish yoʻli bilan tekshirishda dorilarning “olovdek” boʻlishi, yaʼni qizishning tezligi yoki sustligi, qotishning tezligi yoki sekinligi, shuningdek ular hidining oʻtkirligi va mazasi solishtirib koʻriladi. Moddasining tuzilishidagi siyrakligi va zichligi teng boʻlgan dorilarning qaysi biri qizishni tezroq qabul qilsa, u sovuqroq boʻladi. Bir xil tuzilishga ega boʻlgan dorilardan qaysi biri tezroq qotsa, shunisi sovuqroq boʻladi. Ibn Sino bu xususiyatlarni tugʻma xususiyatlar deb ataydi. Dorilarni tekshirishda yana qaynatish, yanchish<sup>13</sup>, olovda qizitish, sovuqda qotirish, yuvish, boshqa dorilarga taqqoslash usullaridan foydalaniladi. Shu yoʻllar bilan dorilarning xususiyati aniqlanadi. Ibn Sinoning taʼkidlashicha, bu yerda shunga eʼtibor berish kerakki, dorilar ichida jismlari shunday zich tuzilganlari borki, ular qattiq qaynatilmaguncha quvvati ajralmaydi. Ular ichida oʻrtacha qaynatiladiganlari ham mavjud. Dorilar orasida kattik yanchish natijasida

buziladiganlari ham bor, ularni sekin tuyish kerak. Dori qancha maydalansa, u o'z kuchini shuncha yo'qotadi. Dorilarning mazasi ham ularning qanday mizojli ekanini ko'rsatadi. Masalan, achchiq, o'tkir mazali, o'tkir hidli, sho'r moddalar issiq mizojli bo'ladilar. Nordon burishtiruvchi va mozi mazali dorilar sovuq mizojlidirlar. Ibn Sinoning yozishicha har bir ta'mning o'ziga xos ta'siri bor. Masalan, shirinlikning ishi yetishtirish, achchiqlikning ishi tozalash va dag'allashtirish. Mozi mazaning ishi, agar uning quvvati kuchsiz bo'lsa, quritish bo'lib, quvvati kuchli bo'lsa, zichlashtirishdir. Burishtiruvchi mazaning ishi burishtirish, zichlash va kotirish. Yog' mazaning ishi yumshatish, sirg'antirish va birozgina yetishtirishdir. O'tkir mazaning ishi eritish, parchalash va chiritish. Sho'r mazaning ishi tozalash, yuvish, quritish hamda chirishga yo'l qo'ymaslikdir. Ibn Sinoning yozishicha, ba'zan ikki xil maza bir jismda mujassamlanadi. Masalan, o'tkir maza bilan shirin maza. Achchiqlik o'tkir maza va burishtiruvchi maza bilan baklajonda. Achchiqlik bilan mazasizlik sachratqida to'plangan. Ibn Sinoning yozishicha, dorilardagi har xil ta'mlar davo xususiyatiga ega. Masalan, achchiq maza bilan mozi maza aralashganda ular tozalovchi va burishtiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Ibn Sino zamonida dorilar o'simliklardan, ma'danlardan va hayvon a'zolaridan olingan. Sintetik moddalar bo'lmagan. Ibn Sinoning o'zi ham asosan shu uch manbani ko'rsatgan. U o'simliklardan olinadigan dorilarga ko'proq ahamiyat bergan. Ularni qay vaqtda yig'ish, saqlash, ishlatish usullarini juda batafsil bayon etgan. Bu umumiy ma'lumotlardan keyin Ibn Sino oddiy va murakkab dorilar ustida alohida to'xtaladi.

**Oddiy dorilar.** Ibn Sino oddiy dorilarni, ularning ta'siri va xossasiga qarab 64 xilga bo'lgan. Shular orasida erituvchi, tozalovchi, yetishtiruvchi, ovqatni hazm qildiruvchi, yellarni haydovchi, og'riq qoldiruvchi, quvvat beruvchi, burishtiruvchi, xiltlarni quyultiruvchi, suyultiruvchi, shimdiruvchi, ich suruvchi va hokazo dorilarni sinab o'tgan. Bu yerda Ibn Sino shu dorilarga zid ta'sir etuvchi moddalarni ham ko'rsatib o'tgan va ularni ham dori deb atagan. Masalan shundaylardan sasituvchi, xomga aylantiruvchi, ichni dam qiluvchi, bo'shashtiruvchi, so'ndiruvchi, yara paydo qiluvchi, kuydiruvchi, shiluvchi kabi moddalarni ko'rsatgan. Turli kasalliklarda qo'llaniladigan shish va toshmalarda qo'llanadigan 42 xil dori, shular qatorida saraton, o'latga qarshi ishlatiladigan dorilar ham bor. Ibn Sino dabbani ham shishlar qatoriga kiritib, unga ham dori tavsiya etgan.

Bo'g'im kasalliklarida ishlatiladigan 23 xil dorini ko'rsatgan, ammo nima uchundir shu dorilar qatoriga asab kasalliklarida qo'llanadigan moddalarni ham kiritgan. Bosh a'zolari kasalliklarida ishlatiladigan 60 xil dorini bayon etgan. Bu yerda Ibn Sino bosh a'zolari qatoriga quloq, burun, tish, milk, til kabi a'zolari ham qo'shgan. Yana Ibn Sino foyda beruvchi dorilar bilan zarar keltiruvchi dorilarni ham sanab o'tgan. Masalan, tutqanoq paydo qiluvchi, tishlarni tushiruvchi, xotirani susaytiruvchi moddalarni ko'rsatgan. Bularni ham dori deb atagan.

Me'da-ichak a'zolari kasalliklarida ishlatiladigan 46 ta dori bayon qilingan. Shulardan 13 tasi me'da va jigarga zarar keltiruvchi dorilardir. Masalan,

me'dani bo'shashtiruvchi, tashnalik paydo qiluvchi, me'dani dam qiluvchi, jigarda tiqilmalar hosil qiluvchi, sariq kasalligini keltirib chiqaruvchi, istisqo paydo qiluvchi, isitmalarda ishlatiladigan 18 xil dori keltirilgan. Ular isitmani qaytarish yoki pasaytirish uchun qo'llanilgan. Ibn Sino pardoza ishlatiladigan moddalarga ham to'xtalib o'tgan. U bunday moddalardan 60 xilini keltirgan. Bular ichida badanni tozalovchi, dog'larni ketkazuvchi, sepkilni yo'qotuvchi va bo'yni o'stiruvchi dorilar bor.

Ibn Sino har bir dorini bayon qilishda dastlab uning qanday dori ekanligini ko'rsatadi. So'ng dorilarning xususiyati undan keyin xossalari, ta'siri va nihoyat, uning qanday kasallikda ishlatilishi beriladi.

**Murakkab dorilar.** Ibn Sino "Tib qonunlari" ning butun bir kitobini (2 - kitob) oddiy (yakka) dorilarga bag'ishlagan bo'lsa ham, amalda u ko'proq murakkab dorilar ishlatishning afzalligi haqida so'zlab, bunday deb yozgan: - "ba'zan biz biror kasallik uchun, ayniqsa murakkab kasallik uchun oddiy dori topolmaymiz. Ko'pincha murakkab dorilar ham bemorni davolashda uning kasalligiga biz istagan darajada ta'sir qilolmaydi. Bunda biz doriga uning kuchini oshiruvchi modda qo'shishga majbur bo'lamiz. Ba'zan esa biz tanlagan dori kasallikka yaxshi ta'sir etadi. Ammo boshqa tomondan bemorning tanasiga zarar yetkazadi. Bunda biz mazkur dorining zararli tomonini kesadigan modda qo'shishimiz lozim. Boshqa bir holda dori kasallikka yaxshi ta'sir qiladi, lekin u juda achchiq yoki hidi badbo'y bo'ladi. Bemor uni icha olmaydi, ichsa ham ko'ngli aynib qayt qilib tashlaydi. Bunday holda biz dorining achchiq ta'mini va badbo'y hidini yo'qotadigan modda qo'shishimiz kerak bo'ladi".

Ibn Sino shularga o'xshash yana bir qancha dalil keltirib, murakkab dorilar ishlatishning afzalligini isbotlab bergan. Ibn Sinoning yozishicha murakkab dori shu doiraga kirgan moddalarning oddiy yig'indisi emas, balki u yangi sifatdir. Murakkab dori oddiy doriga nisbatan kuchliroq foydali ta'sir etadi.

Ibn Sino murakkab dorilarni ularning tarkibi, xususiyatlari, ta'siri va qaysi kasallikda qanday holda ishlatilishiga karab quyidagi guruhlarga bo'lgan: taryaklar, majunlar, irojlar, juvorishinlar, kukun dorilar, xab dorilar, bolalarning og'ziga kuyiladigan dorilar, yalanadigan dorilar, sharbatlar, anbjalar, kulchalar, kaynatmalar, yog'lar, malhamlar, kuyuk dorilar.

Ibn Sino yuqorida keltirilgan har bir guruh dorining tarkibi, xususiyati va ta'sirini ko'rsatish bilan birga, ularning qaysi biri qanday kasallikda va kay shaklda qo'llanishini mufassal bayon etgan. Bu dorilardan taryaklarni ahamiyati va muximligi jihatidan birinchi o'ringa ko'ygan. Taryak Ibn Sinodan ham ilgari keng qo'llanib kelingan, juda murakkab tarkibga ega bo'lgan dori. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bu dorini qadimgi Rim imperatori Neronning saroy tabibi Andromaks kashf etgan. Bu dori tarkibiga uning xiliga karab 60 dan ortik har xil moddalar kiradi.

Taryakning eng yaxshisi taryak foruk deb ataladi.

Bu dori asosan har xil zaharlar va zaharlanishlarga karshi ishlatilgan. Zaharning kuchini kirkuvchi dori hisoblangan. Bu xakda Ibn Sinoning o'zi taryak murakkab dorilarning eng yaxshisidir, chunki u ko'p narsalarga foyda qiladi, xususan, ilon, chayon va kuturgan it zahariga hamda ichilganda o'ldiruvchi

zaharlarga karshi ta'sir qiladi va bir kancha kasalliklarni davolaydi deb yozgan. Ammo bu dori moxov kasalligi va pes(vitiligo)ni ham tuzatadi, deb xato fikr yuritgan.

Majunlar har xil dorilarni ko'shib ularni aralashtirib, asal, sut, yog` kabi mahsulotlarga korishtirib tayyorlangan bo'tkasimon dorilardir. Masalan, taryak majuni shunday dori hisoblanadi va u taryak bo'tkasi deb ataladi.

Iyorojlar haqida Ibn Sino bu dori tuzatuvchi surgining nomidir. Uning lugaviy ma'nosi iloxiy dori demakdir, deb yozgan.

Juvorishlarga me'da shishini yaxshilaydigan va ovqatni yengil hazm kildiruvchi dorilar kiradi. Sayd Muhammad Xusaynixonning "Karobidinni kabr" kitobida juvorish forscha guvorish (hazm qilish) degan so'zning arabchalashtirilganidir deb yozilgan.

**Yalanadigan dorilar.** Ko`prok o`pka kasalliklarida ishlatilgan. Bu xakda Ibn Sinoning o`zi yalanadigan dorilar ko`pincha og`izda uzokrok saqlanib turish uchun tayyorlanadi, shunda dori birdaniga me'daga borib tushmasdan oz-ozdan o`pkaga yetib boradi, deb yozgan.

**Sharbatlar va kuyultirilgan shiralar.** Ibn Sino sharbat bilan kuyultirilgan shiralar haqida so`zlab, kuyultirilgan shira deganda mevalardan sikib olingan suvning o`z holicha kuyultirilib kiyom qilinganini tushungan. Sharbat esa kaynatma va sikib olingan suvlarning birorta shirinlik bilan ko'shib kiyom qilinganidir, deb yozadi.

**Anbajlar.** Muhammad A'zamxonning "Muxiti A'zam" nomli kitobida anbajlar turli mahsulotlardan asal bilan ko'shib tayyorlangan murabbo yoki kiyomdir deyilgan. Kulchalarni yassi xab dorilar deyish mumkin. "Karobidinni Kabr" da kulchalar shaklida tayyorlangan dorilarda ularning ta'sir kuchi uzok vaqt saqlanadi, deyilgan.

**Yog`lar.** Har xil yog`li dorilardan ko`prok tanaga surtish, burun va quloqqa tomizish, ichish va boshqa usullari foydalaniladi. Malhamlar ko`prok ko`rgoshin upasini mumli yog` bilan korib tayyorlanadi. Ular jaroxatlar, yaralar va ayrim a'zoldagi og`riqli shishlarni davolashda ishlatilgan. Ibn Sinoning o`zi ham shunday dorilardan birining reseptini tuzgan. Ibn Sino har bir guruhga kirgan dorilarni batafsil bayon etib, ular qaysi kasalliklarda va qanday shaklda ishlatilishini ko`rsatib bergan.

Yuqorida aytib o`tilganidek, Ibn Sinoning o`zi ham bir nechta murakkab dori kashf etgan. Bular ichida eng muximlari yokub dorilari (yokub bo'tkasi) kichik taryak majuni, tajribadan o`tgan juvorshin, erman sharobi hisoblanadi. Ibn Sino o`zi bayon etgan dorilarning tarkibi va xususiyatlarini to`lik ifodalab bergan. Ammo bunda ba'zi noanikliklar va chalkashliklar ham uchraydi. Masalan, "Tib qonunlari" V kitobining 100-betida Ibn Sino "Dengiz piyozi elaki dorisi" nomli dorini bayon etgan. Lekin bu dori tarkibida dengiz piyozining o`zi yo`q. Ibn Sino ko`pgina dorilarning 3-4 va undan ortik nusxalarini ko`rsatib, ularni asosiy dorining nomini bergandan so`ng "boshqa nusxa" deb ketavergan. Shu nusxalarning har biri tarkibiga anchagina o`zgarishlar kiritilgan. Chunki u ba'zi dorilar haqida so`zlab, bu Ibn Sino ham o`z asarlarining ba'zilarida shunday tavsiyalar bergan. Masalan, uning yozishicha eshakning siydigi moxov

kasalligini tuzatar emish. To`ngizning siydigi esa odam buyragi va siydik kopchasidagi toshni eritib yuborar emish va xokazo.

Ibn Sino yana juda ham xatarli fikr bayon etgan. Uning yozishicha, kuturgan itning qoni shu it kopgan kishi uchun davo bo`larmish?!

Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol, va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash
------------------------------------	--

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar, yozib oladilar</p>
<p><b>2-bosqich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida "Aqliy hujum" metodi bo'yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. <b>O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar mavzu bo'yicha bilimi</b> mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida "Aqliy hujum" metodi bo'yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."B.B.B "sxemasi</p>

		bo'yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Farmasevtik kimyo fani haqida umumiy tushuncha mavzusini o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Farmatsevtik kimyo. I qism</b> – A. Yu. Ibodov – Batafsil fan bo'yicha darslik, farmatsevtik kimyo asoslari, dori moddalarining kimyoviy xossalari, tahlil usullari yoritilgan.</li> <li>2. <b>Farmatsevtik kimyo. II qism</b> – A. Yu. Ibodov – Birinchi qismning davomi bo'lib, aromatik va geterosiklik birikmalar, ularning fizik-kimyoviy xossalari haqida ma'lumot beradi.</li> <li>3. <b>Farmatsevtik kimyo</b> – A.K. Baykulov, F.N. Toshboyev – O'quv qo'llanma, farmatsevtik kimyoning nazariy asoslari va amaliyot uchun qisqaroq tushunchalar bilan.</li> <li>4. <b>Farmatsevtik kimyo</b> – A. N. Yunusxo'jayev – Dori vositalarining sifatini aniqlashning zamonaviy farmakopeyaviy usullari bo'yicha o'quv qo'llanma.</li> <li>5. <b>Farmatsevtik kimyo</b> – Q. A. Ubaydullaev – Farmatsevtik kimyo fani tushunchalari, dori moddalarini izlab topish, kimyoviy tuzilish va biologik faoliyat bog'liqligi haqida.</li> <li>6. Farmatsiya iqtisodi va farmatsiyadagi dolzarb masalalar.Navoiy-2019 y.V.N.Turaqulov,A.O.Hazratqulova 154-158 bet</li> </ol>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

## **Mavzu: Farmasevtik kimyo fani haqida umumiy tushuncha.**

### **Dars rejasi:**

1. Farmatsevtik kimyo xaqida tushuncha.
2. Dorixonada tayyorlangan dori turlari tahlili.

**Farmatsevtik kimyo** – dorivor moddalarning kimyoviy tuzilishi, xususiyatlari, reaksiyalari va dorixonalarda tayyorlangan dori vositalarining sifatini tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi fan.

### **Asosiy vazifalari:**

- Dori vositalari tarkibini aniqlash va ularni sinovdan o‘tkazish
- Dorivor moddalar va qo‘shimchalarning kimyoviy o‘zaro ta’sirini o‘rganish
- Dorixonalarda tayyorlangan dori shakllarini (tabletkalar, kapsulalar, siroplar, suppositoriyalar) sifat jihatdan baholash

### **Dorixonada tayyorlangan dori turlari tahlili:**

- **Tabletkalar va kapsulalar:** og‘irlik, hajm, erish tezligi, faol modda miqdori tekshiriladi
- **Siroplar va suspenziyalar:** homojenlik, pH, viskozitet, saqlanish muddati
- **Suppositoriyalar:** shakl, erish harorati, faol modda miqdori

### **Maqsadi:**

- Aholiga xavfsiz va sifatli dori vositalarini yetkazib berish
- Farmatsevtik standartlarga rioya qilish
- Dorixonada tayyorlangan dorilarning samaradorligini ta’minlash

**Farmasevtik kimyo** fan – dorishunos mutaxassislarining tayyorlashda yetakchi fanlardan biri bo‘lib, barcha kimyoviy qonunlarga asoslanib dori moddalarining olinish usullari, kimyoviy tuzilishi fizik va kimyoviy xossalari hamda dori moddalarining organizmga ta’sirida ularning kimyoviy tuzilishi orasidagi munosabatlari, dori moddalarining sifatini tahlil qilish usullari va saqlash sharoitlarini o‘rganadi.

Farmasevtik kimyo fani barcha farmatsevtik fanlar orosida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi va ana shu fanlarni o‘rganishda asosiy poydevor hisoblanadi. Farmasevtik kimyo o‘zining amaliy faoliyatida noorganik, organik, analitik, fizik-kolloid fanlari asosida, shu bilan bir qatorda, biologik fanlar bilan ham ish olib boradi. Ular farmakologiya<sup>13</sup>, anatomiya, fiziologiya fanlaridir. ularni bilish organizmda bo‘ladigan murakkab fiziologik jarayonlarni o‘rganish uchun kerak.

Dori moddasining ta'siri faqat uning kimyoviy strukturasi emas, balki fizik kimyoviy xususiyatlariga ham bog'liq. Shu sababli fizik va kolloid kimyo fanlari bilan o'zaro chambarchas bog'langan.

Dori moddalarining bir biriga mosligi, tayyorlash usuli, saqlash muddati va chiqarilishi, farmasevtik kimyoni diri turlari texnologiyasi va farmatsiya iqtisidiyoti tashkil qilish fanlari bilan bog'laydi.

Lekin dori moddalarining mosligini farmasevtik kimyo fanini egallagan mutaxassis hal etadi. Dori moddalarini olish, sifatini nazorat qilishga doir talabnomalar vaqoidalarni ishlab chiqish, ularning yaroqlik muddatini belgilash, kimyoviy jihatdan bir birga mos kelishini aniqlash – farmasevtik kimyoning asosiy vazifalaridan biridir. Mustaqil Respublikamizda 1992-yilda tashkil etilgan “ Kimyo va farmatsiya ” jurnali farmasevtik kimyo va dorishunoslikka bog'liq bo'lgan barcha fanlarning yanada yuksak natijalarga erishishida katta ahamiyat kasb etadi.

Farmatsevtik kimyo fan sifatida XVI asr boshlarida ajralib chiqdi, bu vaqtda alximiya davolovchi kimyoga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Bu fanning asoschisi **Teofrast Parasels** bo'lib, u shunday degan “ **Kimyo oltin yaratishga emas, inson sog'lig'ini saqlashga xizmat qilishi kerak** ”.

Paratsels kimyoviy modda haqida fikr bildirdi va rux, mis, temir, surma, qo'rg'oshin metallari birikmalarining davolovchi xususiyatlarini o'sha davr dorixonalariga asos bo'ldi va ular ilmiy tekshiruv laboratoriyalari vazifasini o'tadi

XVII asrga kelib, boshqa tibbiy fanlar qatorida kimyo ham tez rivojlana boshladi. **Georg Shtal** ( 1660-1734 ) “ **Flagiston** ” nazariyasini, **Robert Boyl** ( 1627-1692 ) “ **Olov materiyasi** ” nazaruyalarini ilgari surdilar. Birichisida, element yonganda modda chiqishi aytilsa, ikkinchisida, modda qizdirilganda nozik materiya birikadi va u oq'irlashadi deyiladi. Bu fikrlarni rus olimi **M.V.Lomonosov** ( 1711-1765 ) hammaga ma'lum qildi. Ya'ni u moddalar qizdirilganda kislorod bilan birikadi va shu sababli metall masasi ortadi, deb aydi.

Olim o'zining ko'pgina kashfiyotlari bilan Rossiyada kimyoning rivojlanishiga katta xissa qo'shdi. U har bir shifokor, dorishunos kimyo fani chuqur bilishi kerak, deb ta'kidladi.

M.V.Lomonosov shogirdlaridan **T.Ye.Lovis** ( 1757-1804) ko'mirning adsorbsiyon xossasini kashf etdi. birinchi bo'lib, “ **muzlatigan** ” sirka kislotani oldi. Mikro kristaloskopik tahlil usulini ishlab chiqdi.

**V.M.Severgin** ( 1765-1826 ) 1800-yilda “ **Kimyoviy dori moddalarining tozaligi va qibaki emasligini tekshirish usullari** ” va “ **Mineral suvlarni aniqlash usuli** ” asarlarini yozdi.

Tibbiyot va dorishunoslikni rivojlantish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda professor **Nelyubin** ( 1785-1856 ) ko‘p ishlar qildi. U ko‘plab dori moddalarni kashf qildi. “ **Farmakografiya** ” deb nomlangan 4 tomli asar yozdi. Unda o‘sha vaqtda ishlatilayotgan dori moddalari o‘z aksini topgan va dorishunoslarga bu kitob asosiy qo‘llanma edi.Uning shogirdi **Y.K.Trapp** 1885-yilda “ **Farmasevtik kimyo** ” kitobini yaratdi.

Akademik **Iovski** ( 1769-1858 ) ham bu fanning rivojlanishiga katta xissa qo‘shdi. U “ **Kimyoviy moddalar miqdorini aniqlashdagi kimyoviy tenglamalar**” kitobini yozib, farmasevtik preparatlarni miqdoriy tekshirishning ilmiy asoslarini ko‘rsatib berdi.

Professor **Tixomirov** 1915-yilda “**Farmasevtika kursi** ” kitobini yozdi.

Farmasevtik kimyo rivojlanishida, kadrlar tayyorlashda rus olimlari **A.A.Voskresenskiy** ( 1809-1880 ) va **N.N.Zininlarning** ( 1812-1880 ) xizmatlari beqiyosdir.**D.I.Mendeleyev Voskreskskiy** “ **Rus kimyosining oqsoqoli** ” deb atgan edi.

**Zinin** organik kimyo taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. 1842-yilda nitro aramatik birikmalarni aramatik birikmalariga aylantirish usuli aramatik dorilar ishlab chiqarishga asos bo‘ldi.

Olimlarimiz biolobik faol dorivor o‘simliklardan, hayvon mahsulotlaridan sintez, yarim sintez yo‘llar bilan zaharliligi kam dorilar yaratish bo‘yicha tinimsiz izlanmoqdalar. Shu maqsadda yo‘l-yoriq ko‘rsatish, tibbiyotga tadbiq qilinadiyotgan dori moddalarini standartlash sifatini nazorat qilish va saqlashga dori masalalarini hal etishda ilmiy tekshirish muassasalari va Toshkent Farmasevtik insitituti olimlari yetakchilik qilmoqdalar.

Respublikamiz dori-darmon vositalari bilan ta‘minlashni yo‘lga qo‘yishda Respublika Sog‘liqni saqlash vazirligiga qarashli dori moddalar tibbiy vositalar sifatini nazorat qilish yangi dori – darmonlar hamda tibbiyot vositalarni amaliyotga tadbiq qilish boshqarmasi, undagi farmakologiya, farmakopeya qo‘mitalarining faoliyatiga katta ahamiyatga ega.

Dori moddalarini sonining ko‘pligi xilma-xilligi ularni tasnif qilish lozim, degan fikrga olib keldi.Dori moddalarining quyidagi tasniflari mavjud.

**Farmakologik tasnif** – dori moddalarining ta‘siriga bo‘linishi. Shu bilan qatorda dori vositalari uxlatuvchi, narkotik, og‘riq qoldiruvchi,diuretik, mahalliy anestiziya va boshqalarga bo‘linadi.

**Kimyoviy tasnif** – esa dori moddalarining kimyoviy strukturasi<sup>13</sup>ga, kimyoviy xossalari<sup>13</sup>ga asoslanadi. Ikkala tasnif ham kamchiliklardan holi emas.Masalan, farmakologik tasnifga ko‘ra turli xil strukturali vositalar bitta gguruhga kiritilgan. Kimyoviy tasnifda esa ularning organizmga ta‘sir qilishi hisobga olinmaydi.

**Kimyoviy tasnif** – bo‘yicha dori vositalari ikki guruhga bo‘linadi:

**I.** Noorganik guruh dori moddalari

**II.** organik dori moddalari

**Noorganik dori moddalari** Mendeleev davriy sistemasida tutgan o‘rniga qarab guruhlanadi.

**Organik dori vositalari** esa quyidagi sinflarga bo‘linadi.

**I.** Alitsiklik birikmalar

**II.** Karbosiklik birikmalar

**III.** Gererosiklik birikmalar

Shu bilan bir qatorda, ayrim sinfdagi vositalar ( - OH, -COH, -COOH, -NH<sub>2</sub> , - Ch ) funksionalo guruhlari bo‘yicha ham yangi guruhlarga bo‘linadi ( uglevodlar, fenollar, aldegidlar, ketonlar, karbon kislotalar, aminlar va hk.) .

Dori moddalari tabiatiga ko‘ra organik va noorganik moddalarga bo‘linadi. Ular tabiiy manbalar yoki sun‘iy yo‘l bilan ham, sintetik olinishi mumkin.

Rudalar, gazlar, ko‘l dengiz suvlari noorganik dori vositalari hisoblanadi. Ular kimyo sanoati chiqindilardan ham olinadi. Organik dori moddalari uchun homashyo sifatida tabiiy gaz, toshko‘mir, yog‘och xizmat qiladi.

Neftni qayta ishlash natijasida vazelin, vazelin moyi, parafin, aromatik uglevodlar va ularning hosilalari olinadi. Toshko‘mirni quruq haydash vaqtidagi fraksiyalardan biri toshko‘mirli qora moy fenollar va ularning hosilalarni olishda homashyo hisoblanadi.

O‘zi antiseptik modda hisoblangan fenoldan benzoldan toluoldan naftalin olinadi. Ular ko‘plab dori vositalari sintezida ishlatiladi.

Smola osti suvidan yog‘och spirti, sirka kislota va boshqa vositalar olinadi.

### **Tibbiy atamalar**

- Alkaloid** – o‘simliklardan olinadigan biologik faol azotli birikmalar.
- Antibiotik** – bakteriyalarni yo‘q qiluvchi yoki ularning o‘shini to‘xtatuvchi moddalar.
- Analgetik** – og‘riqni kamaytiruvchi dori.
- Bioaktiv** – organizmga biologik ta‘sir ko‘rsatadigan moddalar.
- Farmakokinetika** – dori organizmda qanday so‘rilishi, tarqalishi, metabolizmga uchrashi va chiqarilishini o‘rganadigan fan.
- Farmakodinamika** – dori vositasining organizmga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadigan fan.
- Ksenobiotik** – organizmga tabiiy bo‘lmagan modda (dori yoki toksin).
- Prodrugs** – organizmda faol modda hosil qiluvchi dori shakllari.
- Sintez** – kimyoviy reaksiyalar orqali yangi moddalarni yaratish jarayoni.
- Polimer** – dori vositalarida foydalaniladigan katta molekulali birikmalar, masalan, dori yetkazish tizimlarida.

### **Aqliy hujum” (Brainstorming) interfaol o‘yini qo‘llanishi**

“Aqliy hujum” — muammoni qisqa vaqt ichida ko‘plab g‘oyalar orqali hal qilishga qaratilgan interfaol metod. Tibbiyot darslarida tashxis qo‘yish, davolash usullarini aniqlash va muammoli vaziyatni tahlil qilishda samarali.

#### **1 Maqsadni aniqlash**

- Muammo yoki savol aniq belgilanadi.
- Masalan: “Isitma bilan kelgan bemorda qanday sabablar bo‘lishi mumkin?”

## 2 Qoidalarni tushuntirish

- Har qanday fikr qabul qilinadi (tanqid qilinmaydi).
- Tezkorlik muhim.
- Qisqa va aniq javob beriladi.
- Fikrlar soni ko'p bo'lishi rag'batlantiriladi.

## 3 Muammoni e'lon qilish

- O'qituvchi savolni doskaga yozadi.
- Vaqt belgilanadi (3–5 daqiqa).

## 4 G'oyalarni yig'ish

- Talabalar navbat bilan yoki erkin tarzda fikr bildiradi.
- O'qituvchi barcha javoblarni yozib boradi.
- Baholash yoki tahlil bu bosqichda qilinmaydi.

## 5 Tahlil bosqichi

- Bildirilgan g'oyalar guruhlariga ajratiladi.
- Asosli va mantiqli variantlar tanlab olinadi.
- Keraksiz yoki takroriy javoblar chiqarib tashlanadi.

## 6 Xulosa chiqarish

- Eng to'g'ri yoki samarali yechim aniqlanadi.
- O'qituvchi ilmiy asoslangan yakuniy xulosani beradi.

## B.B.B. metodi (K.W.L. metodi) tavsifi

B.B.B. metodi o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va uch bosqichdan iborat:

1. **B – Bilaman** (What I Know)
  - Talaba mavzu bo'yicha allaqachon nimalarni bilishini yozadi.
2. **B – Bilmoqdaman** (What I Want to Know)
  - Talaba mavzu bo'yicha nimalarni bilishni xohlashini yozadi.
3. **B – Bilishni xohlayman** (What I Learned)
  - Mavzu o'qitilganidan keyin talaba nima o'rganganini yozadi.

## Nazorat savollar

1. Farmatsevtik kimyo fani nimani o'rganadi?
2. Dorixonada tayyorlangan tabletkalarni tahlil qilishda qanday parametrlar tekshiriladi?
3. Siroplar va suspenziyalarni farmatsevtik kimyo nuqtai nazaridan qanday baholaysiz?
4. Suppositoriyalar tahlilida nimaga e'tibor qaratiladi?
5. Farmatsevtik kimyoning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Dorixonada tayyorlangan dori turlari qaysi shakllarda bo'lishi mumkin?
7. Farmatsevtik kimyoning maqsadi nima?
8. Kapsulalarni tahlil qilishda qanday ko'rsatkichlar muhim?
9. Dorixonada tayyorlangan dori vositalarining sifat va samaradorligini qanday ta'minlash mumkin?
10. Farmatsevtik kimyo fanining dorixona amaliyotidagi o'rni qanday?

## MAVZUGA OID TESTLAR

### 1. Farmatsevtik kimyo fani nimani o'rganadi?

- A) Dorixonadagi inventarizatsiya
- B) Dorivor moddalar tarkibi, xususiyatlari va reaksiyalari
- C) Faqat klinik tadqiqotlarni
- D) Dori narxlarini belgilash

**Javob: B**

### 2. Dorixonada tayyorlangan tabletkalarni tahlil qilishda nima tekshiriladi?

- A) Rangi va narxi
- B) Og'irligi, erish tezligi, faol modda miqdori
- C) Faqat qadoqlash sifati

D) Xodimlar soni

**Javob: B**

**3. Siroplar va suspenziyalarni farmatsevtik kimyo nuqtai nazaridan tekshirishda qaysi parametr muhim?**

A) Homojenlik, pH, viskozitet

B) Narx

C) Reklama

D) Ta'm

**Javob: A**

**4. Suppositoriyalarni tahlil qilishda qaysi parametr tekshiriladi?**

A) Shakl, erish harorati, faol modda miqdori

B) Yangi dorilarni ishlab chiqarish

C) Xodimlar malakasi

D) Dorixonaning joylashuvi

**Javob: A**

**5. Farmatsevtik kimyoning asosiy vazifasi nima?**

A) Dori vositalari sotuvini oshirish

B) Dorivor moddalar tarkibi va sifatini o'rganish

C) Faqat retseptlar tayyorlash

D) Dorixonani boshqarish

**Javob: B**

**6. Dorixonada tayyorlangan dori turlari qaysi shakllarda bo'lishi mumkin?**

A) Tabletkalar, kapsulalar, siroplar, suppositoriyalar

B) Faqat tabletkalar

C) Faqat kapsula

D) Faqat suyuq dorilar

**Javob: A**

**7. Farmatsevtik kimyo fanining maqsadi nima?**

A) Dorixonada sifatni ta'minlash va xavfsiz dorilar yetkazish

B) Dorixonadagi xodimlarni kuzatish

C) Dorilar narxini oshirish

D) Faqat laboratoriya jihozlarini tekshirish

**Javob: A**

**8. Dorixonada kapsulalar tahlilida nimaga e'tibor qaratiladi?**

A) Rangi va qadoqlash

B) Faol modda miqdori, og'irligi, erish tezligi

C) Xodimlar soni

D) Savdo hajmi

**Javob: B**

**9. Dorixonada tayyorlangan dori vositalarining samaradorligini ta'minlash uchun nima qilinadi?**

A) Dorivor moddalarni sifat jihatdan tekshirish

B) Reklama qilish

C) Narxlarni oshirish

D) Faqat qadoqlashni tekshirish

**Javob: A**

13

**10. Farmatsevtik kimyo qaysi sohada amaliy qo'llaniladi?**

A) Dorixonada tayyorlangan dorilarni tahlil qilish

B) Faqat savdo bo'limida

C) Faqat laboratoriyada, amaliyotga aloqasi yo'q

D) Faqat transportda

**Javob: A**

## **Asosiy darsliklar va qo‘llanmalar (o‘zbek tilida)**

7. **Farmatsevtik kimyo. I qism** – A. Yu. Ibodov  
– Batafsil fan bo‘yicha darslik, farmatsevtik kimyo asoslari, dori moddalarining kimyoviy xossalari, tahlil usullari yoritilgan.
8. **Farmatsevtik kimyo. II qism** – A. Yu. Ibodov  
– Birinchi qismning davomi bo‘lib, aromatik va geterosiklik birikmalar, ularning fizik-kimyoviy xossalari haqida ma’lumot beradi.
9. **Farmatsevtik kimyo** – A.K. Baykulov, F.N. Toshboyev  
– O‘quv qo‘llanma, farmatsevtik kimyoning nazariy asoslari va amaliyot uchun qisqaroq tushunchalar bilan.
10. **Farmatsevtik kimyo** – A. N. Yunusxo‘jayev  
– Dori vositalarining sifatini aniqlashning zamonaviy farmakopeyaviy usullari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.
11. **Farmatsevtik kimyo** – Q. A. Ubaydullaev  
– Farmatsevtik kimyo fani tushunchalari, dori moddalarini izlab topish, kimyoviy tuzilish va biologik faoliyat bog‘liqligi haqida.

### **Qo‘shimcha manbalar**

- Eski nashrlar: *Фармацевтик химия* (Ubaydullaev va boshqalar) – klassik o‘quv qo‘llanma (1971-yil nashri).
- Dars rejalari va tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati: Ibodov, Yunusxo‘jayev, Ubaydullaev asarlari asosiy manba sifatida tilga olingan.

<b>2.5.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Dori moddalarini tahlil qilish usullari.</b>
---	---

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg'ulot</b>
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hozirgi zamon farmasevtik tahlilining yangi nazorat usullari.</li> <li>2. Dori moddalari nazorati fizikaviy , kimyoviy , fizik – kimyoviy hamda biologik usullar yordamida tekshiriladi.</li> <li>3. REFRAKTOMETRIYA.</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O'quv faoliyatini natijalari:</b>
Farmasevtik kimyo fani haqida umumiy tushuncha. Kimyo, biologiya, farmasiya fanlari bilan aloqasi. Davlat farmakopeyasi, farmasevtik kimyo fanining, farmasevt mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati. Dori moddalarini tahlil qilish usullari: fizik, kimyoviy, biologik. <sup>13</sup> miqdori va ekspress tahlil usullari, xromatografiya usullari. Organik birikmalar. Organik birikmalarning olinish manbalari va tabiiy, sun'iy usullari. Ularning tasnifi va nomenklaturasi.	Tinglovchi: Saqlash sharoiti va barqarorligini ta'minlash choralari. Spirtlar va aldegidlar. Karbon kislotalar va ularning amidli xosilalari. Aminokislotalar. Antibiotiklar. Antibiotiklarning ta'rifi, olinishi, kimyoviy tasnifi, ishlatilishi. Aromatik birikmalar.Dori moddalarini tahlil qilish usullari. Taxlilidagi umumiyliklar va xususiy reaksiyalar,qo'llanishi va saqlanishi.

O'qitish metodlari	AQLIY HUYUM ,INSERT usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida"Aqliy hujum" metodi bo'yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot "Ma'ruza<sup>13</sup> o'qish" usulida tushuntiriladi. <b>O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar mavzu bo'yicha bilimi</b> mustahkamlanadi.</p>	Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida"Aqliy hujum" metodi bo'yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib

<b>mustaxkamlash</b>		oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."Insert "sxemasi bo'yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Dori moddalarini tahlil kilish usullari. mavzusini o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p><b>1. G'ulomov A., Farmatsevtik kimyo va tahlil</b> – Dori moddalarini fizik, kimyoviy va biologik usullar bilan tahlil qilish asoslari.</p> <p><b>2.Aliyev T., Farmatsevtik analiz va nazorat</b> – Hozirgi zamon farmasevtik tahlil usullari va sifat nazorati.</p> <p><b>3.Mirzaev S., Farmatsevtik fizik-kimyoviy usullar</b> – Refraktometriya, polarimetriya, UV-VIS spektrofotometriya bo'yicha qo'llanma.</p> <p><b>4.Islomov Sh., Amaliy farmatsevtika kimyosi</b> – Eritmalarni tayyorlash va dori sifatini aniqlash metodlari.</p> <p><b>5.Bekmurodov N., Farmatsevtik sanoat va sifat nazorati</b> – Zamonaviy farmasevtik tahlil metodlari, HPLC va refraktometriya</p>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

### **Mavzu: Dori moddalarini tahlil qilish usullari.**

Dars rejasi:

1. Hozirgi zamon farmasevtik tahlilining yangi nazorat usullari.
2. Dori moddalari nazorati fizikaviy , kimyoviy , fizik – kimyoviy hamda biologik usullar yordamida tekshiriladi.
3. REFRAKTOMETRIYA.

Hozirgi kunda farmasevtik nazorat juda katta odimlar bilan rivojlanmoqda. Asosan **instrumental tekshiruv** usuli deb ataluvchi fizik – kimyoviy va fizikaviy usullar ana shular jumlasiga kiradi. Bunda zichlik, yopishqoqlik, tiniqlik, nur sindirish ko‘rsatkichi, elektr o‘tkazuvchanlik radiaktivlik, qutublangan nur tekisligini burush hususiyatlari hisobga olinadi.

Hozirgi zamon farmasevtik tahlilining yangi nazorat usullariga **xromotografik** kiradi.

1. Adsorbsiyalanish xromotografiyasi;
2. Taqsimlanish xromotografiyasi;
3. Ion almashinish xromotografiyasi;
4. Gazli va gaz suyuqlik xromotografiyasi;
5. Cho‘kindi xromotografiyasi;

Bundan tashqari fotometrik nazorat usullari ham mavjud bo‘lib , bular moddalarning yorug‘likni yutishiga asoslangan.

eng yangi usullarga yadro magnitli rezonans spektrofotometriyasi, paramagnit rezonans kiradi.

Hozirgi paytda farmasevtik nazoratda suvsiz erituvchilardan keng foydalanilmoqda. Oldin erituvchi faqat suv bo‘lgan bo‘lsa , hozirda muzlatilgan sirka kislota ,suvsiz sirka kislota , sirka angidiridi , dimetilformamid ishlatiladi . Bunday erituvchilar moddalarning ishqoriylikyoki kislotalilik kuchini o‘zgartiradi. Eng ko‘p ishlatiladigan tomchilash usuli – mikro usul dorixona ichki nazoratida keng qo‘llanilmoqda .

Hozirda turli xil usullarni birlashtirib tekshirish usuli ham o‘tkazilmoqda , ya’ni xromatomass – spektometriya – bu xromotografiya va mass-spektrometriya uyg‘unlashishidir.Bu bilan fizika , kvant kimyosi ,matematika fanlari farmasevtik tekshirishga kirib kelmoqda. Har qanday dori moddasini tahlil qilishdan avval uning tashqi ko‘rinishiga e’tibor beriladi , bunda moddaning rangiga , hidiga , kristall shakliga , idishiga , joylashtirilishiga , shisha rangiga qaraladi.So‘ngra o‘rtacha sinama olib, XDF ( 853m ) bo‘yicha tekshiriladi.

Dori moddalari nazorati **fizikaviy , kimyoviy , fizik – kimyoviy** hamda **biologik usullar** yordamida tekshiriladi.

**Fizikaviy usul** orqali moddaning fizik hususiyatlari kimyoviy reaksiyalarsiz tekshiriladi. Bunga eruvchanlik , tiniqlik yoki loyqalik darajasi ,

rangi, zichligi va namligini aniqlash , erish harorati , qotish hamda qaynashi kiradi. Bu usullar X- XI DF ( 756-776 m ) da ko'rsatilgan.

**Kimyoviy usullarga** kulni , muhitni ( pH ) , yog'larning xarakterli ko'rsatkichlari ( kislota , yod hamda sovunlanish soni ) ni aniqlash kiradi.

Dori moddasining chinligini aniqlashda shunday reaksiyalar ishlatiladiki , bunda eritmaning rangi o'zgarib , gaz ajralishi , cho'kma hosil bo'lishi lozim. Bir so'z bilan aytganda ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar bo'lishi zarur.

Kimyoviy aniqlash usullariga yana og'irlik va hajm bo'yicha miqdoriy aniqlash usullari kiradi. Bu usullar analitik kimyoda qabul qilingan bo'lib ( neytrallash, cho'ktirish, redoks usullar va boshqalar.) kimyoviy reaksiyalarga asoslangan.Hozirgi vaqtda farmasevtik tahlilda suvsiz muhitda titrlash kompleksa metriya usullari keng ishlatilmoqda.

Organik dori moddalar nazorati funksional gruppasi va molekulasiga reaksiyalar bajarishga asoslangan.Fizik kimyoviy usulda fizik o'zgarishlar tekshiriladi.Masalan kaloriya metriya usulida rang intensivligining konsentratsiyaga bog'liqligi tekshirilsa,kondukto metrik usulda eritmalarning elektr o'tkazuvchanligi o'lchanadi.

**Fizik – kimyoviy usullarga** – optik ( refraktometrik, polyarimetrik ,yemmission, flyuoessent, fotometrik, nelefolometrik, turbodimimetrik ), elektrokimyoviy ( potensiometrik, polyarografik ) hamda xromatografik usullar kiradi.

#### **Fizik – kimyoviy usullar**

Dori vositalarining o'sib borishi dorilar sifatini tershishning yangicha usularini topishni taqozo etadi.Ana shu usullar tarkibiga fizik – kimyoviy usullar kiradi. Bu usullar universal bo'lib, ya'ni har xil kimyoviy strukturali organik moddalarni tekshirishga imkon beradi.

#### **REFRAKTOMETRIYA.**

Miqdor analizining tez va tejamli usuli bo'lib, sindirish ko'rsatkichini aniqlashga asoslanadi.

Yorug'lik nuri bir tiniq muhitdan ikkinchisiga o'tganda o'zining yo'nalishini o'zgartiradi, ya'ni sinadi. Bu hodisa nurning turli muhitda tarqalishi tezligiga bog'liqdir.

Tushish burchagi sinusining ( i ) sinish burchagi sinusiga ( r ) nisbatli muhitda nurning tarqalish tezliklari nisbatiga teng bo'lib, shu ikki muhit uchun doimiy kattalikka ega bo'ladi.<sup>13</sup>

$$\frac{\sin i}{\sin r} = \frac{v}{v} = n$$

Bu doimiylik sindirish ko'rsatkichi koeffitsienti deb atalib, moddaning tabiatiga, temperaturaga, nurning to'liq uzunligiga, eritmaning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Sindirish ko'rsatkichi bilan konsentratsiya o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan miqdor analiz usuli **refraktometriya** deb ataladi. Sindirish ko'rsatkichi maxsus asboblarda – refraktometrlar yordamida aniqlanadi.

Refraktometrning asosiy qismlari: oralig'iga suyuqlik solinadigan ikki prizma, okulyar va xisoblash uchun darajalangan shkaladir. Ish boshlashdan avval asbobning nol nuqtasi belgilab olinadi. Buning uchun pastki prizma yuzaga 2 – 3 tomchi distillangan suv tomizib kamera sekin yopiladi. Shkala qo'ruvchi trubasining okulyari vizir chiziqlari aniq ko'rinadigan qilib o'rnatiladi.

Shkala okulyarining vizir chiziqlarining 1333ga o'rnatib ko'rish trubasidan yorug'lik va soyaning ikki perpendekulyar chiziq kesishgan nuqtasiga munosabati ko'riladi. Agar yorug'lik va soya chegarasi kesishishi nuqtasi orqali o'tgan asbob nolga o'rnatilgan xisoblanadi. Aksincha bo'lsa, kalit yordamida yorug'lik va soya chegarasi nuqtaga moslanadi.

So'ngra kamerani filtr qog'ozi yoki doka bilan artib, quritib, 1 – 2 tomchi teksgiriluvchi eritma solinadi.

Kamerani yopib ruchka yordamida va soya chegarasi vizir chiziqlari kesishishi nuqtasiga to'g'rilanadi.

So'ngra shkala yordamida sindirish ko'rsatkichi aniqlanadi. Topilgan ko'rsatkich yordamida eritmaning konsentratsiyasi formula yoki mahsus refraktometrik jadval yordamida aniqlanadi.

## **Mavzu: Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishni zamonaviy usullari. Dorixonada tayyorlangan dori taxlil turlarining afzalligi va kamchiligi.**

Dars rejasi:

1. Dorixonalardagi dori-darmonlar sifatini nazorat qilish.
2. Dorixonada tayyorlangan dori taxlil turlarining afzalligi va kamchiligi.

Dorixonalardagi dori-darmonlar sifati 1991-yil 3-aprelda chiqarilgan 195-son buyruq bilan nazorat qilib turiladi. Buning uchun barcha tegishli reaktiv va titrlangan eritmalar, idishlar, asbob-uskunalar, maxsus qo'llanmalar, metodik ko'rsatkichlar hamda ma'lumotlar bilan jihozlangan analitik kabinetlar, kichik turkumdagi dorixonalarda analitik stollar tashkil qilinadi. Ularda sanoat korxonalarida va dorixonaning o'zida tayyorlangan dori-darmonlar hamda haydab olingan suv ustidan doimiy sifat nazorati o'tkazib turiladi. Bunda, asosan,

dorilarning chinligi tekshiriladi. Sog`liqni saqlash vazirligi buyrug`iga binoan tasdiqlangan maxsus qo`llanma asosida dori-darmonlar sifatini dorixonalarda ichki nazorat qilish quyidagi usullar bo`yicha bajariladi:

a) **yozma nazorat** – bunda ayrim retsept yoki talabnoma bo`yicha tayyorlangan dorilarga darhol maxsus hujjat to`ldiriladi. Unda tayyorlashga olingan har bir moddaning lotincha nomi, umumiy hajmi va ulardan har qaysisining ayrim doza massasi, retsept yoki talabnoma raqami ko`rsatilgan bo`ladi. Hujjatning orqa tomoniga dorinitayyorlashga oid barcha hisob raqamlari yoziladi. Tayyorlangan dori tarkibiga zaharli yoki narkotik modda kirgan bo`lsa, bunday dorilar hujjatining yuqori qismiga “A” harfi, bolalar uchun tayyorlangan dorilarnikiga esa “B” harfi yozib qo`yiladi.

Yozma nazorat usuli dorixonada tayyorlangan barcha dori-darmonlar uchun qo`llaniladi.

Yozma nazorat retseptda qayd etilgan ma`lumotlar bilan hujjatda keltirilgan ma`lumotni taqqoslab, xulosa chiqarishdan iborat. Yozma nazorat uchun tayyorlangan hujjat 1 oy davomida saqlanadi;

b) **organoleptik nazorat** – bu dorixonada tayyorlangan dorilarning tashqi ko`rinishi, ba`zi xususiyatlari, ularning rangi, hidi, agregat holati, suyuq dorilar tarkibida eas turli yot mexanik qo`shilmalar borligini tekshrishdir;

d) **og`zaki surishtirish nazorati** – doirxonada dori sifatiga javobgar provizor texnolog tayyorlagan dorining tarkibiga kirgan birinchi moddaning nomi, murakkab dori tayyorlagan farmatsevt qolgan boshqa moddalar nomi, miqdorini to`g`i, aniq yoddan bilishi kerak. Dorini tayyorlashda yarim fabrikat preparatalar yoki konsentratlardan foydalanil bo`lsa, dorini tayyorlagan kishi ular tarkibiga kirgan moddalarning nomi va konsentratsiyasini ham aytib berish lozim;

e) **fizikaviy nazorat** – bu usulning mohiyati dorixonada tayyorlangan dorining umumiy massasi yoki hajmi hamda dorining soni va undagi ayrim doza massasini tekshirishdan iborat. Fifikaviy usul bilan davolash muassasalarida tayyorlangan dori turlarining 3 foizi nazorat qilinadi. Nazorat natijasi ro`yxatga olinadi;

f) **kimyoviy nazorat** – dorixonada tayyorlangan dori turlari tarkibiga kiruvchi moddalar sifati va miqdorini usullar bilan aniqlashga yordam beradi.

“Aqliy hujum” usuli.- <sup>13</sup> Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o`quvchi o`zining fikrini bayon etishi kerak.

Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.

Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

**“Insert” – matn bilan ishlash jarayonida ta’lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta’minlovchi kuchli asbob.**

**Insert-** bu, o‘zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir.

(√) - meni bilganlarga mos;

(+) – men uchun yangi axborot;

(–) - meni bilganlarimga, zid;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Aniqlashim kerak.

## **Tibbiy atamalar**

1. **API (Active Pharmaceutical Ingredient)** – faol farmatsevtik modda
2. **Konsentratsiya** – eritma ichidagi modda miqdori
3. **Spektrofotometriya** – yorug‘lik so‘rilishi yoki o‘tishiga asoslangan tahlil
4. **HPLC** – yuqori samarali suyuq xromatografiya
5. **Refraktometriya** – yorug‘likni qaytarish burchagi bilan konsentratsiyani aniqlash
6. **Erish nuqtasi** – moddalar qaynash yoki erish temperaturasi
7. **Tozalash darajasi** – dori tarkibidagi aralashmalar foizi
8. **Bioaktivlik** – dori moddasining biologik ta’siri
9. **Titratsiya** – miqdoriy kimyoviy analiz usuli
10. **Polarimetriya** – optik faol moddalarni o‘lchash usuli

## **Nazorat savollari:**

13

1. Farmatsevtik kimyo xakida tushuncha?
2. Dori moddalarini tahlil qilish usullari kaysilar?
3. Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishni zamonaviy usullari qanday?
4. Refraktometrning asosiy qismlari?

5. Refraktometriya nima?
6. Dorixonalardagi dori-darmonlar sifati kandy nazorat kilinadi?
7. Organoleptik nazorat?
8. Og`zaki surishtirish nazorati?
9. Fizikaviy nazorat?
10. Kimyoviy nazorat?

## **Mavzuga oid testlar**

### **1. Refraktometriya nimaga asoslanadi?**

- A) Molekulalar massasiga
- B) Yorug`likning qalinligi
- C) Yorug`likning qaytarilish burchagiga
- D) Moddaning rangi

**Javob: C**

### **2. Dori moddasini fizikaviy usul bilan tekshirishga misol nima?**

- A) Titrlash
- B) Refraktometriya
- C) Mikrobiologik tahlil
- D) Enzim reaksiyasi

**Javob: B**

### **3. HPLC nima vazifani bajaradi?**

- A) Dori moddalarini ajratish va aniqlash
- B) Biologik faollikni o`lchash
- C) Eritma rangini aniqlash
- D) Og`irlikni o`lchash

**Javob: A**

### **4. API nima?**

- A) Eritmaning qalinligi
- B) Faol farmatsevtik modda
- C) Refraktometriya natijasi
- D) Biologik faollik

**Javob: B**

### **5. Kimyoviy nazoratga quyidagilardan qaysi kiradi?**

- A) Erish nuqtasi o`lchash
- B) Titrlash
- C) Refraktometriya
- D) Massa aniqlash

**Javob: B**

13

### **6. Polarimetriya nima o`lchaydi?**

- A) Moddaning qattiqligi
- B) Optik faol moddalarni
- C) Eritma konsentratsiyasi

D) Biologik faollik

**Javob: B**

**7. Refraktometr yordamida nimani aniqlash mumkin?**

A) Dori moddalarining konsentratsiyasi

B) Biologik faollik

C) Enzimatik reaksiya tezligi

D) Eritma rang o'zgarishi

**Javob: A**

**8. Bioaktivlik nima?**

A) Moddaning fizik xususiyati

B) Moddaning biologik ta'siri

C) Optik zichligi

D) Molekulyar og'irlik

**Javob: B**

**9. Erish nuqtasi nima?**

A) Moddaning qattiq bo'lish burchagi

B) Moddaning qaynash yoki erish temperaturasi

C) Dori konsentratsiyasi

D) Yorug'lik o'tish burchagi

**Javob: B**

**10. Titratsiya qaysi nazoratga kiradi?**

A) Fizikaviy

B) Kimyoviy

C) Biologik

D) Optik

**Javob: B**

**Asosiy kitoblar**

1. **G'ulomov A., Farmatsevtik kimyo va tahlil** – Dori moddalarini fizik, kimyoviy va biologik usullar bilan tahlil qilish asoslari.
2. **Aliyev T., Farmatsevtik analiz va nazorat** – Hozirgi zamon farmasevtik tahlil usullari va sifat nazorati.
3. **Mirzaev S., Farmatsevtik fizik-kimyoviy usullar** – Refraktometriya, polarimetriya, UV-VIS spektrofotometriya bo'yicha qo'llanma.
4. **Islomov Sh., Amaliy farmatsevtika kimyosi** – Eritmalarni tayyorlash va dori sifatini aniqlash metodlari.
5. **Bekmurodov N., Farmatsevtik sanoat va sifat nazorati** – Zamonaviy farmasevtik tahlil metodlari, HPLC va refraktometriya.

**2. Ilmiy maqolalar va jurnallar**

13

1. **Kurbanov B., "Farmasevtik tahlilning yangi usullari"** – *Tibbiyot va Farmatsiya jurnali*, 2021.
2. **Raximov D., "Refraktometriya yordamida dori eritmalarini nazorat qilish"** – *Farmatsevtik Ilm*, 2020.
3. **Toshpulatov S., "Dori moddalarini fizik-kimyoviy tahlil usullari"** – *O'zbekiston Farmatsevtika Jurnal*, 2019.

4. Qodirov A., “Zamonaviy farmatsevtik sifat nazorati metodlari” – *Tibbiyot va Sifat*, 2022.

### 3. Onlayn manbalar (o)

1. O‘zbekiston Farmatsevtika Assotsiatsiyasi – Dori sifatini nazorat qilish va standartlar.
2. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi kutubxonasi – Farmasevtik tahlil bo‘yicha maqolalar va qo‘llanmalar.
3. O‘zbekistondagi farmatsevtik standartlar – Dori vositalarini sifat nazorati qoidalari.

<b>2.5.O‘quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Organik birikmalar. Organik birikmalarning olinish manbalari va tabiiy, sun‘iy usullari.</b>
---	---

#### Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg‘ulot</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Organik birikmalar haqida umumiy tushuncha va ularning ahamiyati</li> <li>2. Organik birikmalarning tabiiy olinish manbalari</li> <li>3. Organik birikmalarni sun‘iy (sintetik) usulda olish yo‘llari</li> <li>4. Tabiiy va sun‘iy yo‘l bilan olingan organik birikmalarning solishtirma tavsifi</li> </ol>
<p><b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta’limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko‘nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e’tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O‘quv faoliyatini natijalari:</b>

Farmasevtik kimyo fani haqida umumiy tushuncha. Kimyo, biologiya, farmasiya fanlari bilan aloqasi. Davlat farmakopeyasi, farmasevtik kimyo fanining, farmasevt mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati. Dori moddalarini tahlil qilish usullari: fizik, kimyoviy, biologik. miqdori va ekspress tahlil usullari, xromatografiya usullari. Organik birikmalar. Organik birikmalarning olinish manbalari va tabiiy, sun'iy usullari. Ularning tasnifi va nomenklaturasi.	Tinglovchi: Saqlash sharoiti va barqarorligini ta'minlash choralari. Spirtlar va aldegidlar. Karbon kislotalar va ularning amidli xosilalari. Aminokislotalar. Antibiotiklar. Antibiotiklarning ta'rifi, olinishi, kimyoviy tasnifi, ishlatilishi. Aromatik birikmalar. Dori moddalarini tahlil qilish usullari. Taxlilidagi umumiyliklar va xususiy reaksiyalar, qo'llanishi va saqlanishi.
O'qitish metodlari	“Baxs munozara” “Qaynoq kartoshka” usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska, videofilmlar, chizma, nazorat varoqlari, matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol, va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3. Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar, yozib oladilar
<b>2-bosqich. Amaliy qism 65 daqiqa</b>	1. Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish	Tinglovchilar o'tilgan mavzu

<p><b>1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O‘qitishning noan‘anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>maqsadida”Aqliy hujum” metodi bo‘yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o‘qituvchi tomonidan taqdimot “Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi.</p> <p><b>O‘qitishning noan‘anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar mavzu bo‘yicha bilimi mustahkamlanadi.</b></p>	<p>bo‘yicha bilimlarini tekshirish maqsadida”Aqliy hujum” metodi bo‘yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar.”Mozaika”sxemasi bo‘yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.</p>
<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e‘lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Organik birikmalar. Organik birikmalarning olinish manbalari va tabiiy, sun‘iy usullari. mavzusini o‘qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.Xasanov, A. <i>Biokimyo asoslari</i>. Toshkent, 2018.</p> <p>2.To‘raev, M. <i>Organik kimyo va biologiya</i>. Toshkent, 2020.</p> <p>3.Yoqubov, S. <i>Tibbiy biokimyo</i>. Toshkent, 2019.</p> <p>4.Qodirov, R. <i>Biologik faol organik birikmalar</i>. Samarqand, 2017.</p> <p>5.Sobirov, N. <i>Biotexnologiya asoslari</i>. Toshkent, 2021.</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

**Mavzu: Organik birikmalar. Organik birikmalarning olinish manbalari va tabiiy, sun‘iy usullari.**

**Reja**

1. Organik birikmalar haqida umumiy tushuncha va ularning ahamiyati
2. Organik birikmalarning tabiiy olinish manbalari
3. Organik birikmalarni sun'iy (sintetik) usulda olish yo'llari
4. Tabiiy va sun'iy yo'l bilan olingan organik birikmalarning solishtirma tavsifi

## **1. Organik birikmalar haqida umumiy tushuncha va ularning ahamiyati**

Organik birikmalar — tarkibida asosan uglerod (C) atomi bo'lgan, vodorod va boshqa elementlar bilan birikmalar hosil qiladigan kimyoviy moddalar guruhidir. Organik birikmalar uglerod atomining o'ziga xos xususiyatlari tufayli juda xilma-xil tuzilishga va xossalarga ega bo'ladi. Uglerod atomlari bir-biri bilan bog'lanib, zanjirlar va halqalar hosil qilishi organik birikmalarning ko'plab turlarini vujudga keltiradi.

Organik birikmalar tirik organizmlarning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Oqsillar, yog'lar, uglevodlar, fermentlar, vitaminlar va gormonlar organik birikmalarga kiradi. Ular organizmning o'sishi, rivojlanishi, moddalar almashinuvi va energiya almashinuvida muhim rol o'ynaydi.

Organik birikmalarning ahamiyati faqat biologiya bilan cheklanib qolmaydi. Ular tibbiyot, farmatsiya, sanoat, qishloq xo'jaligi va kundalik hayotda keng qo'llaniladi. Farmatsiyada ko'plab dori vositalari organik birikmalar asosida tayyorlanadi. Masalan, antibiotiklar, vitaminlar, gormonlar va og'riq qoldiruvchi dorilar organik moddalardan iborat.

Sanoatda organik birikmalar plastmassa, kauchuk, bo'yoqlar, yonilg'i, kosmetika va to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda muhim xomashyo hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida esa pestitsidlar, o'g'itlar va o'simliklarni himoya qiluvchi vositalar organik birikmalar asosida yaratiladi.

## **2. Organik birikmalarning tabiiy olinish manbalari**

Organik birikmalarning tabiiy olinish manbalari tirik organizmlar va tabiiy xomashyolarga asoslanadi. Tabiatda organik birikmalar o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar faoliyati natijasida hosil bo'ladi. Ushbu birikmalar tirik tabiatning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

O'simliklar organik birikmalarning eng muhim manbalaridan biridir. Fotosintez jarayonida o'simliklar quyosh energiyasi yordamida karbonat anhidrid va suvdan uglevodlar hosil qiladi. O'simliklardan kraxmal, shakar, selluloza, yog'lar, efir

moylari, alkaloidlar va glikozidlar olinadi. Ushbu moddalarning ko'pchiligi tibbiyot va farmatsiyada keng qo'llaniladi.

Hayvon organizmlari ham organik birikmalarning muhim manbai hisoblanadi. Hayvonlardan oqsillar, yog'lar, gormonlar, fermentlar va vitaminlar olinadi. Masalan, insulin, gormonlar va ayrim fermentlar hayvon to'qimalaridan ajratib olinadi va tibbiyot amaliyotida ishlatiladi.

Mikroorganizmlar, jumladan bakteriyalar va zamburug'lar ham ko'plab organik birikmalarni sintez qilish qobiliyatiga ega. Ular antibiotiklar, vitaminlar, fermentlar va biologik faol moddalarni ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy biotexnologiyada mikroorganizmlardan foydalanish keng rivojlangan.

- A) Dorivor preparatlar ishlab chiqarish
- B) Dorivor o‘simliklarning toksikologik tahlili
- C) Jarrohlik texnikasi
- D) Klinik diagnostika

**Javob: B**

### 7. O‘zbekistonda farmakognoziya fanini rivojlantirishda qaysi institutlar asosiy rol o‘ynagan?

- A) Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari
- B) O‘zbekiston Davlat Universiteti
- C) Toshkent Texnika Universiteti
- D) Toshkent Transport Universiteti

**Javob: A**

8. **“Aktiv modda” atamasi farmakognoziyada nimani anglatadi?**

- A) Preparatni tayyorlash jarayoni
- B) Dorivor o‘simlikdagi terapevtik ta’sir ko‘rsatadigan birikma
- C) O‘simlikni saqlash usuli
- D) O‘simlik turlarini nomlash

**Javob: B**

9. **Farmakognoziya fanining klinik tibbiyotga foydasi nimada?**

- A) Kasalliklarni davolashning aniq usullarini ishlab chiqish
- B) Kasalliklarni oldini olish va dori tayyorlashda qo‘llash
- C) Jarrohlik amaliyotini o‘rgatish
- D) Faqat tadqiqot ishlari

**Javob: B**

10. **O‘zbekistonda farmakognoziya fanini rivojlantirishda asosiy ilmiy manba sifatida nima ishlatiladi?**

- A) Dorixona kataloglari
- B) Ilmiy maqolalar, monografiya va o‘quv qo‘llanmalar
- C) Oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxati
- D) Iqtisodiy hisobotlar

**Javob: B**

## Adabiyotlar ro‘yxati

6. **Xolmatov H. X.** – *Farmakognoziya 1-qism* — Farmakognoziya fanining asoslari, dorivor o‘simlik mahsulotlari tasviri, yig‘ish, quritish, kimyoviy tarkibi haqida darslik.
7. **Xolmatov H. X., Ahmedov O‘. A.** – *Farmakognoziya 1-qism (2008)* — Farmakognoziya fani bo‘yicha chuqur nazariy ma’lumot.
8. **Xolmatov H. X., Ahmedov O‘. A., Musayeva N. A.** – *Farmakognoziya va botanika asoslari* — Farmakognoziya va botanikaga kirish nazariyasi.
9. **Kodirov N. D.** – *Farmakognoziya (o‘quv-uslubiy qo‘llanma)* — Samarqandda chop etilgan farmakognoziya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.
10. **Xolmatov H. H., Habibov Z. H.** – *Farmakognoziya* (klassik darslik) — Farmakognoziya fanining tarixiy-nazariy aspektlari va amaliy qo‘llanilishi.
11. **Xolmatov H. X., O‘. A. Ahmedov** – *Farmakognoziya 2-qism* — Dorivor o‘simliklar tasnifi, tahlili va preparatlar haqida.
12. **Toshkent farmatsevtika institutlari o‘quv materiali** – *Farmakognoziyaga kirish* — Farmakognoziya fanining rivojlanishi va asosiy tushunchalari bo‘yicha ma’ruza materiali.
13. **Samarkand davlat tibbiyot institutining ilmiy maqola to‘plamlari** – universitetga oid darsliklar va ma’ruzalar (farmakognoziya yo‘nalishi) nashrlari.
14. **Mahalliy darslik va metodik qo‘llanmalar** — Samarkand, Toshkent va boshqa tibbiyot institutlarida nashr etilgan farmakognoziya bo‘yicha o‘quv materiallari (monografiya, ma’ruza qo‘llanmalari).
15. **Tibbiyot kollejlari uchun farmakognoziya darsliklari** — dorixona mutaxassislari uchun mo‘ljallangan fan bo‘yicha materiallar.



<b>2.6.O'quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'ziga xos quritish va buning ahamiyati.</b>
---	---

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli**

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	<p>1. Aholining sog'lig'ini saqlash va ularga kerakli bo'lgan yuqori malakali tibbiy yordam.</p> <p>2 Resursshunoslik ishlari va dorivor o'simliklarni muhofaza qilish.</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p style="text-align: center;"><b>Pedagogik vazifalar</b></p> <p>O'zbekistonda farmakognoziya fanining rivojlanishi. Uning farmatsiya va tibbiyotdagi ahamiyati. Yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ulardan yangi dorilarni ajratib olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari. Respublikada dorivor o'simliklar va ularning mahsulotlarini yig'ishni tashkil etish. Yig'ishning umumiy va o'ziga xos qoida va tartibi.</p>	<p style="text-align: center;"><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b></p> <p>Tinglovchi: Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'ziga xos quritish va buning ahamiyati.O'simlik mahsulotlarini mezonlash, joylash va yorliqlashtirish. Dorivor o'simlik mahsulotlarini saqlash qoidasi, muddati. Ularga tashqi muhitning ta'siri. O'simlik mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurashish tadbirlari. Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilib tekshirish usullari. Fito choylarning tarkibi va ularni organizmga ta'siri.</p>
O'qitish metodlari	AQLIY HUYUM ,MOZAIKA usullari bilan ishlash

O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalarga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida"Aqliy hujum" metodi bo'yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi3</p> <p style="text-align: center;"><b>O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini</b> mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida" Aqliy hujum"metodi bo'yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol</p>

<b>mustaxkamlash</b>		tariqasida yo'llab javob oladilar."Mozaika" sxemasi bo'yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.
<b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: <b>Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'ziga xos quritish va buning ahamiyati</b> mavzusini o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Xolmatov H.X. – Farmakognoziya 1-qism</b> — Dorivor o'simliklarni yig'ish, quritish va tahlil qilish.</li> <li>2. <b>Ahmedov O.A. – Farmakognoziya va dorivor o'simliklar</b> — Farmakognoziya asoslari, faol moddalar va saqlash.</li> <li>3. <b>Musayeva N.A. – Dorivor o'simliklar texnologiyasi</b> — Quritish, saqlash va tayyorlash usullari.</li> </ol>	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

**Mavzu: Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'ziga xos quritish va buning ahamiyati.**

**Dars rejasi:**

1. Aholining sog'lig'ini saqlash va ularga kerakli bo'lgan yuqori malakali tibbiy yordam.

2 Resursshunoslik ishlari va dorivor o'simliklarni muhofaza qilish.

Aholining sog'lig'ini saqlash va ularga <sup>13</sup> kerakli bo'lgan yuqori malakali tibbiy yordamni o'z vaqtida ko'rsatish hamda kasallikni oldini olish kabi tibbiyotning asosiy masalalarini faqatgina vrachlar bilan farmatsevtlarning hamkorlikdagi olib borgan ishlari orqali amalga oshirish mumkin. Bu ishda malakali tibbiy xodimlarning

kasallikni o'z vaqtida kuzatish bilan bir qatopda bemorga kerakli bo'lgan doridarmonlarni tezlik bilan etqazib berishning ahamiyati juda katta. Yuqori samarali dorivor vositalarsiz xastalikni davolash to'g'risida gap bo'lishi mumkin ham emas.

Turli kasalliklarni davolashda qo'llaniladigan dorivor vositalar o'simlik va hayvonlardan tayyorlanadi yoki kimyoviy sintez yo'li bilan olinadi. Dorivor preparatlar olinadigan o'simliklar - dorivor o'simliklar va ularning mahsulotlarini o'rganish farmakognoziya fanining asosiy maqsadi va vazifasidir.

Dorivor o'simliklarni o'rganish sohasida farmakognoziya fani quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-tekshirish ishlari olib boradi:

1. Dorivor o'simliklarni yuqori samarali fitopreparatlar (o'simlik dorivor preparatlari) manbai sifatida o'rganish.

Bemorlarni davolash maqsadida dorivor o'simliklardan qadimdan ishlatib kelinadigan an'anaviy dori turlaridan (qaynatma, nastoyka, ekstrakt, damlamadan) tashqari ulardan fitopreparatlar ham olinadi.

Dorivor o'simliklardan fitopreparatlar olish uchun oldin ularning kimyoviy tarkibi chuqur o'rganilishi lozim. Buning uchun o'simliklarning asosiy ta'sir qiluvchi moddasi aniqlanadi, uni ajratib olib, tuzilishi, fizik va kimyoviy xossalari hamda farmakologik xususiyati o'rganiladi. Asosiy ta'sir etuvchi moddani o'simlikning qaysi o'sish davrida va qaysi qismida ko'p to'planishi aniqlanadi, ajratib olish va birga uchraydigan moddalardan tozalash hamda sifat va miqdoriy aniqlash usullari ishlab chiqiladi. O'simlik o'sish davrida uning tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi moddasining miqdoriy o'zgarishi va bu o'zgarishga sababchi omillari o'rganilib, mahsulotni tayyorlash vaqti aniqlanadi.

Keyinchalik o'simlikdan olingan fitopreparatning farmakologik ta'siri o'rganilib, klinik (shifoxona) sharoitida tekshirilib ko'rilgandan so'ng tibbiyot sohasida ishlatishga tavsiya qilinadi.

Dorivor o'simliklarning bunday o'rganish<sup>13</sup> albatta tibbiyotda ishlatish uchun fitopreparat yaratish bilan yakunlanishi kerak.

2. Yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ularni tibbiyot amaliyotida ishlatishga tadbiq etish.

Dorivor o'simliklar qadimdan insonlar tomonidan turli kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Ularning turlari ko'p bo'lib, er yuzining hamma hududida ishlatiladiganlaridan tashqari har bir hududning o'ziga xos dorivor o'simligi ham bo'ladi. Ammo, xalq tabobatida va an'naviy (traditsion) tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor o'simliklarning hammasi hali ilmiy tibbiyotda o'z o'rnini egallagan yo'q. Lekin ularning ba'zi birlari shu vaqtgacha davosi topilmagan kasalliklarga shifo bo'lishi ham mumkin.

Yuqorida farmakognoziya fanining maqsadi to'g'risida fikr yuritilganda sintez yo'li bilan olingan dorivor moddalarning (sintetik preparatlarning) sistematik ravishda ko'p ishlatilishi turli dori kasalliklariga olib kelishlari qayt etilgan edi. Shuning uchun yangi dorivor o'simliklarni, yuqori samarali biologik faol moddalarning yangi manbasini izlab topish farmakognoziya fanining asosiy maqsadlardan biridir.

Yangi dorivor o'simliklarni izlash quyidagilarga amal qilingan xolda olib boriladi:

a) Halq tabobati va traditsion tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o'simliklarni o'rganish. Ma'lumki, halq tabobatida qo'llaniladigan dorivor o'simliklar soni ilmiy tibbiyotda ishlatiladiganlaridan ancha ko'p. Masalan, O'zbekiston xalq tabobatida 500 dan ortiq o'simliklardan shifobaxsh vosita sifatida foydalaniladi, lekin shulardan 100 dan ortig'i ilmiy tibbiyotda ishlatiladi. Agarda xalq tabobatida qo'llaniladigan o'simliklar har taraflama va chuqur o'rganilsa, ular ichidan shifobaxsh xususiyatga ega bo'lganlarini topilishi aniqdir.

Hozirgi kunlarda ilmiy tibbiyotda qo'llanilayotgan ko'pchilik dorivor o'simliklar o'z vaqtida xalq tabobatidan olingan. Shuning uchun xalq tabobatining dorivor o'simliklari yangi, yuqori samarali fitopreparatlar yaratish maqsadida ilmiy tekshirish ishlari olib borishda bitmas-tuganmas manba'dir.

b) o'simliklarning uzaro filogenetik qardoshligini hisobga olgan holda ularni o'rganish.

O'zaro yaqin bo'lgan filogenetik qardosh<sup>13</sup> (bir turkum, ba'zan bir oilaga kiruvchi) o'simliklar kimyoviy tuzilishi bo'yicha bir xil yoki yaqin bo'lgan birikmalar sintez qiladi. Masalan, amigdalın glikozidi - ra'noguldoshlar, izotiotsianatlar-selderdoşlar (krestguldoshlar) oilalarining ko'pchilik turkum vakillari tarkibida uchraydi. Tropan

guruh alkaloidlar belladonna, mingdevona, bangidevona va skopoliya, ayrim steroid-glikoalkaloidlar (solaninlar, tomatinlar va boshqalar) ituzum turlariga xosdir. Bunday misollarni ko'p keltirish mumkin. Demak, ma'lum turkumning biror turi dorivor o'simlik bo'lsa, qolganlari ham shu xossaga ega bo'lishi mumkin. Chunki ularning tarkibida bir xil kimyoviy birikmalar bo'lishi kerak. Shu keltirilgan qardoshlikni hisobga olgan holda angishvonagul, adonis, afsonak. Erizimum, do'lana, na'matak va boshqalarning tibbiyotda ishlatilmaydigan turlarini o'rganish natijasida bir qancha yangi o'simliklar va fitopreparatlar davolash amaliyotiga tadbiq etildi.

v) Ma'lum bir hudud (region) yoki tuman o'simliklarini yalpisiga kimyoviy tahlil qilish.

Floraga boy bo'lgan tumanda o'sadigan hamma o'simliklarni turli (yoki aniq bitta) biologik faol moddalarga sifat reaksiyalar qilinib, so'ngra miqdori aniqlanib ko'rilsa, albatta ular ichidan bir qancha ayrim kimyoviy birikmalarni (yoki izlangan ma'lum biologik faol moddani) ko'p saqlaydigan turlari topiladi. Keyinchalk ularni har tarafлама chuqur o'rganish natijasida yangi fitopreparat yaratish mumkin yoki yangi dorivor o'simlik sifatida qo'llash mumkin.

Shuning uchun ham tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dorivor o'simliklar va fitopreparatlar (umuman, boshqa sintetik preparatlar ham) ro'yxati o'zgarib turadi. Eskirgan, o'z qimmatini yo'qotganlari yangisi, ko'proq samarali, kam zaharli va yomon asorat qoldirmaydiganlari bilan almashtirib turiladi.

3. Dorivor o'simliklar mahsulotlariga va yangi yaratilgan fitopreparatlarga me'yoriy - texnik hujjatlar (MTX) tuzish.

Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilish qismida me'yoriy-texnik hujjatlar (MTX) ni ahamiyati, kim tomonidan tuzilishi va qaysi tartibda tasdiqlanishi to'g'risida to'liq tushuncha berilgan. MTX lar har bitta yangi dorivor mahsulot va preparatlarga tuziladi hamda vaqt-vaqtda(farmakopeya maqo- lasi har besh yilda) qayta ko'rib chiqiladi va yangidan tasdiqlanadi. Shu qayta ko'rish<sup>13</sup> davrida MTX fan va texnika o'sish darajasining talabiga binoan mukammallashtiriladi, asosiy ta'sir etuvchi moddalarni tahlil qilish yangi usullari kiritiladi.

Dorivor o‘simlik mahsulotlariga va fitopreparatlarga MTX tuzish, ularni qayta ko‘rib chiqish hamda biologik faol moddalarni tahlil qilish usullarini yaratish yoki mukammallashtirish farmakognoziya fanining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

#### 4. Resursshunoslik ishlari va dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish.

Yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish uchun ularni umumiy zahirasi va ko‘p o‘sadigan joylarini bilish zarur. Shuningdek ularni tabiatda yo‘q bo‘lib ketishini oldini olish maqsadida bu mahsulotni yillik tayyorlash miqdorini hamda yig‘iladigan tumanlarini aniqlash lozim. Agarda dorivor o‘simliklar shularga rioya qilib, ilmiy asosda tuzilgan reja bo‘yicha tayyorlansa, ular tabiatda yo‘q bo‘lib ketmaydi, har yili kerakli miqdorda mahsulot yig‘ish mumkin bo‘ladi hamda dorivor o‘simliklar muhofaza qilinadi. Bu masalalar bilan farmakognoziya fanining ayrim mustaqil qismi bo‘lmish resursshunoslik shug‘ullanadi.

## Tibbiy/farmakognoziya atamalar

1. **Dorivor o‘simlik (Medicinal plant)** – tibbiyotda dorivor sifatida ishlatiladigan o‘simlik.
2. **Faol modda (Active compound)** – dorivor o‘simlik tarkibidagi terapevtik ta‘sir ko‘rsatadigan birikma.
3. **Quritish (Drying)** – o‘simlikdagi suvni olib tashlash jarayoni.
4. **Standartizatsiya (Standardization)** – dorivor o‘simlik sifatini belgilangan me‘yorlarga moslashtirish.
5. **Havo bilan quritish (Air drying)** – tabiiy yoki nazorat qilingan havo oqimi yordamida quritish.
6. **Faol modda saqlanishi (Retention of active substance)** – dorivor o‘simlikning terapevtik moddasini saqlash darajasi.
7. **Zaharlanish (Toxicity)** – noto‘g‘ri saqlash yoki quritish natijasida o‘simlik zararli bo‘lishi.
8. **Preparat (Preparation)** – dorivor o‘simlikdan tayyorlangan tibbiy mahsulot.
9. **Botanika (Botany)** – o‘simliklarning tuzilishi va xususiyatlarini o‘rganadigan fan.
10. **Toksikologiya (Toxicology)** – dorivor o‘simliklar zararli ta‘sirini o‘rganadigan fan.

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki no<sup>3</sup>rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.
- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

- Bu usulda dars o'tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o'quvchilarning mulohazalarini to'plash imkoniyatiga ega bo'lamiz.
- Har qanday javoblar usul so'ngida muhokama qilinadi.

### **”Mozaika” - ish o'yinini o'tkazish usuli.**

Bunda tinglovchilar guruhlariga bo'linadilar. Mavzuga oid savollar va javoblar yozilib konvertga joylashtiriladi. Har bir guruhdan tinglovchi konvert tanlab, ichidagi savollarni ma'lum vaqt ichida to'g'ri javoblarga joylashtirib berishlari shart.

So'ngra o'qituvchi to'g'ri javobni doskada ko'rsatadi. Birinchi va to'g'ri javob bergan guruh baholandi.

### **Nazorat savollari**

1. Dorivor o'simlik mahsulotlarini quritishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?
2. Dorivor o'simliklarni quritishda qanday usullar qo'llaniladi?
3. O'ziga xos (maxsus) quritish deganda nimani tushunasiz?
4. O'simlikning qaysi qismlari quritishga ko'proq ehtiyoj sezadi?
5. Quritish jarayonida biologik faol moddalar qanday saqlanadi?
6. Noto'g'ri quritish dorivor xomashyo sifatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Quyoshda quritish va soyada quritishning farqi nimada?
8. Sun'iy quritish usullarining afzalliklari nimalardan iborat?
9. Dorivor o'simliklarni quritishda gigiyenik talablar qanday bo'lishi kerak?
10. Dorivor o'simlik mahsulotlarini to'g'ri quritishning farmakognoziya fanidagi ahamiyati nimada?

### **MAVZUGA OID TESTLAR**

1. **Dorivor o'simliklarni quritishning asosiy maqsadi nima?**
  - A) Rangini o'zgartirish
  - B) Faol moddalarning saqlanishini ta'minlash
  - C) Faqat hajmini kamaytirish
  - D) Atrof-muhitni ifloslantirish

**Javob: B**
2. **Quritish jarayonida nimaga e'tibor berish kerak?**
  - A) Harorat va shamollatish
  - B) Faqat yorug'lik
  - C) Faqat vaqt
  - D) Hech narsa e'tibor qilinmaydi

**Javob: A**
3. **Qaysi quritish usuli dorivor o'simliklarning faol moddalarini eng ko'p saqlaydi?**
  - A) Quyoshda ochiq havoda quritish
  - B) Haroratni nazorat qilgan holda havo bilan quritish
  - C) Suvda qaynash
  - D) Mikrotolqinli pechda quritish

**Javob: B**

4. **Dorivor o‘simliklarni noto‘g‘ri quritish natijasi nima bo‘ladi?**  
 A) Faol modda saqlanishi ortadi  
 B) Faol modda kamayadi va sifat yomonlashadi  
 C) O‘simliklar yanada samarali bo‘ladi  
 D) Faqat rang o‘zgaradi  
**Javob: B**
5. **Qurtilgan dorivor o‘simliklar qanday saqlanishi kerak?**  
 A) Nam joyda  
 B) Qurtilgan, salqin va qorong‘i joyda  
 C) To‘g‘ridan-to‘g‘ri quyoshda  
 D) Ochiq idishda  
**Javob: B**
6. **Dorivor o‘simliklarni quritish nega muhim hisoblanadi?**  
 A) O‘simliklarni go‘zal ko‘rsatish uchun  
 B) Sifatni uzoq vaqt saqlash va dorivor preparatlarda ishlatish uchun  
 C) Faqat ilmiy tadqiqotlar uchun  
 D) Rangini o‘zgartirish uchun  
**Javob: B**
7. **Qaysi o‘simlik qismida faol modda ko‘proq bo‘lishi mumkin?**  
 A) Poyasi  
 B) Barglari, gullari va mevalari  
 C) Faqat ildizi  
 D) Hech qaysi  
**Javob: B**
8. **Quritish jarayonida quyosh nuri ortiqcha ta’sir qilsa nima bo‘ladi?**  
 A) Faol moddalar parchalanadi  
 B) Faol moddalar ko‘payadi  
 C) Hech narsa bo‘lmaydi  
 D) O‘simlik suvi ortadi  
**Javob: A**
9. **Dorivor o‘simliklarni quritishning eng samarali va tez usuli qaysi?**  
 A) Harorat va havo oqimi nazorat qilinadigan quritish usuli  
 B) Ochq havoda quyoshda quritish  
 C) Suvda namlab qoldirish  
 D) Tuproqda yashirish  
**Javob: A**
10. **Qurtilgan dorivor o‘simliklarning ahamiyati nima?**  
 A) Ularni uzoq vaqt saqlash va dori tayyorlash uchun ishlatish mumkin  
 B) Faqat dekorativ maqsadlarda ishlatiladi  
 C) Faol modda yo‘qoladi  
 D) Faqat laboratoriyada saqlash mumkin  
**Javob: A**

## Adabiyotlar (o‘zbekcha)

4. **Xolmatov H.X.** – *Farmakognoziya*<sup>13</sup> *I-qism* — Dorivor o‘simliklarni yig‘ish, quritish va tahlil qilish.
5. **Ahmedov O.A.** – *Farmakognoziya va dorivor o‘simliklar* — Farmakognoziya asoslari, faol moddalar va saqlash.
6. **Musayeva N.A.** – *Dorivor o‘simliklar texnologiyasi* — Quritish, saqlash va tayyorlash usullari.

7. **Kodirov N.D.** – *Farmakognoziya (o‘quv qo‘llanma)* — Dorivor o‘simliklar bilan ishlash.
8. **Toshkent farmatsevtika institutining darsligi** – *Farmakognoziyaga kirish*
9. **Samarkand davlat tibbiyot instituti** – *Dorivor o‘simliklarni ishlash va saqlash*
10. **Mahalliy maqolalar to‘plami** – *Dorivor o‘simliklarni quritish texnologiyasi*
11. **Xolmatov H.X., Habibov Z.H.** – *Farmakognoziya va preparatlar tayyorlash*
12. **O‘zbekiston farmatsevtika va tibbiyot jurnalida maqolalar** — dorivor o‘simliklarni saqlash va quritish amaliyoti.
13. **Darsliklar va metodik qo‘llanmalar (Toshkent, Samarqand, Namangan)** — dorivor o‘simliklar texnologiyasi, saqlash va sifat nazorati.

<b>2.6.O‘quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Dorivor o‘simlik maxsulotlarini saqlash qoidasi, muddati</b>
---	---

**Ma’ruza mashg’ulotini o‘qitish texnologik modeli**

<b>Vaqt 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:10-15ta</b>
<b>O‘quv mashg’ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg’ulot</b>
<b>Ma’ruza mashg’ulotining rejasi</b>	<p>1.O‘simlik maxsulotlarini mezonlash. joylash va yorliqlashtirish.</p> <p>2.Fito choylarning organizmga ta’siri.</p> <p>3 Dorivor mahsulotlarni saqlash.</p>
<p><b>O‘quv mashg’uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta’limiy :</b>  Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko‘nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e’tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<b>Pedagogik vazifalar</b>	<b>O‘quv faoliyatini natijalari:</b>
O‘zbekistonda farmakognoziya fanining rivojlanishi. Uning farmatsiya va tibbiyotdagi ahamiyati. Yangi dorivor o‘simliklarni izlab topish va ulardan yangi dorilarni ajratib olish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari. Respublikada dorivor o‘simliklar va ularning maxsulotlarini yig‘ishni tashkil etish. Yig‘ishning umumiy va o‘ziga xos qoida va tartibi.	Tinglovchi: Dorivor o‘simlik mahsulotlarini o‘ziga xos quritish va buning ahamiyati.O‘simlik mahsulotlarini mezonlash, joylash va yorliqlashtirish. Dorivor o‘simlik maxsulotlarini saqlash qoidasi, muddati. Ularga tashqi muhitning ta’siri. O‘simlik mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi

	kurashish tadbirlari. Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilib tekshirish usullari. Fito choylarning tarkibi va ularni organizmga ta'siri.
O'qitish metodlari	AQLIY Hujum, INSERT usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska, videofilmlar, chizma, nazorat varoqlari, matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rov yozma so'rov test, misol, va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p style="text-align: center;"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar, yozib oladilar
<b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b>	<p>1.Tinglovchilarning o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida "Aqliy hujum" metodi bo'yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan taqdimot</p>	Tinglovchilar o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini tekshirish maqsadida "Aqliy hujum" metodi

<p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b>  <b>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>“Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi. <b>O‘qitishning noan’anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar</b> mavzu bo‘yicha <b>bilimi</b> mustahkamlanadi.</p>	<p>bo‘yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar.”Insert” sxemasi bo‘yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.</p>
<p><b>3-bosqich</b>  <b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e’lon qilinadi .  Uyga vazifa: <b>Dorivor o‘simlik maxsulotlarini saqlash qoidasi, muddati</b> mavzusini o‘qib kelish.  Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>Xolmatov H.X.</b> – <i>Farmakognoziya 1-qism</i> — Dorivor o‘simliklarni yig‘ish, quritish va saqlash.</li> <li>2. <b>Ahmedov O.A.</b> – <i>Farmakognoziya va dorivor o‘simliklar</i> — Faol moddalar va saqlash usullari.</li> <li>3. <b>Musayeva N.A.</b> – <i>Dorivor o‘simliklar texnologiyasi</i> — Quritish va saqlash texnologiyasi.</li> <li>4. <b>Kodirov N.D.</b> – <i>Farmakognoziya (o‘quv qo‘llanma)</i> — Dorivor o‘simliklarni ishlash va saqlash.</li> </ol>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

**Mavzu: Dorivor o‘simlik maxsulotlarini saqlash qoidasi, muddati.**

**Dars rejasi:**

- 1.O‘simlik maxsulotlarini mezonlash. joylash va yorliqlashtirish.
- 2.Fito choylarning organizmga ta’siri.

### 3 Dorivor mahsulotlarni saklash.

Tibbiyotda va farmatsiyada tarkibida kishi organizmiga ta'sir etuvchi kimyoviy moddasi bo'lgan dorivor o'simlik organlari – mahsulotlari ishlatiladi. Dorivor mahsulotlar sifatida o'simliklarning ildizi, bargi, po'stlog'i, guli, mevasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi. Ularni kimyoviy birikmalar eng ko'p yig'ilgan davrda yig'ishtirib olish kerak. Kimyoviy moddalar o'simliklarning hamma organlarida bir vaqtning o'zida ko'p miqdorda to'planmaydi, shuning uchun xam ularni turli vaqtlarda tayyorlashga to'g'ri keladi. O'simlik organlarini quyidagi muddatlarda yig'ib olish kerak:

**Barglar** odatda o'simlik gullashi oldidan yoki gullaganida yig'ib olinadi. Barglar juda ohistalik bilan, iloji boricha o'simlikka zarar etkazmasdan yig'ib olinadi (belladonna, angishvonagul va boshqa o'simlik barglari).

Ba'zan o't o'simliklarning bargini tayyorlash uchun er ustki qismi o'rib olinadi, so'ngra barglari teriladi yoki er ustki qismi quritib maydalanadi. Barglari ajratilib, poyasi bilan shoxlari tashlab yuboriladi. Bunda shox va gullar aralashmasi barglarga qo'shib ketishi mumkin (yalpiz, gazanda va boshqa o'simliklar).

**O'simlikning er ustki qismi (o't)** o'simlik gullaganida yig'iladi. O'simlikning er ustki qismi poyasining tagidagi barglar oldidan o'rib olinib, poyaning bargsiz qismiga tegilmaydi. Bo'yi baland o'simliklarning esa poyasining tepa qismi (10-20 sm uzunlikda) va shoxchalari kesib olinadi (achchiq shuvoq, dalachoy va boshqa o'simliklar).

**Kurtaklar** erta bahorda (ochilmasdan ilgari) o'simlik tanasida suyuqlik yura boshlagan vaqtda yig'iladi. Kurtaklar o'simliklardan terib olinadi yoki kurtakli shoxchalarni qirqib olib so'ngra shoxchalardan kurtaklarni asta-sekin qoqib to'planadi.

**Po'stloqlar** ham erta bahorda, ya'ni o'simlik tanasida suyuqlik yurishib, yog'och qismidan oson ajraladigan davrida, poya va yo'g'on shoxlaridan shilib olinadi. Po'stloq olishni osonlashtirish uchun poya yoki yo'g'on shoxlarni bir-biridan 30 sm masofada ikki eridan o'tkir pichoq bilan ko'ndalangiga, keyin uzunasiga kesiladi va po'stloq ajratib olinadi.

**Gullar** o'simlik qiyg'os gullaganda yig'iladi. Ko'pincha gullar alohida- alohida kesib olinadi. Ba'zan gul to'plamining hammasi (dastarbosh, marjondaraxti va boshqalar) yoki gulning ayrim qismlari (sigirquyruq o'simligida faqat gul tojibarglari) yig'ib olinadi. Plantatsiyalarda o'stirilgan yoki yovvoyi holda ko'p uchraydigan mayda gulli o'simliklarning guli mahsus asbob bilan yig'iladi (moychechak va boshqalar).

**Meva va urug'lar** pishib etilgan davrda yig'iladi. Mevalar odatda ertalab yoki kechqurun yig'ib olinadi, kun isiganda yig'ilsa, quruq mevalarning urug'i sochilib ketishi mumkin. Mevalar turiga qarab tayyorlanadi. Ba'zilar qo'l bilan bitta-bitta uzib olinadi, boshqalari esa tayoq bilan qoqiladi.<sup>13</sup>

Urug'lar ham turli usullar bilan tayyorlanadi. Ba'zi urug'lar maxsus asbob bilan mevadan ajratib olinadi (bodomo urug'i va boshqalar). Mayda meva va urug'lar esa urug'lar etilganidan so'ng yoki etilishi oldida o'simlikni o'rib quritib, so'ngra xirmonda yanchib tozalanadi (fenxel, arbabodiyon va kashnich mevalari, xantal urug'i va boshqalar).

*Yer ostki organlar (ildiz, ildizpoya, tuganak na piyozlar)* odatda o'simlik uyquga kirgan vaqtida – erta bahorda yoki kech kuzda tayyorlanadi. Ba'zi er ostki organlarni o'simlik gullab bo'lganidan so'ng yig'iladi. Chunki ularning ba'zilarini o'sayotgan erida baland bo'yli begona o'simliklar orasidan topish qiyin (solab turlari va boshqalar), ba'zilarini qurib qolgan poyalarni esa shamol sindirib uchirib ketadi (yetmak va boshqalar).

Yer ostki organlarni belkurak, ketmon va boshqa asboblarni bilan qazib olinadi. Bir joyni o'zida usimlik ko'p hamda er ostki organlari yaxshi taraqqiy etgan bo'lsa, u holda traktor bilan kovlab olinadi (qizilmiya va boshqalar). Yig'ilgan er ostki organlarni loy, tuproq, qum, barg va poyalardan tozalab (ba'zilarini suvda yuvib), quritish uchun mayda bo'laklarga qirg'iladi.

O'simlikning er ustki qismlarini, masalan bargi, guli va boshqa qismlarini shudring ko'tarilgandan so'ng havo ochik paytida yig'ib olinadi. Yomg'ir yoki ertalabki shudring ko'tarilmasdan oldin yig'ilgan o'simliklarni quritish qiyin, ular qurtilganida ham qorayib ketadi. Yig'ilgan dorivor mahsulotlarni savatlarga bosib yoki bir epra uyub qo'yib bo'lmaydi, chunki namlik va issiqlik (qizish yoki quyosh harorati) ta'sirida o'simlik to'qimalarida chuqur biokimyoviy o'zgarishlar ro'y beradi, organizmga ta'sir etuvchi kimyoviy birikmalar parchalanib ketib, dorivor mahsulot o'z qimmatini yo'qotadi.

### **DORIVOR MAHSULOTLARNI QURITISH**

Tayyorlangan dorivor mahsulotlarni boshqa o'simlik aralashmalari, loy, tuproq, qum va boshqalardan tozalangandan so'ng tezda quritishga kirishiladi.

Quritishning eng oddiy va oson usuli tabiiy sharoitda, ya'ni ochiq havoda quritishdir. Lekin o'simliklarning er ustki qismlarini (po'stloq, meva va urug'laridan tashqari) ochiq havoda, quyoshda qurutib bo'lmaydi. Aks holda o'simlikning er ustki organlari hujayralaridagi yashil rang beruvchi xlorofill hamda gul qismlaridagi rang beruvchi pigmentlar parchalanib ketib, poya, barg va qisman gullar sarg'ayib (ko'pincha gullar rangsizlanib) qoladi. Xlorofill pigmenti parchalanishi bilan birga o'simlik tarkibidagi boshqa kimyoviy birikmalar ham gidrolizlanishi mumkin. Shuning uchun ham odatda quyosh issig'ida faqat er ostki organlar, po'stloq, meva va urug'lar quritiladi. O'simlikning er ustki qismlari (poya, barg va gullar) maxsus qurilgan bostirma, shiypon yoki cherdaklarda quritiladi. Bu joylar toza va shamol o'tib turadigan bo'lishi kerak. Dorivor mahsulotlar maxsus ishlangan stelajlarga yupqa qilib yoyiladi.

Meva quritiladigan quritgichlarni ham dorivor mahsulotlarni quritishga moslashtirish mumkin. Bundan tashqari, ho'l mevalarni, masalan, chernika, malina, klyukvani rus pechida (non yopib bo'lgandan so'ng) quritisa ham bo'ladi.

So'nggi yillarda dorivor o'simlik mahsulotlarini tabiiy usulda quritish bilan bir qatorda turli tipdagi quritgichlarda sun'iy quritish keng qo'llanilmoqda.

Ayrim dorivor o'simliklar tarkibidagi ta'sirchan qimmatbaho kimyoviy birikmalar (masalan, glikozidlar) tabiiy ravishda uzoq<sup>13</sup> quritilganda parchalanib ketishi mumkin. Shuning uchun ularni sun'iy ravishda quritgan yaxshi. Bundan tashqari, sun'iy ravishda quritilganda dorivor mahsulot tez quriydi va sifatli bo'ladi.

Tarkibida efir moyi bo'lgan dorivor mahsulotlar 25-30<sup>0</sup> da, alkaloidlar, glikozidlar va boshqa moddalar bo'lgan dorivor mahsulotlar 50-60<sup>0</sup> da quritilishini esda tutish kerak. Mahsulotni juda quritib yubormaslik lozim. Aks holda u kukunga aylanib ketadi.

## **DORIVOR MAHSULOTLARNI STANDART HOLIGA KELTIRISH**

Dorivor mahsulotlar qabul punktlariga tayyorlov idoralari, jamoalar va ayrim shaxslar tomonidan turli ko'rinishda, ya'ni standart talabiga javob bermaydigan holatda kelishi mumkin. Shuning uchun mahsulotlarni idishlarga joylashtirib (qadoqlab), omborlarga jo'natishdan oldin ularni ma'lum talablarga javob beradigan holda keltirish zarur.

Dorivor mahsulotlarni standart holiga keltirish uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. Aralashmalardan tozalash. Tayyorlovchilarning tajribasizligi yoki shoshilib va pala-partish ishlashlari sababli qabul punktlariga topshirilgan dorivor mahsulotlar tarkibida turli aralashmalar bo'lishi mumkin. Ular organik va mineral aralashmalarga bo'linadi.

Organik aralashmalarga dorivor o'simlikka o'xshagan yoki uning yonida o'sadigan boshqa o'simliklar qismlari, xashak, somon, ko'mir va boshqalar hamda shu dorivor o'simlikning mahsulot bo'lmagan qismi kiradi. Mineral aralashmalar odatda kesak, tosh, tuproq, qum hamda shisha, sopol, chinni bo'lakchalaridan iborat bo'ladi.

Mahsulotni standart holatga keltirish uchun uni aralashmalardan tozalash kerak. Buning uchun u mashinalar yordamida yoki qo'lda elanib, aralashmalardan tozalanadi va navlapga ajratiladi, ayrim hollarda esa (o'simlikning er ustki qismidan gul va barglarning aralashmasini ajratib olish uchun) mahsulot avval mashinalarda yanchilib, so'ngra elanadi, poya va shoxlar ajratib tashlanadi.

2. Mahsulotning nuqsonli qismlarini ajratish. Agarda dorivor mahsulot yomg'ir yog'ib turgan vaqtda, yomg'ir yog'ib o'tgan, lekin o'simlik hali qurimagan va havoda namlik ko'p vaqtda, o'simlikdan ertalabki shudring hali ko'tarilmaganda tayyorlansa, u quritish paytida sarg'ayib yoki qorayib qolishi mumkin. Mahsulot to'g'ri, havo quruq vaqtda tayyorlansa, lekin noto'g'ri quritilsa ham ular sarg'ayib yoki qorayib qolishi mumkin. Bu nuqsonlar tegishli GOST larda ma'lum miqdorda ruhsat etiladi. Agar ular ko'rsatilgan miqdordan ortiq bulsa, bu mahsulot sifatiga ta'sir kiladi. Shuning uchun dorivor mahsulot navlarga ajratilib, qoraygan va sarg'aygan qismlardan tozalanadi.

3. Mahsulotni maydalangan qismdan tozalash. Dorivor mahsulot tarkibida maydalangan qismning miqdori tegishli GOST da chegaralangan bo'ladi. Chunki mahsulotni tarkibida maydalangan qismi me'yoridan ortiqcha bo'lsa, uning sifati past hisoblanadi. Shly sababli dorivor mahsulotni standart talabiga javob beradigan qilish maqsadida uni mayda qismidan tozalanadi. Buning uchun mahsulot tegishli GOST talabiga binoan kerakli teshikli elaklarda elanadi.

4. Mahsulotni qayta quritish. Qabul punktlarida qabul qilib olingan mahsulotlar, ko'pincha, etarli darajada quritilmagan bo'ladi. Bundan tashqari, bu mahsulotlar (ayniqsa gigroskopik mahsulotlar) saqlash davrida (tayyorlovchilar zudlik bilan qabul punktlariga topshirmaganlarida) va qabul punktlariga olib ketilayotgan vaqtda sharoitga qarab bir oz namlanib qolishi mumkin. Xatto, keyinchalik ham, bu mahsulotlar omborlarda yoki dorixonona va laboratoriyalarda saqlanish davrida mog'orlab, sarg'ayib yoki qorayib o'z sifatini yo'qotadi. Mahsulotning qimmatini saqlab qolish uchun tegishli GOST da ko'rsatilgan namlik qolguniga qadar qayta quritiladi.

5. Mahsulotni maydalash. Dorixonaga ko'pchilik mahsulotlar maydalangan (mayda bo'laklarga qirqilgan yoki kukun-poroshok) holda yuboriladi. Mahsulotlar faqat omborlarda tezda buzilib, o'z sifatini yo'qotmasligi uchun butunligicha, maydalanmasdan saqlanadi.

Mahsulotlarni maydalash (barglarni qirqish, er ustki qismini yanchish, ildiz va ildizpoyalarni kubsimon qilib qirqish, kukun–poroshok holiga keltirish) mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Har bir mahsulotni qay darajada maydalash kerakligi tegishli standartlar (GOST) da ko'rsatilgan bo'lib, bu ishlar markazlashtirilgan va moslangan qabul punktlarida bajariladi.

## **DORIVOR MAHSULOTLARNI IDISHLARGA JOYLASHTIRISH (QADOQLASH)**

Standart holiga keltirilgan dorivor mahsulotlar turiga karab har xil qadoqlanadi. Dorivor mahsulotlarni idishlarga joylashtirish (qadoqlash) ularni tashqi ta'sirlardan va to'kilish, sochilishdan, ishlatiladigan muddati ichida uning sifatini va tashqi ko'rinishini o'zgartirmasdan saqlanishini hamda transport vositalarida jo'natish va tashishni ta'minlashi lozim.

Mahsulotlarni joylashtirishga qoplar, xaltachalar (paketlar), taxtadan va karton qog'ozdan yasalgan yashiklar va kutichalar hamda toylash uchun yasalgan yashiklar va boshqalar ishlatiladi. Ishlatiladigan idishlar quruq, toza, hech qanday hidi bo'lmasligi hamda har bir partiya uchun bir xil bo'lishi kerak.

Mahsulotlar joylashtiriladigan idishlar, idishdagi mahsulotlarning og'irligi dorivor mahsulotlarning turiga qarab aniqlanadi va ular tegishli me'yoriy-texnik hujjatlar (MTX) da masalan farmakopeya maqolasi (FS) va GOST larda ko'rsatiladi: Quritilgan dorivor mahsulotlarni qadoqlash uchun quyidagi idishlardan foydalaniladi:

***GOST 19317-73 bo'yicha matodan tikilgan qoplar yoki GOST 18225-72 bo'yicha zig'ir-jut-kanop tolalaridan to'qilgan qoplar.*** Bu qoplar bir yoki ikki qavat holida ishlatilishi mumkin. Qoplarning og'zi qo'l (GOST 17308-85 ga binoan kanop ip bilan) yoki mashina (GOST 14061-85 ga binoan zig'ir tolasidan qilingan ip bilan) yordamida tikiladi. Qopga solingan mahsulot og'irligi 40 kg dan oshmasligi kerak.

***GOST 2226-75 bo'yicha ko'p qavatli qog'oz qoplar va GOST 24370-80 bo'yicha ikki yoki bir qavatli qog'ozli xaltalar.*** Mahsulot bilan to'ldirilgan qog'oz qoplar, xaltalar og'zi yuqorida ko'rsatilgan iplar bilan qo'l yoki mashina yordamida tikiladi.

Bir yoki ikki qavat xaltalar tayyorlash uchun maxsus qog'ozlar (GOST 2229-81 e va GOST 1760-81 ga binoan) ishlatiladi. Qog'oz qopga 15 kg, qog'oz xaltaga 5 kg dan ortiq mahsulot solinmasligi kerak.

***Matodan tikilgan GOST 19298-73 bo'yicha uzun va olti qirrali yashik shaklli toylar.*** Toylarga 50 kg dan ortiq bo'lmagan miqdorda dorivor mahsulot solinadi va ularning og'zi yuqorida aytib o'tilgan, tegishli GOST larda ko'rsatilgan iplar bilan qo'l yoki mashina yordamida tikiladi. Ba'zan usti mato bilan o'rab tikilmagan toylar ham qo'llaniladi.

***Yog'ochdan GOST 5959-80 bo'yicha yasalgan yashiklar.*** Yashiklar ichiga tegishli GOST larda ko'rsatilgan B - markali qog'oz (GOST 8273-75) yoki qop tikiladigan qog'oz (GOST 2228-81) solib, so'ngra dorivor mahsulot bilan to'ldiriladi. Yog'och yashiklarga 30 kg gacha og'irlikda dorivor mahsulot solinadi. Keyin uning qopqog'i mixlanadi.

***Kartondan GOST 15629-83 bo'yicha yasalgan yashiklar.*** Bu yashiklarni dorivor mahsulotlar bilan to'ldirishdan avval ularni ichiga tegishli qog'ozlar solinadi. Oxirida karton yashiklar ustiga maxsus elim qog'oz lentalar yopishtiriladi yoki ikki eridan

po'lat sim bilan o'raladi (GOST 32822-74). Karton yashiklarga solingan dorivor maxsulot og'irligi 25 kg dan oshmasligi lozim.

Dorivor mahsulotlarni joylash uchun kerakli bo'lgan idishlar bu mahsulotlarning turiga va hususiyatiga qarab tegishli GOST ga binoan tanlanadi. Masalan:

- o'simliklarning er ustki qismi, bargi, po'stlog'i, ba'zan gullari, ildizi va ildizpoyalarini odatda oldin preslab, so'ngra maxsus toyldaydigan yashiklarga solinadi. Bu usul qopga yoki yashiklarga solib, joylashtirishga nisbatan arzon tushadi hamda tashish yoki saqlash davrida dorivor mahsulotni issiqdan, namlikdan va quyosh ta'siridan yaxshi himoya qiladi.

- quritilgan xo'l mevalar, shoxkuya hamda ayrim qimmatbaho va og'ir mahsulotlar ikki qavat qilib tikilgan qoplarda saqlanadi.

- toylab bo'lmaydigan engil dorivor mahsulotlar ikki qavatli katta qoplarga, tez maydalanib ketadigan moychechak, marvaridgul gullari, qarag'ay kurtagi va boshqalar ichiga zich qilib bir necha qavat qog'oz solingan yashiklarga joylashtiriladi.

Dorivor mahsulotlarni aholiga sotish uchun qadoqlashda GOST 64-026-87 bo'yicha qog'ozdan (kartondan) yasalgan qutichalar, qog'oz va poliyetilen xaltachalar va boshqalardan foydalaniladi.

Qanday idishlarga va qanchadan dorivor mahsulot qadoqlanishi, xuddi shuningdek xaltachalar va qutichalar og'zi qanday elim bilan elimlanishi, dorixon va omborlarga jo'natish uchun yashiklarga qancha xaltacha va qutichalar joylashtirilishi kerakligi tegishli me'yoriy-texnik hujjatlarda ko'rsatiladi:

Dorivor mahsulot idishlarga joylashtirib bo'lingandan so'ng, ular joylashtirilgan idish ustiga shu mahsulot to'g'risida to'liq ma'lumot yoziladi (tamg'alanadi) yoki tegishli yorliq osiladi.

Sotish uchun dorixonalarga chiqariladigan dorivor mahsulotlar idishi (karton quticha, poliyetilen xaltacha, yashik va boshqalar) ustiga GOST 17768-80 ga binoan quyidagilar yozilgan bo'lishi kerak:

- vazirlik, tayyorlagan korxon va uni tovar belgisi; mahsulotning lotin, rus va o'zbek tilidagi nomi; namlikni eng ko'p ruhsat etiladigan holatidagi mahsulot og'irligi, ishlatish usuli, saqlash sharoiti, hisobga olingan nomeri, seriya nomeri, saqlash muddati va bahosi.

Transport vositasida jo'natiladigan dorivor mahsulot idishi ustiga GOST 14192-77 buyicha quyidagilar yozilgan bo'lishi kerak: vazirlik (muassasa, boshqarma), jo'natgan korxananing nomi, mahsulot nomi, namlikni eng ko'p ruhsat etiladigan holatdagi mahsulotni sof (netto) og'irligi, idishi bilan birgalikdagi (brutto) og'irligi, tayyorlangan yili va oyi, partiya nomeri, ko'rsatilgan mahsulotning me'yoriy-texnik hujjati (MTX)ning darajasi va nomeri.

### **MAHSULOTNI TRANSPORT VOSITALARIDA JO'NATISH**

Tayyorlangan, quritilgan va idishlarga joylashtirilgan mahsulotlar o'z vaqtida saqlanadigan va ishlatiladigan joylarga jo'natilishi lozim. Agarda mahsulotlarni transport vositasi orqali jo'natishda tegishli qoidalarga rioya qilinmasa, u yulda namlanishi, maydalanishi va boshqa sabablarga ko'ra o'z sifatini yo'qotishi mumkin.

Dorivor mahsulotlar GOST 14192-77 va GOST 17768-80 larga binoan quruq, toza, hech qanday hidi bo'lmagan, usti yopiq transport vositalarida jo'natiladi. Zaharli, kuchli ta'sirga ega hamda o'zida efir moyi saqlovchi dorivor mahsulotlarni boshqa

mahsulotlardan alohida boshqa transport vositalarida (ayrim avtomashina, ayrim temiryo'l vagoni va boshqalar) yuborilishi lozim.

### **DORIVOR MAHSULOTLARNI SAQLASH**

Tayyorlangan dorivor mahsulotlar ishlatilishiga qadar ma'lum vaqt ichida ko'p (markazlashtirilgan ombor, zavod, fabrika va laboratoriya omborlari) yoki oz (dorixonalarda) miqdorda saqlanadi. Shu davrda dorivor mahsulot o'z sifati va qimmatini yo'qotmasligi uchun ma'lum qoidalarga rioya qilishga to'g'ri keladi.

Dorivor mahsulotlar saqlanadigan bino va xonalar toza, quruq va shamol o'tib turadigan bo'lishi lozim. Mahsulotlarga quyosh tushmasligi va xonaning poli taxtadan, devorlari oqlangan bo'lishi shart.

Dorivor mahsulotlar mahsus stelaj yoki so'rilar ustiga qo'yiladi. So'rilarining balandligi 4 m gacha, eni 1,5 m bo'lishi, devorgacha masofa 25 sm, so'rilarining o'zaro oralig'i 50 sm va poldan balandligi 15-20 sm dan kam bo'lmasligi kerak.

Dorivor mahsulotlar saqlanadigan xonalar har kuni tozalanib turilishi, xona harorati 10-15° bo'lishi lozim.

Dorivor mahsulotlarni saqlash uchun guruhlarga bo'lish kerak. Zaharli va kuchli ta'sir etuvchi dorivor mahsulotlar, masalan, belladonna, angishvonagul, marvaridgul, bangidevona, mingdevona va boshqalar alohida xonalarda saqlanishi lozim. Shuningdek tarkibida efir moyi bo'lgan dorivor mahsulotlar ham iloji boricha alohida xonalarda yoki boshqa dorivor mahsulotlardan uzoqroq joyda saqlanishi lozim.

Quritilgan mevalar, masalan, malina, chernika va boshqalarni havo o'tib turadigan joylarda saqlash yoki mahsulot miqdori kam bo'lsa osib qo'yish kerak. Bu mevalarga hashoratlar va kemiruvchilar o'ch bo'ladi. Shu sababli tez qurtlab ketishi mumkin.

Har bir dorivor mahsulot ustiga yorliq (birka) osib qo'yiladi. Yorliqqa mahsulot nomi, qachon, qayerda, kim tayyorlagani, omborga qachon keltirilgani yozilgan bo'ladi.

Zaharli dorivor mahsulotlar ustiga umumiy yorliqdan tashqari yana pushti rangli yorliq ham osib qo'yiladi.

Dorivor mahsulotlarni saqlash muddati har xil bo'lib bu muddat dorivor mahsulotlar tarkibidagi kimyoviy birikmalar tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Ofitsinal dorivor mahsulotlarning (Davlat farmakopeyasiga kiritilgan) saqlash muddatini Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydi. Davlat farmakopeyasiga kirmagan dorivor mahsulotlarni Davlat farmakopeya qo'mitasi ko'rsatmasiga binoan har yili bir marta ko'rikdan o'tkaziladi.

Dorivor mahsulotlarning saqlash muddati tamom bo'lganidan so'ng tarkibidagi ta'sirchan kimyoviy birikmalar miqdori yoki ta'sir etish kuchi aniqlanadi. Tahlil natijasi standart talabiga to'g'ri kelmasa, mahsulot tashlab yuboriladi. Agar dorivor mahsulotlarni saqlash davrida biror nuqson sezilsa, dorivor mahsulotni saqlash muddatini kutib o'tirmasdan tezda tahlil qilinadi.

### **Tibbiy/farmakognoziya atama**

1. **Dorivor o'simlik (Medicinal plant)** – tibbiyotda dori sifatida ishlatiladigan o'simlik.
2. **Faol modda (Active compound)** – dorivor o'simlikdagi terapevtik ta'sir ko'rsatadigan birikma.
3. **Quritish (Drying)** – o'simlikdagi suvni olib tashlash jarayoni.
4. **Saqlash muddati (Shelf life)** – mahsulot sifatini yo'qotmasdan saqlanish vaqti.

5. **Standartizatsiya (Standardization)** – dorivor o‘simlik sifatini belgilangan me‘yorlarga moslashtirish.
6. **Zaharlanish (Toxicity)** – noto‘g‘ri saqlash yoki ishlatish natijasida zararli ta‘sir.
7. **Preparat (Preparation)** – dorivor o‘simlikdan tayyorlangan tibbiy mahsulot.
8. **Havoning namligi (Humidity)** – saqlash sharoitini belgilovchi muhim omil.
9. **Harorat nazorati (Temperature control)** – faol moddalarni saqlash uchun muhim shart.
10. **Toksikologiya (Toxicology)** – dorivor o‘simliklarning zararli ta‘sirini o‘rganadigan fan.

**“Aqliy hujum” usuli.- Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.**

Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.

Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

**“Insert” – matn bilan ishlash jarayonida ta‘lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta‘minlovchi kuchli asbob.**

**Insert-** bu, o‘zlashtirishning majmualiy vazifalarini yechish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir.

(√) - meni bilganlarga mos;

(+) – men uchun yangi axborot;

(–) - meni bilganlarimga, zid;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Aniqlashim kerak.

**Nazorat savollari:**

1. Dorivor mahsulotlar qabul punktlariga tayyorlov nimalardan iborat?
2. Dorivor mahsulotlarni kuritish kanday usullardan iborat?
3. Tibbiyotda va farmatsiyada tarkibida kishi organizmiga ta‘sir etuvchi kimyoviy moddasi bo‘lgan dorivor o‘simlik organlari kaysilar?
4. Dorivor o‘simliklarni o‘rganishda nimalarga etibor berish kerak?
5. Dorivor mahsulotlar qabul punktlariga tayyorlov idoralari?

## MAVZUGA OID TESTLAR

- 1. Dorivor o'simlik mahsulotlarini saqlashning asosiy maqsadi nima?**
  - A) Rangini o'zgartirish
  - B) Faol moddalarning saqlanishini ta'minlash
  - C) Faqat hajmini kamaytirish
  - D) Atrof-muhitni ifloslantirish**Javob: B**
- 2. Dorivor o'simliklarni saqlash qayerda amalga oshiriladi?**
  - A) Nam va iliq joyda
  - B) Quritilgan, salqin va qorong'i joyda
  - C) To'g'ridan-to'g'ri quyoshda
  - D) Ochiq havoda**Javob: B**
- 3. Dorivor o'simliklarni noto'g'ri saqlash natijasi nima bo'ladi?**
  - A) Faol moddalar ortadi
  - B) Faol modda kamayadi, sifati yomonlashadi
  - C) O'simliklar yanada samarali bo'ladi
  - D) Rang o'zgaradi, lekin sifat o'zgarishsiz qoladi**Javob: B**
- 4. Qaysi idishda dorivor o'simlik mahsulotlarini saqlash eng ma'qul?**
  - A) Qog'oz qop, havosiz yoki nam joy
  - B) Shisha, metall yoki qalin qoplarda, quruq va salqin joyda
  - C) Ochiq havoda plastik idishda
  - D) Ochiq idishda, quyoshda**Javob: B**
- 5. Dorivor o'simliklarni saqlash muddati odatda nimaga bog'liq?**
  - A) Faol modda miqdori va saqlash sharoiti
  - B) Faqat o'simlik turi
  - C) Faqat idish materiali
  - D) Faqat yil fasli**Javob: A**
- 6. Quritilgan o'simlik barglari qancha muddatgacha saqlanishi mumkin?**
  - A) 1-2 oy
  - B) 1-2 yil
  - C) 5-6 yil
  - D) 10 yil**Javob: B**
- 7. Dorivor o'simliklarni saqlash paytida nimaga e'tibor berish kerak?**
  - A) Harorat, namlik va yorug'likka
  - B) Faqat yorug'likka
  - C) Faqat havoga
  - D) E'tibor shart emas**Javob: A**
- 8. Qaysi saqlash sharoiti faol moddalarni ko'p yo'qotadi?**
  - A) Salqin, quruq, qorong'i joy
  - B) Nam va issiq joy
  - C) Havosi yaxshi, qorong'i joy
  - D) Havo oqimi bo'lgan salqin xona**Javob: B**
- 9. Dorivor mahsulotlarning saqlash muddati tugagach nima qilish kerak?**
  - A) Shunchaki ishlatish

- B) Yangi mahsulot bilan almashtirish yoki utilizatsiya qilish
- C) Idishda qoldirish
- D) Suvga tashlash

**Javob: B**

**10. Dorivor o‘simliklarni saqlash qoidalari nima uchun muhim?**

- A) Faol moddalarni maksimal darajada saqlash, sifatni himoya qilish
- B) Faqat dekorativ ko‘rinish uchun
- C) Faqat laboratoriya tajribalari uchun
- D) Rangini saqlash uchun

**Javob: A**

## Adabiyotlar (o‘zbekcha)

5. **Xolmatov H.X.** – *Farmakognoziya 1-qism* — Dorivor o‘simliklarni yig‘ish, quritish va saqlash.
6. **Ahmedov O.A.** – *Farmakognoziya va dorivor o‘simliklar* — Faol moddalar va saqlash usullari.
7. **Musayeva N.A.** – *Dorivor o‘simliklar texnologiyasi* — Quritish va saqlash texnologiyasi.
8. **Kodirov N.D.** – *Farmakognoziya (o‘quv qo‘llanma)* — Dorivor o‘simliklarni ishlash va saqlash.
9. **Toshkent farmatsevtika instituti** – *Farmakognoziyaga kirish*
10. **Samarkand davlat tibbiyot instituti** – *Dorivor o‘simliklarni saqlash va tayyorlash*
11. **Xolmatov H.X., Habibov Z.H.** – *Farmakognoziya va preparatlar tayyorlash*
12. **Mahalliy ilmiy maqolalar to‘plami** – *Dorivor o‘simlik mahsulotlarini saqlash*
13. **O‘zbekiston farmatsevtika va tibbiyot jurnali** — Dorivor o‘simliklarni saqlash amaliyoti.
14. **Metodik qo‘llanmalar (Toshkent, Samarqand, Namangan)** — dorivor mahsulotlarni saqlash qoidalari va muddati.

<b>2.6.O‘quv moduliga ajratilgan soat 2</b>	<b>Farmakologiya fani. Doza, uning turlari.</b>
---	---

### Ma‘ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	<b>Nazariy mashg‘ulot</b>
<b>Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi</b> 13	1 Farmakologiya fanining qisqacha tarixi. 2 Farmako-logik va Farmakopeya qo‘mtalari alohida faoliyati. 3. Doza tushunchasi va uning i. 4. Dorilar bilan davolash turlari.
<b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b>	
<b>1.Ta’limiy :</b>	

<p>Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash  Amaliy ko'nikmalarni egallash  Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash  Deontologik tarbiyaning shakllanishi  Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash  <b>2.Tarbiyaviy maqsadi</b>  Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish  Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish  O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash  Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p><b>Pedagogik vazifalar</b>  O'zbekistonda farmakognoziya fanining rivojlanishi. Uning farmatsiya va tibbiyotdagi ahamiyati. Yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ulardan yangi dorilarni ajratib olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari. Respublikada dorivor o'simliklar va ularning maxsulotlarini yig'ishni tashkil etish. Yig'ishning umumiy va o'ziga xos qoida va tartibi.</p>	<p><b>O'quv faoliyatini natijalari:</b>  Tinglovchi: Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'ziga xos quritish va buning ahamiyati.O'simlik mahsulotlarini mezonlash, joylash va yorliqlashtirish. Dorivor o'simlik mahsulotlarini saqlash qoidasi, muddati. Ularga tashqi muhitning ta'siri. O'simlik mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurashish tadbirlari. Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilib tekshirish usullari. Fito choylarning tarkibi va ularni organizmga ta'siri.</p>
O'qitish metodlari	“Baxs munozara” “Qaynoq kartoshka” usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish</b>  <b>10 daqiqqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b>  1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida</p>	

	<p>tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o‘tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo‘llaniladigan usullarni aytib o‘yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p><b>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O‘qitishning noan‘anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarini tekshirish maqsadida”Aqliy hujum” metodi bo‘yicha savol javob qilinadi.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o‘qituvchi tomonidan taqdimot “Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi. <b>O‘qitishning noan‘anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar mavzu bo‘yicha bilimi</b> mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarini tekshirish maqsadida” Aqliy hujum”metodi bo‘yicha savol javob qilinadi. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar.”Mozaika” sxemasi bo‘yicha tinglovchilar bilimi mustahkamlanadi.</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p><b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e‘lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: <b>Farmakologiya fani.</b></p> <p><b>Doza, uning turlari</b> mavzusini o‘qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.Natsionalnaya programma po borbe protiv tabaka v Respublike Uzbekistan na 2008 – 2012 gg. Tashkent 2007 g.</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

	2.V.YE.AvakovO.V. ChurilovaA.M.Sharipov“Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.	
--	---	--

### **Mavzu: Farmakologiya fani. Doza, uning turlari.**

Dars rejasi:

- 1 Farmakologiya fanining qisqacha tarixi.
- 2 Farmako-logik va Farmakopeya qo‘mitalari alohida faoliyati.
3. Doza tushunchasi va uning turlari.
4. Dorilar bilan davolash turlari.

Farmakologiya (yunon.«pharmakon» - dori,«logos»fan, o‘rganuvchi) —odam va hayvonlar organizmiga dorilar yuborilgandan keyin unda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni o‘rganuvchi fan. Shu bilan birga farmakologiya dori moddalarni maqsadga muvofiq yo‘naltirish yo‘li bilan sintezlab olish yo‘lini ishlab chiqa-ruvchi fan hamdir.

Farmakologiya fanining qisqacha tarixiga nazar solsak, unga odamzod taratilgan davrdanoq asos solingan, chunki odamzod paydo bo‘libdiki, ular yirtqich hayvonlarga, yog‘inlarga, turli tabiat hodisalari(yer qimirlashi, tog‘ko‘chishi, suv toshishi, bo‘ron, dovul va boshq.) ga duch kelishgan, ularni ilon, chayonlar chaqqan. Buning natijasida inson turli xil jarohatlar olgan va shu bois kasalliklar yuzaga kelgan. Bu jarrohat va xastaliklarning oldini olish hamda davolashning ikki yo‘li bor edi.

1Turli xil ilohiyatlar (quyosh, oy, haykallar, otashlar va boshq.)ga sig‘inish va ulardan najot izlash.

2.O‘zlarini o‘rab olgan tabiat (o‘simliklar, hayvonot olami, buloqlar va ma’danlar)dan shifo va dori-darmonlar izlash edi.

Ikkinchiyo‘ldagi izlanishlar va erishilgan tajribalar avloddan avlodga o‘tishi farmakologogiya fanining qisqacha tarixini tashkil etadi. Eramizdan bir necha ming yillar ilgargi turli manbalardagi dalillar bunga asos bo‘ladi. Masalan, eramizdan IV asr avval yozib qoldirilgan «Ayur-Veda», «Jud-Shi» kitoblari va papirus qog‘ozlaridagi ma’lumotlar hind va tibet tibbiyoti asosini tashkil etadi. Bu kitoblarda bir necha yuzlab dorivor o‘simliklar nomi, botanik ta’rifi, ularni tayyorlash davri va usullari, qo‘llanish usullari bayon etigan. Qadimgi yunon shifokorlaridan Buqrot (Gippokrat), Dioskorid-Ilar, Rim hokimi Jolinus (Galen) lar doridarmonlarning yarytilishi, ishlatilishi va dori moddalarga retsept yozish borasida katta ishlar qilishgan. Bu o‘rinda Gippokrat qasamyodini, galenli preparatlarini yuzaga<sup>3</sup>chiqarishini keltirib o‘tish yetarli bo‘lsa kerak. Bular hozirgi kunda ham tibbiyot, farmatsiya va farmakologiyaning asosini tashkil etadi. Bu dorilar, asosan, tabiiy yo‘ldagi kuzatuvlar asosida tanlab olingan. Masalan, yunon shifokorlaridan Melami Argoskiy chemeritianni yegan echkilarda ich ketishini qayd qilgan. Keyinchalik bu o‘simlik (hellebus niger) insonda ham shu maqsadda ishlatila boshlagan. XI asrda asrab cho‘ponlari qahva o‘simligini iste’mol

qilgan echkilarni tunlari uxlamay, chopib, sakrab yurishini qayd etishgan. So'ngra bu ta'sirlar insonda ham sinovdan o'tgan. Umuman olganda, hayvonlar o'z instinktiga muvofiq, ma'lum bir o'simliklarni tanlab iste'mol qiladi. Albatta, bunday dorilarni tanlab, turmushga tadbiq etish har doim ham o'zini oqlay olmagan. Ba'zan bir-biriga teskari ta'sirlar ham (bir o'simlik ustida) e'tirof etilgan. Lekin ming yillikli kuzatuvlar natijasida ma'lum o'simliklar muayyan kasalliklarga qarshi iste'mol qilina boshlagan. Bunday tanlashlar natijasida bazan zararli o'simliklar ham turmushga kirib qolgan. Hayotiy kuzatuvlar natijasida zaharli moddalar dorilar safidan chiqarilib yuborilgan Yuqoridagilarni inobatga olib, eramizdan avvalgi tabiblar quyidagi naqlni ko'p ishlatishgan, ya'ni «natura sanat, medicus curat». Bu «bemorni tabiatni o'zi davolaydi, tabiblar esa, unga yordam beradi» degani. Chunki ko'p kasalliklarning sababi bu davrdan hali aniq emas edi. Shunga yarasha, kasalliklarni davolashda ishlatadigan dorilarni: giyohlar, ma'danlar, suvlar va boshqalar ta'siri to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lmagan.

Yeramizdan 460 yil avval yashab ijod etgan yunon olimi Gippokrat birinchilardan bo'lib, o'z davrigacha ishlatilib kelingan dorivor moddalarni ma'lum tizimga soladi. Ungacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda kasallik kelib chiqishida, yana tuzilishida ishtirok etgan to'rt modda (olov, suv, havo va yer)ning o'zaro munosabatining buzilishi katta rol o'ynaydi. Mana shu to'rt moddaga yarasha bemorlarda to'rt sifat belgilari yuzaga chiqishi mumkin, ya'ni quruq, namli, issiq va sovuq belgilari. Unga kerakli ishlatiladigan dorilar ham to'rt sifat belgisiga ega bo'ladi. Shu bilan birga Gippokrat fikricha, yanada 4 suyuqlik (qon, shillq, sariq va qora o't safro) chiqishi va sifatning o'zgarishi turli xil kasalliklarni yuzaga keltiradi. Shularni inobatga olib, Gippokrat kasalliklarni dorilar davolaydi, dorilar ta'sir qilmaganiga temir ta'sir etadi, temir ta'sir etmaganiga esa, olov ta'sir etadi, deb hisoblaydi, deya xulosa chiqargan.

Yeramizdan 130-200 yil avval Gippokrat ta'limotini italiyalik olim Galen davom ettiradi. U kasallikda qayd qilinayotgan belgilarga qarama-qarshi ta'sirga ega moddalar bilan davolash tamoyilini o'rta tashlaydi. Masalan, ich ketganda ichni qotiruvchi moddalar va boshqalar. Shuningdek, u xastalikni shu kasalning o'ziga mos moddalari, belgilari bilan davolash kerak, deydi. Shu yo'l bilan u farmakologiyada Galen preparatlarini yuzaga chiqaradi va ular hozirgi kungacha uning nomi bilan ishlatilib kelmoqda.

Yeramizning 500-yiliga kelib, Rim saltanati inqirozga uchraydi va arablar hakmronligi kuchayib boradi. Tib-biyotda ham bu yo'nalish o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

Tibbiyotni, shu jumladan, farmakologiyaning rivojlanishida hozirgi O'zbekiston hududida yashab ijod etgan allomalarimiz ham o'ziga xos hissa qo'shishgan

Shu o'rinda sharqning buyuk tabib va ulamolari ibn Abbos, Abu Bakr Ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarni keltirishimiz mumkin.

Ibn Abbos yangi dorilarni avval hayvonlarda sinab ko'rgan. Abu Bakr Ar-Roziy esa, davolash, jarrohlik, farmakognoziya, farmakologiya, psixologiya borasidagi ilmlarga yangi g'oya va ixtirolar kiritishda, ayniqsa, «kasalliklar tarixini» birinchi bo'lib yuzaga chiqarishga asos soldi. Abu Rayhon Beruniy 4,5 mingdan ortiq o'simliklar, ma'danlar, hayvonlar va ulardan olinadigan dorilar va ozuqalarga izoh berishda sharq tabobatining ilk manbalarini keltirgan.

O'zigacha o'tgan barcha tabib va hakamlarning boy tajribalarini o'ta sinchkovlik bilan olib brogan kuza-tuvlariga qo'shib jamlagan buyuk olim Abu Ali ibn Sino farmakologiya va uning rivojiga juda katta hissa qo'shdi. Uning «Tib qonunlari», «Kitob ush shifo» va «Kitob al-kalbiya» asarlari, nafaqat, O'rta Osiyoda, balki, butun Yevropada keyingi besh asr davomida shifokorlarni, farmatsevtlarni, farmakologlarni va umuman, tibbiyot xodimlarini kundalik qo'llanmasiga aylanib qoldi. Buyuk allomalarimiz ishlarini keyingi yillarda ularning shogirlari va avlodlari davom ettirib, turli xil yangiliklar yaratildi. Bularga Yusuf Ilohiyni, Ismoil Jurjoniy, Umar Chagminiy, Najibuddin Samarqandiy, Muhammad Yusufiy, Davoiy, Sayyid Muhammad hazrat, Shaxobiddin ibn Abdulkarimni keltirish mumkin. Shunday qilib, farmakologiya fani XIX asrgacha empirik yo'l bilan rivojlanib keldi, chunki bu davrgacha dorilarni bemorlarga ta'siri, asosan, kuzatuv yo'li bilan olib borildi. XIX asrdan boshlab eksperimental farmakologiya—ilmiy farmakologiya rivojlana boshladi. Rossiya dorishunosligining rivojlanishida ma'lum darajada hissasini qo'shgan olimlar ichida I.P.Pavlovning ijodi alohida ahamiyatga egadir. I.P.Pavlov S.P. Botkin klinikasida farmakologiyaga doir ilmiy ishlarni amalga oshiradi va yurak glyukozidlarini, yallig'lanishiga qarshi vositalarni, turli ionlarni biologic aktivligini o'rganishga asos soldi. I.P.Pavlov 1890-yildan 1895-yilgacha Sank-Peterburgda harbiy–tibbiyot akademiyasida farmakologiya kafedrasiga boshchilik qildi. I.P.Pavlov, nafaqat, farmakologiya, balki psixofarmakologiya ham asos soldi, bramidlar va kofeinni markaziy asab faoliyatiga ta'sirini laboratoriya hayvonlarida to'la o'rganib chiqdi. I.P.Pavlovning farmakologiyani rivojlantirishdagi ishlarini N.P.Kravkov davom ettiradi. U har tomonlama va izlanuvchi olim sifatida umumiy farmakologiya patologik farmakologiya dorilar toksikologiyasiga alohida ahamiyat beradi va «Farmakologiya asoslari» nomli ikki jilddan iborat darsli yozadi. Shunday qilib, N.P.Kravkov Rossiya farmakologlari maktabiga asos soldi. Uning rahbarligida ko'zga ko'ringan Rossiya farmakologlari (S.V.Anichkov, V.V.Zakusov, M.P.Nikolayev va boshq.) yetishib chiqdi. Shu bilan birga Rossiyada farmakologiyani rivojlanishiga ilg'or rus klinitsistlari (S.P.Botkin, N.I.Pirogov va boshq.) ham katta hissa qo'shishdi. Jumladan, N.I.Pirogov avval tajribalarda, so'ngra tibbiyot amaliyotida efirni va xloroformni sinovdan o'tkazib, yaradorlarda og'riqsizlantiruvchi vosita sifatida keng qo'llaydi. O'zbekistonda farmakologiya fani Toshkent tibbiyot institutining, unda farmakologiya kafedrasini va 1956-yildan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida O'simliklar moddolari kimyosi institutini tashkil qilinishi bilan rivojlanib bordi. Bunda Markelev va N.N.Kompansev, I.K.Komilov, S.Y.Yunusov, M.B.Sultonov, I.F.Fatxullayev, M.A.Azuzov, O.S.Sodiqov va boshqalarning roli kattadir. Hozirgi kunda farmakologiya fani bo'yicha respublikamizda 30 dan ortiq fan doktorlari va 100 dan ortiq fan nomzodlari yetishib chiqdi. Natijada, bir necha yangi moddalar kashf qilindi, ularni farmakologiyasi o'rganib chiqildi va amaliy tib-biyotga tatbiq qilindi.

Farmakologik dorilar organizmning turli a'zolari to'qima va hujayralarning funksiyasini o'zgartirishi mumkin. Dorilarni ta'sir doirasiga va ishlatilishiga qarab, uning turli xil yunalishlari kelib chiqadi. Avva-lo, farmakologiya fani nazariy fanlar—anatomiya, fi-ziologiya, patologik fiziologiya, biologok kimyo hamda amaliy fanlar—terapiya, pediatriya, jarrohlik va boshqalar bilan chambarchas bog'langan. Shuning

uchun farmakologiya orqali nazariy bilimlar amaliy tibbiyotda o'rin oladi va qaysi soha va yo'nalishda o'z ta'sirini ko'rsatishiga qarab turli yo'nalishlarini yuzaga chiqaradi: biokimyoviy farmakologiya, klinik farmakologiya, immunofarmakologiya, molekular farmakologiya, xronofarmakologiya, veterinar farmakologiya va boshqalar. Farmakologiya qaysi yo'nalishdan qat'iy nazar, uning an'anaviy va asosiy mazmunini, vazifasini farmakokinetika va farmakodinamika tashkil etadi.

Hozirgi kunda mustaqil respublikamizda Farmako-logik va Farmakopeya qo'mitalari alohida faoliyat ko'rsatib, farmakologiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi dori vositalari, tibbiyot uskunalari sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi va taniqli olimlarimiz rahbarligida farmakologiya fani rivojlanmoqda, tibbiyot amaliyotiga mahalliy xomashyolar asosida yangi dori-darmonlar tatbiq etilmoqda.

**Mahalliy ta'sir**-dorilarning qonga so'rilguncha ko'rsatgan ta'sir . Preparat qayerga qo'yilgan bo'lsa uning ta'siri o'sha joyda yuzaga chiqadi.Mahalliy ta'sir patalogik jarayonlar terida ,ko'z ,burun ,og'iz va oshqozon ichak sistemasining shilliq qavatlarida ,ba'zi bir organlarni o'rab olgan qobig'ida (plevra,qorin pardasi,siydikqopi va boshq.)yuz berganda yuzaga chiqadi. Bunday hollarda dorilar to'qimalarning yuzasiga ta'sir ettiriladi va mahalliy ta'sir ko'rsatadi .

Yaralar va jarohatlar avval antiseptik va dezinfeksiya xususiyatiga ega preparatlar bilan yuvilib tozalanadi ,so'ngra malham va boshqa dori shakllari ishlatiladi . Ko'zga va burun shilliq pardalariga dorilarning mahalliy ta'siri o'rganilganda ,ko'zga tomiziladigan tomchilarning miqdori 2 tomchidan oshmasligi kerak .

Lozim bo'lganda ,ma'lum organlarning o'ziga xos dorilarni yuborish bilan u yerdagi kasallik davolanadi.Buning uchun dorilar shu organlarning arteriyalariga to'g'ridan-to'g'ri yuboriladi ,ba'zan xavfli shishlarda organning ichiga ineksiya qilishga to'g'ri keladi .

Shuningdek ,yalig'langan bo'shliqlarga (gaymor ,ichki quloq ) ,kapsula bilan o'ralib qolgan organlarga dori va antimikrob moddalarning eritmalari yuboriladi.Shu hollarda ishlatiladigan dorilar nisbatan ko'proq mahalliy ta'sir ko'rsatadi.

**2.Rezorbiv ta'sir** –dorilarning qonga so'rilib ,keyin ko'rsatadigan ta'siri . Dorilar qaysi yo'l bilan ishlatilmasin ,ular organizmga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Dorilarning xasta a'zolariga to'g'ridan -to'g'ri ta'siriga bevosita ta'sir , deymiz. Uning asosiy ta'siridan boshqa ta'sirlarini bilvosita ta'sirdeymiz. Masalan ,yurak glikozidini yurak mushaklariga ta'siri bo'lsa,uning peshob haydash ta'siri –bilvosita ta'sir bo'ladi .

**3.Reflektor ta'sir** –dorilarni shilliq qavat va boshqa yo'llar bilan ishlatilganda asab retseptorlarini qo'zg'atish bilan yuzaga chiqadi.Masalan, achchiq moddalar og'izga tushgach refleks yo'li bilan oshqozon shirasining ajralishi ortib ketadi.

**4.Asosiy ta'sir**- dori moddalarning birinchi bo'lib, yuzaga chiqadigan ta'siridan iborat.**Qo'shimcha ta'sir**-boshqa organ va sistemalarga ta'siridan iborat.

**5.Nojo'y ata'sirlar**- dorilarning terapevtik dozalardagi asosiy ta'siridan tashqari, boshqa a'zo va organlarda turli nojo'y ata'sirlar keltirib chiqarishi mumkin(oshqozon-ichak, yurak-qon tomir sistemasi, siydik chiqarish yo'llarida, dizbakterioz, zaharlovchi, allergik va boshqa).

**6.Tanlab ta`sir ko`rsatuvchi moddalar**(yurak glikozidlari-miokardga, oksitosin-bachadonga)

**7.Asliga qaytuvchi va asliga qaytmas ta`sirlar.** Masalan, og`ir tuzlarning kuchsiz eritmalari burishtiruvchi ta`sir ko`rsatadi vaqt o`tishi bilan organlar asliga qaytadi, ularning yuqori konsentrasiyasi to`qimalarga kuydiruvchi ta`sir ko`rsatadi organ o`z asliga qaytmaydi.

**8.Zaharli ta`sir**-ba`zi dorilar noto`g`ri qo`llash natijasida organizmga zaharli ta`sir ko`rsatadi.

### **Dorilar bilan davolash turlari.**

Dorilar bilan davolashning quyidagi turlari bor:

**1.Yetiorop davolash (ayethia – sababiga, tropo – qaratilgan)** – bu xastalik sababini yo`qotish yoki uning ta`sirini susaytirishga bag`ishlangan davo usullari. Masalan, mikroblarga qarshi davo usullari (dezinfeksiya, antiseptika va kimyoterapiya).

**2.Patogenetik davolash (pathos – kasallik, genesis – kelib chiqishi)** – bu kasallikning kelib chiqishi, molekular mexanizmini yo`qotish yoki uni susaytirishga qaratilgan davo usullari. Masalan, yurak glikozidlarining yurak yetishmovchiligida ishlatilishi atsitilsalitsil kislotani yallig`lanishga qarshi ishlatilishi (ya`ni, prostoglandinlar sintezini susaytiradi).

**3.Simptomatik davolash** – kasallikning ba`zi bir belgilarini yo`qotish yoki uni tiklash uchun qo`llaniladigan davo usullari. Masalan, bosh og`rig`ida og`riq qoldiruvchi dorilarni ishlatish, qabziyatida surgi yoki ichni yumshatuvchi dorilar berish. Bunda xastalikni asosiy kelib chiqishi mexanizmiga ta`sir etilmaydi.

**4.O`rin bosuvchi davolash** – ya`ni, tabiiy biogen moddalar etishmay qolganda, ular o`rnini to`ldiruvchi dori moddalarini ishlatish. Masalan, gormonal preparatlar, fermentative preparatlar (insulin, me`da shirasi, tireoidin va boshq.).

**5.Profilaktik davolash** – kasallikning oldini olish (vak-sinatsiya, grippga, qizamiqqa, quturishga, bug`maga, OITSga va boshq.).

### **Doza tushunchasi va uning turlari.**

Dorilar organizmga qaysi yo`l bilan kiritilmasin, ularning farmakologik ta`siri tanadagi, to`qimalardagi yoki teri ustidagi konsentratsiyasiga bog`liq. Bemor tanasi yoki uning ma`lum qismidagi dorilarning kerakli darajadagi konsentratsiyasini yaratish dori shakliga bog`liq. Masalan, teriga, yaralarga dorilarning eritmasi ishlatilsa, shu erda dorining yuqori konsentratsiyasini tashkil qilish mumkin. Agar shu dorini yumshoq dori shakllarida (malham, emulsiya) ishlatilsa, yara yoki teriga tegib turgan dori molekularining miqdori kam bo`lib, u yerda yuqori konsentratsiya tashkil qila olmaydi. Shuning uchun ham bunday hollarda yumshoq dorini yuqori konsentratsiyalarda ishlatishga to`g`ri keladi. Enteral yo`l bilan yuborilgan dorilar, me`da, ichaklarda parchalanib ov-qatlar bilan aralashib, organizmga so`rilib o`tishi pa-sayadi. Parenteral yuborilganda, dorilarning organizmdagi konsentratsiyasi enteral yuborilganda nisbatan yuqori bo`ladi. shuning uchun ham dorilarning<sup>13</sup> enteral yuborilgandagi miqdori (dozasi), parenteral yo`l bilan yuborilgandagidan biroz yuqori bo`ladi. Demak, organizmga yuborilayotgan dorilarning farmakologik (kasallarda terapevtik) ta`siri ko`p jihatdan ularning dozasiga bog`liq. **Doza**,deb dori moddalarning ma`lum miqdoriga aytiladi.

Quyidagi doza turlari mavjud:


**Bir martalik doza**, ya`ni bir qabulga tayinlanadigan dorining miqdori .

**Zarbali doza-** terapevtik dozadan ikki –uch marta oshiq bo`lishi mumkin. Bu dozani tez va kuchli ta`sir olish uchun dastavval bir marta yuborib , keyin terapevtik doza bilan davom ettiriladi .masalan ba`zi bir antibacterial preparatlar .

**Toksik doza-**terapevtik dozadan ortiq doza bo`lib, bunda organizmda ayrim noxush qo`shimcha salbiy oqibatlar kelib chiqadi.


**Terapevtik doza(davolovchi)-** eng kichik, ya`ni boshlang`ch uncha kuchli bo`lmagan ta`sir ko`rsatuvchi doza, o`rtacha ta`sirga ega va maksimal- eng yuqori terapevtik ta`sir ko`rsatuvchi dozalarga bo`linadi.

**Terapevtik doza kengligi-**boshlang`ch ta`sir ko`rsatuvchi doza bilan maksimal ta`sir ko`rsatuvchi doza oralig`i .Maksimal dozaning menimal dozaga nisbatan terapevtik doza birligi –ko`rsatmasi deyiladi.Terapevtik doza ko`rsatkich kengligi qancha katta bo`lsa, dori moddasi shuncha yaxshi , zaharsiz hisoblanadi.



### “Charxpalak” metodi

**Charxpalak metodi-** tinglovchilarga o`tilgan mavzu bo`yicha bilimlarini mustahkamlash yoki tekshirish, hamda bir-birini baholash imkoniyatini beruvchi metoddir.



“Chaxpalak” usulini o‘tkazish uchun o‘quv xonasidagi stollar doira ko‘rinishida joylashtiriladi. Stollarning ichki va tashqi tomoniga bittadan stol joylashtiriladi. Tinglovchilar ikki guruhga bo‘linib, “mehmon” va “mezbon” sifatida stolning ichki va tashqi tomoniga joylashadilar.

“Mehmon”lar stolning ichki tomoniga o‘tirib, savollarga javob beradilar. Ularga o‘quv qaydnomalari topshiriladi.

Ular o‘zlarining ism va shariflarini yozib, javob baholarini qo‘ydirib beradilar. Soat strelkasi bo‘yicha siljiydilar. Xar bir mezbonning savoliga javob beradilar.

Javob baholari jamlanib, umumiy baho chiqariladi.

Keyin “mehmon” va “mezbon”lar almashinadilar.

O‘qituvchi “Chaxpalak usulining to‘g‘ri olib borilishini nazorat qiladi, kamchiliklarni to‘ldirib boradi.

## Tibbiy/farmakologiya atama

1. **Doza (Dose)** – preparatning organizmga beriladigan miqdori.
2. **Terapevtik doza (Therapeutic dose)** – kasallikni davolash uchun zarur bo‘lgan preparat miqdori.
3. **Minimal doza (Minimal dose)** – samarali ta‘sir ko‘rsatadigan eng kichik miqdor.
4. **Maksimal doza (Maximum dose)** – zarar yetkazmaydigan eng katta miqdor.
5. **Toksik doza (Toxic dose)** – organizmga zarar yetkazadigan miqdor.
6. **Ishchi doza (Effective dose)** – dorining kasallikni davolashda samarali ishlatiladigan miqdori.
7. **Farmakologiya (Pharmacology)** – dorilar va ularning organizmga ta‘sirini o‘rganuvchi fan.
8. **Faol modda (Active compound)** – dori preparatda terapevtik ta‘sir ko‘rsatadigan birikma.
9. **Farmakodinamika (Pharmacodynamics)** – dorining organizmga ta‘siri va mexanizmini o‘rganuvchi fan.
10. **Farmakokinetika (Pharmacokinetics)** – dorining organizmda so‘rilishi, tarqalishi, metabolizmi va chiqarilishini o‘rganuvchi fan.

## Nazorat uchun savollar?

1. Dori turlari texnologiyasi” fanining predmeti, maqsadi va rivojlanishi nimalardan iborat?
  2. Necha xil dori turlari bor?
  3. Ibn Sino dorilar to’g’risida qanday ma’lumotlar keltirib o’tilgan?
- MAVZUGA OID TESTLAR

1. **Farmakologiyada “doza” nima?**

- A) Dori narxi
- B) Organizmdagi dori miqdori yoki berilgan preparat miqdori
- C) Preparatning rangi
- D) Dori saqlash muddati

**Javob: B**

2. **Dozani tanlash nimaga bog’liq?**

- A) Faqat bemorning yoshi
- B) Bemorning yoshi, vazni, kasallik holati, dorining turi
- C) Faqat kasallik turi
- D) Faqat preparat narxi

**Javob: B**

3. **Farmakologiyada qaysi doza turi eng xavfsiz hisoblanadi?**

- A) Minimal terapevtik doza
- B) Maksimal doza
- C) Ishchi doza
- D) Toksik doza

**Javob: A**

4. **“Terapevtik doza” nima?**

- A) Preparatning organizmga zararli miqdori
- B) Kasallikni davolash uchun zarur bo’lgan miqdor
- C) Faqat laboratoriyada ishlatiladigan miqdor
- D) Preparatni tashish uchun hajmi

**Javob: B**

5. **“Toksik doza” deganda nimani tushunamiz?**

- A) Preparatning samarali dozasini
- B) Organizmga zarar yetkazadigan miqdor
- C) Preparatni saqlash hajmi
- D) Minimal dozani

**Javob: B**

6. **“Minimal doza” deganda nima tushuniladi?**

- A) Preparatning organizmga samarali ta’sir ko’rsatadigan eng kichik miqdori
- B) Preparatning maksimal miqdori
- C) Preparatni tashish hajmi
- D) Faol modda miqdori

**Javob: A**

7. **“Maksimal doza” nima?**

13

- A) Organizmdagi zararli doza
- B) Preparatning organizmga zarar yetkazmasdan qabul qilinadigan eng katta miqdori
- C) Faol modda miqdori
- D) Laboratoriyada ishlatiladigan doza

**Javob: B**

8. **Doza turini belgilashda qaysi omillar hisobga olinadi?**

- A) Faqat dori narxi

- B) Bemor yoshi, vazni, jinsi, kasallik xususiyati, preparat turi
- C) Faqat kasallik turi
- D) Faqat bemorning xohishi

**Javob: B**

9. **“Ishchi doza” deganda nimani tushunamiz?**

- A) Preparatning laboratoriyada ishlatiladigan miqdori
- B) Kasallikni davolashda samarali bo‘lgan dozasi
- C) Maksimal dozadan ortiq miqdor
- D) Minimal dozadan kam miqdor

**Javob: B**

10. **Doza noto‘g‘ri tanlansa nima bo‘ladi?**

- A) Faqat samaradorlik oshadi
- B) Toksik ta‘sir yuzaga keladi yoki dori samarasi kamayadi
- C) Hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi
- D) Faqat rang o‘zgaradi

**Javob: B**

## Adabiyotlar

1. **Xolmatov H.X., Ahmedov O.A.** – *Farmakologiya asoslari* — Doza va uning turlari, terapevtik ta‘sir.
2. **Kodirov N.D.** – *Farmakologiya: darslik* — Dorilar, doza va toksikologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.
3. **Musayeva N.A.** – *Dorivor preparatlar va farmakologiya* — Faol modda va doza nazariyasi.
4. **Toshkent farmatsevtika instituti** – *Farmakologiya darsligi*
5. **Samarkand davlat tibbiyot instituti** – *Farmakologiya qo‘llanmasi*
6. **Xolmatov H.X., Habibov Z.H.** – *Farmakologiya va preparatlar tayyorlash*
7. **O‘zbekiston farmatsevtika va tibbiyot jurnali** — Doza va toksikologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar.
8. **Toshkent tibbiyot akademiyasi** – *Farmakologiya laboratoriya ishlari*
9. **Mahalliy darsliklar va metodik qo‘llanmalar** — Dorilar dozasi va farmakologiya nazariyasi.
10. **Xolmatov H.X., Ahmedov O.A.** – *Farmakologiya va terapevtik qo‘llanma*

<b>17 - mavzu:</b> <b>O'quv moduliga ajratilgan kredit jami 4 .</b>	<b>Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.</b>
--	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashg'ulot
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Favqulotda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari</li> <li>2. Tibbiy saralash bosqichlari.</li> <li>3. Ommaviy talofat o'chog'ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

13

<b>Ish bosqichlari va</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>

vaqti		
<p align="center"><b>1 bosqich</b> <b>O‘quv</b> <b>mashg‘ulotiga</b> <b>kirish 10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b> 1.1 O‘qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning o‘quv bo‘limi tomonidan berilgan ro‘yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshirdi, yangiliklar eshitiladi va aytiladi. 1.2 O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o‘tkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo‘llaniladigan usullarni aytib o‘yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar tinglaydilar yozib oladilar.</p>
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b> <b>1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b> <b>2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40.</b> <b>3.O‘qitishning noannaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ularni utilgan mavzular buyicha bilimni baxolash. 2.Yangi mavzu mazmunini o‘qituvchi tomonidan “Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi. Mavzuga oid klinik belgilar, amaliy kunikmalar, bemorlarni parvarishlar xususiyatlari bilan tanishtiradilar. Bemorlarni parvarish qilishni va ularga psixologik yordamni to‘gri va samarali olib borish xakida ma’lumot beradi 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda “Rol o‘ynash (Role play)” usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab,o‘qituvchi bergan savollarigi aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar.”B.B.B” sxemasi tinglovchilar tomonidan to‘ldiriladi.</p>
<p align="center"><b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e‘lon qilinadi. Uyga vazifa: Favqulotda holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish. Favqulotda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha, ko‘p uchraydigan kritik va shoshilinch</p>	<p align="center">Tinglaydilir, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

	<p>holatlar Foydalanilgan adabiyotlar <b>1.S.S. Qodirov. Peditriya.</b> – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2019. <b>2.R.A. Axmedov. Bolalar kasalliklari propedevtikasi.</b> – Toshkent, 2020. <b>3.Sh.I. Karimov tahriri ostida. Shoshilinch tibbiy yordam asoslari.</b> – Toshkent, 2018. <b>4.M.A. Xudoyqulov. Reanimatsiya va intensiv terapiya asoslari.</b> – Toshkent, 2021. <b>5.O‘zbekiston Respublikasi SSV. Klinik protokollar to‘plami (peditriya).</b> – Toshkent, 2022. <b>6.D.X. Yuldashev. Hamshiralik ishi asoslari.</b> – Toshkent, 2019. <b>7.N.A. Usmonov. Bolalarda shoshilinch holatlar.</b> – Toshkent, 2021. <b>8.B.T. Rasulov. Bolalar reanimatsiyasi.</b> – Toshkent, 2020. <b>9.Salomatlik -3 loyixasi “Bemor bololarni parvarish qilish asoslari”</b> 2014 y <b>10.V.N.Turakulov X.X.Egamov “Peditriyada xamshiralik parvarishi”</b> 2019</p>	
--	---	--

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>O‘tkir nafas yetishmovchiligida reanimatsiya tadbirlari. Nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligining buzilishlari. O‘tkir qon tomir yetishmovchiligida xamshiralik<sup>13</sup> yordami. O‘pka- yurak reanimatsiyasi. <b>Koma xolatlaridagi</b> bemorlarning parvarish qilish va kuzatishning o‘ziga xos xususiyatlari . Shok va uning turlarida birinchi</p>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Bemor bolalarning xolatini shoshilinch baxolash va tez tibbiy yordam kursatishni.</li> <li>– O‘tkir nafas yetishmovchiligida bolalarda hamshiralik parvarishini. Krup sindromi, sabablari, shoshilinch yordam.Bronxial astmaning og‘ir xurujlari. Nafas yo‘llarida yot jismlar</li> </ul>
---	---

yordam kursatish.	tushishida shoshilinch yordam ko'rsatish. – O'tkir yurak yetishmovchiligida bolalarda hamshiralik parvarishi. – Qon-tomir yetishmovchiligida shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi. – Yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish texnikasini. O'pkani sun'iy ventilyatsiya apparatiga ulangan bolalarda hamshiralik parvarishini. – Gipertermik sindromda bolalarda xamshiralik parvarishini. Talvasada bolalarda xamshiralik parvarishini
O'qitish metodlari	“Baxs-munozara”, “Aqliy xujum”, “Issiq kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o'quv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

### **Favqulotda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.**

#### **Dars rejasi:**

1. Favqulotda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, Tibbiy saralash bosqichlari.

2. Ommaviy talofat o'chog'ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.

13

#### **O'tkir nafas yetishmovchiligi**

O'tkir nafas yetishmovchiligi bu – hiqildoq va traxeya shilliq qavatlarining yallig'lanishi bo'lib, bunda hiqildoqning ovoz bog'lami joylashgan sohada, hiqildoq mushaklarining reflektor spazmi kuzatiladi, buning natijasida inspirator hanshirash yuzaga keladi.

Sababi:

- o‘tkir respirator virusli kasalliklar;
- bakterial infeksiyalar (streptokokk, stafilokokk);
- tezda yuzaga keladigan allergik reaksiyalar (Kvinke shishi, anafilaktik shok).

Kasallikni ko‘pincha gripp, paragripp, adenovirus, respirator sintitsial virus keltirib chiqaradi. Ko‘pincha 3 oylikdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar kasallanadilar. Samarali yordam ko‘rsatmasligi natijasida ham stenozni kuchayishi og‘ir gipoksiya rivojlanishiga, gemodinamik buzilishlarga, MNS jarohatlanishiga va o‘limga olib kelishi mumkin.

**Belgilari:** Kasallik ko‘pincha qishning boshlanishiga va respirator virusli infeksiyalarni epidemik tarqalish vaqtiga to‘g‘ri keladi. Kasallik odatda yuqori nafas yo‘llarini shikastlanishi va keyinchalik tipik quv-quv yo‘tal va tovushning xirillashi bilan boshlanadi. Grippez infeksiyalarda kasallikning klinik ko‘rinishi yaqqol namoyon bo‘ladi, paragripp va adenovirusli infeksiyaga qaraganda harorat 39,5-40°C ga ko‘tarilishi mumkin, lekin bolada toksik belgilar ko‘rinmaydi. Tekshiruvda birinchi o‘rinda inspirator stridor, taxipnoe, disfoniya, ko‘krak qafasining tortilishi kuzatiladi. Tovushlarni diqqat bilan kuzatish ma‘lum darajada kasallikning xarakterini va patologik jarayonni joyla-shishini ko‘rsatadi. Nafas olganda hushtaksimon tovushning eshivilishi hiqildoq shishishidan, disfogiya esa ovoz boylam-larining yallig‘lanishidan darak beradi. Shishning kuchayib borishi va nafas hajmining kamayishi nafas tovushlarining kamayishiga va afoniyaga olib keladi. Quv-quv yo‘talning borligi ovoz yorig‘ining to‘la ochilmasligidan dalolat beradi, bu esa reflektor spazm bilan bog‘liq. Qiyinlashgan nafas va tez-tez yuzaga keluvchi progressiv yo‘tal gipersekretsiya va balg‘am bilan hiqildoq to‘lib qolganda kuzatiladi.

Og‘irlik darajasiga qarab 4 ga bo‘linadi:

**I daraja (kompensatsiyalashgan).** Ahvoli o‘rtacha og‘irlikda. Es-hushi joyida. Bola bezovta, yotog‘ida qulay joy topolmaydi, bezovta bo‘lganda vaqt-vaqti bilan inspirator hansirash va quv-quv yo‘tal kuzatiladi. Tinch holatda nafas ravon, ko‘krak qafasining tortilgan joylari yo‘q. Tovush bo‘g‘iq. Teri rangi odatdagidek. Yurak urishi soni yoshiga nisbatan 5-10% ga oshishi mumkin.

**II daraja (subkompensatsiya davri).** Umumiy ahvoli og‘ir. Bola qo‘zg‘aluvchan, bezovta, uyquasi buzilgan. Stridor, shovqinli nafas, xurujli qo‘pol quv-quv yo‘tal. Inspirator hansirash ko‘krak qafasining tortilishi bilan kuzatiladi, uyqu chuqurchasi ham tortilgan, burun qanotlari kerilgan. Tovush xirillagan yoki bo‘g‘iqlashgan. Teri qoplamlari oqargan, perioral sianoz bilan, yurak urishlari soni 10-15% ga oshgan.

**III daraja (dekompensasiya davri).**<sup>13</sup> Bola ahvoli juda og‘ir. Bola qo‘zg‘algan, es-hushi xiralashgan. Nafas olishi qiyinlashgan, ko‘krak qafasi chuqurlashgan, nafasda yordamchi mushaklar qatnashadi. Teri va shilliq qavatlar oqargan, ba‘zan yer rangida, akrosianoz, sovuq ter bosgan. Qon aylanish buzilishi belgilari, teri marmar rangida, taxikardiya. Yurak urishlari soni normadan 15% ga oshgan, yurak tonlari bo‘g‘iq, tez-tez kuchsiz aritmik puls, jigar kattalashgan.

**IV daraja (asfiksiya).** Ahvoli juda ham og'ir. Es-hushi joyidamas. Ko'z qorachiq-lari kengaygan, talvasalar kuzatilishi mumkin, teri qoplamlari sianotik. Yurak tonlari bo'g'iq, bradikardiya-yurak to'xtashini bildiruvchi xavfli belgi, puls ipsimon yoki umuman yo'q. Keyin esa nafas va yurakning to'xtashi kuzatiladi. Shoshilinch yordam:

1) Medikamentoz davo. I darajali stenozda:

- burun yo'llariga tomir toraytiruvchi tomchilar (0,05% li galazolin eritmasi) tomiziladi;

- lazolvan eritmasi yoki bargizub shirasi bilan (1:10) ultratovushli ingalatsiyalar o'tkaziladi.

2) Oksigenoterapiya parakislod palata sharoiti hollarida.

3) SNO yordamida nafasni ushlab turish.

*Hamshiralik parvarishi.*

1) Yotoqda ko'tarilgan holat, toza havo kirishini ta'minlash (nam havo yuborish), ko'p suyuqlik ichirish.

2) Chalg'ituvchi muolajalar: gorchichnik, agar unga allergiyasi bo'lsa, issiq oyoq yoki qo'l vannalari, bo'yin va ko'krak sohasiga yarim spirtli qizdiruvchi kompresslar.

3) Laringoskopiya va traxeya intubatsiyaga tayyorlash.

4) Hamshira shifokor o'tkazayotgan muolajalarni kuzatadi, bemorni ishlatilayotgan dorilarga reaksiyasini kuzatadi va jurnalga qayd qiladi.

5) Og'riqli muolajalar haqida ota-onasiga xabar berish va og'riqni kamaytirish uchun harakat qilish.

6) Ota-onasiga boladagi og'riqni kamaytiruvchi muolajalar haqida aniq tushuncha berish.

*Nafas yo'llarida yot moddalar*

Bolardagi to'satdan yuz beradigan asfiksiya turidir. Yot moddalar ko'proq bronxlarda bo'ladi. Kattalarda ko'proq o'ng bronxda, bolalarda esa ikkalasida baravar uchraydi. Ko'proq 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda, ya'ni jag' tishlari paydo bo'lguncha bo'lgan davrda uchraydi.

**Sababi.** Nafas yo'llariga ko'proq tangalar, tugmalar, yong'oq va o'yinchoqlar tushib qolishi mumkin.

**Belgilari.** Yuqori nafas yo'llarida yaqqol namoyon bo'lgan stenozi yuzaga kelishi mumkin. Bo'g'ilish, kuchli davriy yo'talishlar bilan birga, yuzda sianoz va chaqmoq tezligidagi asfiksiya yuzaga kelishi mumkin. Agar yot modda harakat qilsa, traxeyada yo'tal va qichqiriq vaqtida chapaksimon nafas eshitilishi mumkin. Yot moddalar ko'pincha bronxlarda yaqqol ishemik o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydi. Bola bezovta, qo'rquvda. Xurujsimon, effektsiz yo'tal.

Bronxospazm, ekspi-rator hansirash xarakterlidir. Qisman tiqin bo'lsa auskultatsiyada bir tomonlama quruq hushtaksimon xirillashlar, emfize-ma belgilari bilan namoyon bo'ladi. Auskultatsiyada ma'lum sohada sust nafas yoki nafas yo'qligi eshitiladi. Tashxis ko'krak qafasining bronxoskopiya yordamida qo'yiladi.

Hamshiralik parvarishi.

Qo'l yordamida yot moddani olib tashlash.

Bronxoskopiya yordamida olib tashlash.

Bolani xotirjamligini ta'minlash maqsadida oila a'zolarini ruhiy qo'llab-quvvatlash.

1) Yot moddani aniqlash:

- o'yinchoq xususiyatlari va simptomlari;
- agar bola gapira olsa nima bo'lganini so'rash;
- yot moddani joyi va xususiyatlarini aniqlash.

2) Yot moddani olib tashlash:

- bolani oyog'idan ko'tarib, silkitish;
- bolani chap qo'l bilan ushlab, o'ng qo'lni ko'rsatkich barmog'i bilan til ildizini bosish va bola boshini pastga egish.

Bronxoskopiya, traxeostomiya.

3) Sun'iy nafas va kislorod berish.

4) Medikamentoz davo.

5) Oilani qo'llab-quvvatlash.

### **O'tkir yurak yetishmovchiligi**

O'tkir yurak yetishmovchiligi bu yurakning to'liq zo'riqishi bo'lib, patologik belgilar (terining, shilliq qavatlarning oqarishi, hanshirash, shishlar va b.) bilan kechadi. Bu kutilmaganda yoki birdan nafas siqish xuruji (yurak astmasi) bilan namoyon bo'ladi.

Klinik belgilari. Bola bezovta, ko'krak qisishidan, nafas olishning qiyinlashishi sababli havo yetishmasligidan, o'lib qolish hissidan shikoyat qiladi, majburiy holatni egallaydi, hansirash, yo'tal bezovta qiladi. Asorati o'pka shishishi.

Terminal holat rivojlanishi bola hayotini saqlab qolish va uni hayot faoliyatiga qaytarish uchun o'z vaqtida va to'g'ri yurak-o'pka reanimatsiyasi o'tkazishni talab qiladi.

### **Shoshilinch yordam.**

1. Bolani tinchlantirish.
2. Siqib turgan kiyimlarini yechish.
3. Havo olishini ta'minlash.
4. Majburiy holatni egallash (oyoqlarini osiltirib o'tirish).
5. Og'izda to'planib qolgan so'lak kabi nafasga xalaqit qiluvchi omillarni yo'qotish.
6. Yuqori nafas yo'llarini erkin o'tkazuvchanligini ta'minlash.
7. Oksigenoterapiya.
8. Medikamentoz davo, shifokor yordami.

9. Juda og'ir hollarda traxeya intubatsiyasi o'tkaziladi va sun'iy nafas oldirishga o'tiladi.

### **Hamshiralik parvarishi**

1. Nafas siqishini kamaytrish uchun hamshiralik parvarishi 1-5 punktidagi «Shoshilinch yordam» singari o'tkaziladi.
2. Nafas soni va o'pkadagi shovqinlar, xirillashlar borligi nazorat qilinadi va shu bilan birga hamshiralik yozuvi muolajalari kiritiladi.
3. Maksimal qulay sharoit va tinchlik yaratish.
4. Tozalikni ta'minlab infeksiyani oldini olish.
5. Bola va uning oilasi bilan tibbiy-psixologik ishlar olib borish.

### ***Tomir yetishmovchiligi – qon aylanishi buzilishi natijasida kelib chiqadi***

Obmorok – mushak tonusining yo'qolishi, miyada qon aylanishi buzilishi natijasida qisqa vaqt hushni yo'qotish.

Sababi.

1. Tomirlarni nerv regulatsiyasini buzilishi:  
vazovagal, ortostatik, reflektor, vaziyatli, giperventelatsion sindromda;
2. Kardiogen: bradiaritmiyalar, taxiaritmiyalar, yurak va yirik qon tomirlardagi qon oqimiga mexanik ta'sir qilishi.
3. Gipoglikemik holatlar.
4. Serebravaskulyar va b.

Olib keluvchi omillar: kuchli ruhiy ta'sirlar (ta'sirlanish, qo'rqish, kuchli og'riq, issiq yoki oftob urishi, stresslar va b.).

Kasallikning belgilari: noqulaylik hissi, ko'ngil aynishi, esnash, ko'p terlash, oyoqlarda holsizlik, ko'z oldi qoron-g'ilashuvi, quloqda shovqin, bosh aylanishi, oyoq-qo'llar uvishishi, mushak tonusi birdan pasayishi, teri oqargan, qorachiqlar kengaygan, puls kuchsiz to'liq, AB pasaygan, yurak tonlari bo'g'iqlashgan, nafas yuzaki. Agar bola o'tirishga yoki yotishga ulgurgan bo'lsa organizmni ortostatik holatini bartaraf qilish mumkin, eshitmaslik, esnash, ko'ngil aynishi holatlari bilan chegaralanadi. Chuqur obmorok qisqa vaqtli tonik talvasalar bilan birga kuzatilishi mumkin.

### **Shoshilinch holat:**

1. Bolani gorizontol oyoqlarini biroz ko'targan holda yotqizib, yoqasi yechiladi, tanani siqib turgan kiyimlarini yechish.
2. Toza havo olishini ta'minlash.
3. Reflektor ta'sirlardan foydalanish:  
– yuzga suv sepish yoki ho'l sochiq bilan yonoqlarga urish;  
– nashatir spirti hidlatish.
4. Bu holatdan chiqqandan so'ng ichishga issiq shirin choy berish.
5. Simptomatikasi bo'yicha medikamentoz yordamini ko'rsatish.

Hamshiralik parvarishi:

1. Qon aylanish holatini tez tiklash, 1-4 punkt «Shoshilinch yordam» da ko'rsatilgan hamshiralik parvarishi kabi o'tkaziladi.
2. Puls va hushni nazorat qilish.
3. Maksimal qulay sharoit yaratish va tinchlikni ta'minlash.

4. Tozalikni ta'minlab infeksiyani oldini olish.

5. Bola va uning oilasi bilan tibbiy-psixologik ishlar olib borish.

Kollaps – hayotga xavf soluvchi o'tkir tomir yetishmovchiligi bo'lib, tomirlar tonusining birdan pasayishi, aylanib yuruvchi qon hajmining kamayishi, miya gipoksiyasi belgilari, hayot uchun muhim funksiyalarning yo'qolishi bilan xarakterlanadi.

Sababi o'tkir yuqumli kasalliklarning (ichak infeksiyasi, gripp, O'RVI, zotiljam, pielonefrit, angina va b.) og'ir kechishi.

1. O'tkir buyrak usti bezi yetishmovchiligi.

2. Gipotenziv moddalar dozasini oshirib yuborish.

3. Ko'p qon yo'qotish.

4. Og'ir jarohatlar.

Kasallikning belgilari avj olish davrida rivojlanadi va bemor umumiy ahvoning progressiv yomonlashishi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha kollapsda quyidagi belgilar kuzatiladi: bola qo'zg'aluvchanligi, mushaklar tonusining oshishi, teri qoplamlarining oqarishi va marmarsimon tus olishi, oyoq-qo'l barmoqlarining sovqotishi, sovuq yopishqoq terlash, tez-tez ipsimon puls, taxikardiya, AB tushib ketishi.

#### **Shoshilinch yordam:**

1. Bolani gorizontaal boshini orqaga biroz eggan holda yotqizish.

2. Issiq grelkani sochiqqa o'rab qo'yiladi.

3. Toza havo kelishini ta'minlash.

4. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.

5. Siqib turgan kiyimlarini yechish.

6. Klinik kechishi bo'yicha shifokor yordamini ko'rsatish.

7. Shoshilinch yordam bermagan hollarda reanimatsiya bo'limiga yotqiziladi.

#### **Hamshiralik parvarishi:**

Nafas siqishini kamaytrish uchun hamshiralik parvarishi 1-5 punktidagi «Shoshilinch yordam» singari o'tkaziladi. Nafas soni va o'pkadagi shovqinlar, xirillashlar borligi nazorat qilinadi va shu bilan birga hamshiralik yozuvi muolajalari kiritiladi. Maksimal qulay sharoit va tinchlik yaratish. Tozalikni ta'minlab infeksiyani oldini olish. Bola va uning oilasi bilan tibbiy-psixologik ishlar olib borish.

Yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish texnikasi:

– yurak-o'pka reanimatsiyasi o'tkazishga asosiy ko'r-satmalar;

– nafas, yurak urishi va hushning yo'qligi;

– uyqu arteriyasi va boshqa atreiyalarda puls yo'qligi;

– teri rangining oqligi yoki kulrang-yer rangidaligi;

– qorachiq kengayishi, yorug'likka reaksiyasi yo'qligi.

#### **Shoshilinch yordam:**

– klinik o'lim yuz bergan vaqtni va reanimatsion choralar boshlangan vaqtni yozib qo'yish;

- trevoga signalini berish, yordamchilar va reanimatsiya brigadasini chaqirish;
- imkoni boricha klinik o‘lim rivojlanishi vaqtidan qancha daqiqa o‘tganini aniqlanadi. Agar 10 daqiqadan ko‘p vaqt o‘tgan bo‘lsa, bemorda biologik o‘limning erta belgilari («mushuk ko‘zi simptomi» – ko‘z olmasini bosgandan keyin qorachiq gorizontol shaklni oladi va saqlab qoladi va «eriyotgan muzchalar») – qorachiqning xiralashishi simptomi bor bo‘lsa yurak-o‘pka reanimatsiyasini o‘tkazish shubhali.

ABC qoidasi bo‘yicha reanimatsion choralar ketma-ketligi:

**A** (airways) – nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini tiklash.

**B** (breathing) – nafasni tiklash.

**C** (circulation) – qon aylanishini yaxshilash.

– agar yurak urishi va faoliyati tiklanmasa ham SNO o‘tkazishni va yurakni bevosita massaj qilishni to‘xtatmaslik.

– periferik venaga tushishni ta‘minlash va shifokor ko‘rsat-masi bo‘yicha dori moddalarni yuborish.

– oksigenoterapiya 100 % yuz niqobi orqali

– qorinchalar fibrilatsiyasida defibrilatsiya qilish ko‘rsatma bo‘ladi (elektrik yoki medikamentoz).

SNO apparatiga ulangan bolalar va ularning oilalarida hamshiralik parvarishi.

SNO o‘tkazishning hamma nozik tomonlarini hisobga olgan holda bolalarni parvarish qilish hamshiradan diqqat va e‘tibor talab qiladi. Birinchi o‘rinda SNO dagi bolani parvarish qilayotgan hamshira sanepid tartibga rioya qilishi, tegishli buyruqlar bilan ishlashi kerak. Monitorni nazorat qilishni SNO apparati ishini (namlik va temperatura tartibi, kislorod berilishini va b.) bilishi kerak.

*Hamshiralik parvarishi:*

1. Gigiyenik muolajalar o‘tkazish (ichki va o‘rin oqliklarini almashtirish, yuvintirish, umumiy gigiyenik muolajalar, ostni yuvish, og‘iz bo‘shlig‘ini parvarishlash va b.)
2. Intubatsion trubka sanatsiyasi.
3. Yotoq yaralarni oldini olish (vibromassaj, bemor tana holatini har 2-3 soatda almashtirib turishni).
4. Inyeksiyadan keyingi asoratlarni oldini olish.
5. O‘mrov osti kateterini parvarish qilish.
6. Siydik kateterini parvarish qilish.
7. Operatsiyadan keyingi yarani parvarish qilish.
8. Oila bilan tibbiy-ruhiy ish olib borish.

Yurak-o‘pka jonlantirishi o‘tkazishdan bosh tortish va to‘xta-tishning yuridik asoslari. Yuridik va etik aspektlardan<sup>13</sup> kelib chiqib YuO‘J quyidagi hollarda qo‘llanilmaydi:

– Yurak to‘xtashi vaqtidan boshlab (normal atrof-muhit haroratida) 25 daqiqadan ko‘p vaqt o‘tganda.

– Birdaniga o‘lim holati kuzatilsa, shu bemor uchun ko‘rsatilgan to‘liq kompleks davolash o‘tkazilgan bo‘lsa.

– Agar bemorda progressivlanuvchi kasallikning terminal bosqichi bo‘lsa, shifokorning o‘rangan va oldindan hujjalash-tirilgan, konsilium kasallik tarixiga yozib qo‘yilganda (o‘sma-ning oxirgi bosqichida, miyada qon aylanishi og‘ir buzilishida, og‘ir travmalarda va b.).

– Agar bemor oldindan YuO‘J dan bosh totrishini tibbiy hujjatlarda yozib qo‘ygan bo‘lsa.

YuO‘J quyidagi hollarda to‘xtatilishi mumkin:

- YuO‘J ning hamma yetarli usullari qo‘llab bo‘linganda ham 30 daqiqa davomida natija belgisi bo‘lmasa.

- Agar ko‘p marta yurak to‘xtashi kuzatilsa, tibbiy yordam berilganda ham.

### **Allergik shoshilinch va komatoz holatlar**

#### **Allergik shoshilinch holatlar**

**Eshakem** – otkir allergik holat bo‘lib, terida va ba‘zan shilliq qavatlarda birdaniga urtikar toshmalar toshishi bilan xarakterlanadi.

Eshakemning sababi ham Kvinke shishi bilan bir xil. Ko‘pincha dorilar va ovqat allergenlari, hasharotlar chaqishi, ba‘zi hollarda bevosita sababi aniq emas.

Klinikasi bolalarda isib ketish hissi, teri qichishishi, terining «qichitqi o‘t bilan kuyganga o‘xshab» o‘zgarishi kuzatiladi. Eshakem elementlari har xil shaklda va o‘lchamda bo‘lib, bir-biri bilan qo‘shilib ketib gigant elementlarga aylanadi.

Element rangi och pushti rangdan qizil ranggacha. Toshmalar tananing hamma joyida va shilliq qavatlarda, ba‘zan qorinda, orqada, ko‘krakda, sonda joylashadi.

Umumiy simptomlar: isitma, artralgiya, kollaps bo‘lishi mumkin.

#### *Shoshilinch yordam*

1. Darhol allergen kirishini to‘xtatish.
2. Bemorni tinchlantirish va kasalligi to‘g‘risida unga to‘g‘ri tushuntirish.
3. Shifokor ko‘rsatmalarini bajarish.
4. Somatik bo‘limga gospitalizatsiya qilish.

#### *Hamshiralik parvarishi*

1. Bemorni tinchlantirish va kasalligi to‘g‘risida unga to‘g‘ri tushuntirish.
2. Ota-onani tinchlantirish, bolaga qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqotni quvvatlash, bolaga tashxis uchun, tekshirishga jo‘natish.

*Hamshiralik parvarishi.* Bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ish olib borish, bolaga yetarlicha qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqot qilish, bolani tashxisni tekshirish uchun yuborish.

**Kvinke shishi** otkir allergiya turi bo‘lib, teriga, teri osti yog‘ qavatiga, shilliq qavatlarga angionevrotik shishning tarqalishi bilan namoyon bo‘ladi.

Etiologiyasi kvinke shishi ko‘pincha dori yoki ovqat allergenidan, hasharotlar chaqqandan so‘ng kelib chiqishi mumkin, ba‘zi hollarda bevosita sababi ma‘lum bo‘lmasligi mumkin. Kvinke shishi xayfli bo‘lib yuqori nafas yo‘llari shishishidan kelib chiqqan holda asfiksiyaga olib keladi.

**Klinikasi.** Bolada hiqildoq shishishida it hurishiga o‘xshagan yo‘tal, tovush pasayishi, nafas olish qiyinlashishi, bronxospazm qo‘shilishi hisobiga nafas chiqarish ham qiyinlashishi mumkin. Til shishgani uchun gapirish qiyinlashadi, chaynash va yutish jarayonlari buziladi.

Shoshilinch yordam

1. Darhol allergen kirishini to'xtatish.
2. Medikamentozi yordam.
3. Rivojlanib boruvchi hiqildoq shishishi obturatsion nafas yetishmovchiligi bilan bo'lganda intubatsiya yoki traxeotomiya qilinadi.
4. Somatik bo'limga yotqizishga yordam berish.

*Hamshiralik parvarishi:* ota-onani tinchlantirish, bolaga yetarlicha qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqotni quvvatlash, bolani diagnostika tekshiruviga yuborish.

### **Komatoz holatlar**

Hushdan ketish va harakat, sezish hamda somatovegetativ funksiyalarning buzilishi bilan xarakterlanadigan holat. Bunday holda bemorni har qanday kuchli qo'zg'atuvchilar bilan ham uyg'otib bo'lmaydi.

Bolalik davrida komatoz holatlar rivojlanish sabablari turli xil. Intensiv davolash talab qiladigan har qanday holat koma asoratini berishi mumkin. Odatda ekzogen va endogen omillar farq qilinadi, biror bir kasallikning belgisi hisoblanmaydi, lekin bosh miyaning og'ir zararlanishidan darak beradi va sababi noaniq bo'lgan komatoz holat shoshilinch yordam va to'g'ri keluvchi davo talab qiladi.

Bolalarda komatoz holat rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- tug'ma o'zgarishlar;
- miyada qon aylanishning yetishmasligi (bosh miyaga qon quyilishi, gemodinamikaning buzilishi);
- bosh miya bosimining oshishi (gidrosefaliya);
- yirik o'choqli shikastlanish (bosh miya shikastlanishi, miya o'smasi va absessi);
- miya to'qimasining diffuz zararlanishi (meningit, ensefalit, infeksiyon toksikoz);
- turli zaharlanishlarda miyaning toksik zararlanishi;
- metabolik o'zgarishlar (gipoksiya, gipo- va giperkapniya, kislota-ishqor, suv-elektrolit balansining buzilishi), jigar va buyrak yetishmovchiligi;
- endokrin buzilishlar (giper va gipotireoz);
- termopegulatsiya buzilishi (gipertermik sindrom, gipotermiya).

Komatoz holatlar bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Chaqaloqlarda avval perinatal shikastlanishlar (tug'ruq shikastlari, miyaga qon quyilishi), sepsis, respirator distress, metabolik o'zgarishlar. 1 yoshdan so'ng bolalarda hayot bilan bog'liq sababli omillarga ko'pincha infeksiyon kasalliklar va bosh miya yallig'lanish kasalliklari (meningit, ensefalit) kiradi. Kattaroq yoshdagi bolalarda komatoz holatlar asosan og'ir infeksiyalar, bosh miya travmalari, zaharlanishlar, jigar va buyrak zararlanishidan, endokrin kasalliklarda kelib chiqadi.

**Klinikasi.** Komaning og'irligiga ko'ra 4 darajasi farq qilinadi:

1 daraja yengil shakli – hush yo'qolishi, kuchli tovush ta'siriga javob reaksiyasi yo'q, lekin kuchli og'riq qo'zg'atuvchisiga ingrash va mimik reaksiya kuzatiladi, qorachiqalar toraygan, yutish saqlangan, lekin qiyinlashgan.

2 daraja yuzaga chiqqan koma – og'riqqa reaksiyasi yo'q, qorachiqalar nuqtadek, ko'z olmalari harakati yo'q, desere-bratsion holat, tomir gipotoniyasi rivojlanib borishi bilan stvol va spinal markazlar tormozlanishi kelib chiqadi.

3 daraja chuqur koma – turli qo‘zg‘atuvchilarga javob reaksiyasi yo‘q, ko‘z olmalari qotib qolgan yoki suzish harakatlarini qiladi, qorachiqlar kengaygan, qorachiq reflekslari yo‘q, mushaklarning to‘liq atoniyasi, nafas va qon aylanishi buzilishi.

4 daraja terminal koma – orqa miya funksiyasining buzilishi, bolaga sun‘iy nafas orqali va inotrop quvvatlash bilan yordam beriladi.

Koma rivojlanishida hammadan oldin nafas va qon aylanish tizimi holatiga baho beriladi: (tabiiyki nafas va yurak qon tomir yetishmovchiligida shu a‘zolarga yordam berish bilan boshla-nadi).

Koma og‘irligini obyektiv baholashda Glazgo shkalasidan foydalaniladi.

Asosiy zararlovchi omillarga bog‘liq holda ajratiladi:

1. Metabolik komalar: ichki a‘zolar kasalliklarida diabetik, gipoglikemik, xlorpenitik, jigar, uremik.
2. Nevrologik komalar: apopleksik, travmatik, elektrotrav-mada termik, epileptik
3. Infeksion nevrologik komalar: meningitda va ensefalitda.
4. Diabetik komalar.

Qandli diabet bilan og‘rigan bolalarda ko‘pincha giperg-likemik va gipoglikemik komalar uchraydi.

Patogenezi asosida giperketonemiya va ketonuriya bilan giperglikemiya yotadi, natijada suv-tuz almashinuvining kuchli buzilishi va kislota-ishqor balansining asidoz tomonga suljishi kelib chiqadi.

**Sababi:** Qandli diabet bilan og‘rigan bolalarda giperglikemik koma rivojlanishining sabablari quyidagilar:

1. Qandli diabetga kech tashxis qo‘yish.
2. Davolash tartibining buzilishi: davolashdagi tanaffuslar, insulinni noadekvat dozada berish.
3. Boshqa kasalliklarning qo‘shilishi.
4. Jarrohlik aralashuvi.
5. Shikastlanishlar.
6. Emotsional stress holatlari.

### **Belgilari:**

- holsizlik, uyquchanlik;
- kuchli chanqash va poliuriya;
- ko‘ngil aynishi, qusish, qorinda kuchli og‘riq, qorin old devori mushaklarining tarangligi («o‘tkir qorin» simptomi), laborator giperleykositoz, tayoqcha yadroli surilish bilan neytrofilyoz bilan namoyon bo‘ladigan zo‘rayib boruvchi ketoasidozning abdominal sindromi;
- teri quruq, oqargan va kulrangsimon<sup>3</sup>shish, yuzda «diabetik qizarish», to‘qimalar turgori pasayishi;
- taxikardiya, yurak tonlarining bo‘g‘iqlashuvi, AB pasaygan;
- nafas chiqarganda aseton hidi;
- qonda glukoza miqdori 15 mmol/l;
- siydikda glukoza miqdori ko‘p bo‘lishidan tashqari aseton aniqlanadi.

***Shoshilinch yordam:***

1. Reanimatsiya yoki maxsus endokrinologiya bo'limiga yotqizishga yordam berish.
2. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash, oksigenoterapiya.
3. Regidratatsiya o'tkazish uchun vena o'zaniga tushishni ta'minlash.
4. Tahlil uchun qon va siydik olish.

***Hamshiralik parvarishi:*** bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ishlar olib borish, bolaga qulay sharoit yaratish.

***Gipoglikemik koma***

Qonda glukoza miqdorining qisman yoki birdaniga kamayishi natijasida bosh miyaning glukoza va kislorod bilan ta'minlanishining buzilishi.

Qandli diabetda gipoglikemiyaning asosiy sabablari :

1. Ovqat miqdorining kamligi.
2. Jismoniy zo'riqish.
3. Insulin dozasini oshirib yuborish.
4. Alkogol iste'mol qilish.

Gipoglikemiyaning diabetdan tashqari sabablari:

**Gipertermik sindromda, talvasada bolalarga va ularning oilalariga hamshiralik parvarishi**

Gipertermik sindrom ichki issiqlik ishlab chiqarish va tana yuzasining issiq ajratishi hisobiga tana harorati oshishi kuza-tiladi. Issiqlik ishlab chiqarish va issiqlik ajratish gipotala-musdagi issiqlik markazi tomonidan regulatsiya qilinadi. Lekin issiqlikni boshqarish markaziga pirogen moddalar ta'sirida (patogen qo'zg'atuvchilar, gematologik kasalliklar, allergiya va b.) issiqlikni ajralishi buziladi, issiqlikni tarqatish kamayishi (issiqlikni ushlab turish), qaltirash va titrash hisobiga issiqlik ishlab chiqarish oshishi kuzatiladi. Shunday qilib, tana harorati normal darajaga oshadi normada (36-37°C).

Bolalarda tana haroratining oshish darajasiga qarab quyidagi turlari ajratiladi: Subfebril harorat – 37-37,5°C; febril – o'rtacha harorat 38-38,9°C, gipertermik – 39 °C va yuqori.

Bolalarda isitmaning ko'p uchraydigan sabablari quyidagilar hisoblanadi:

1. Infeksion-toksik holatlar.
2. Og'ir metabolik buzilishlar.
3. Isib ketish.
4. Posttransfuzion holatlar, allergik reaksiyalar.
5. Dori moddalarni yuborish bilan va farmakologik ta'sirlari bilan bog'liq sabablar.
6. Endokrin buzilishlar.
7. Bosh miya o'smasi va miya ichiga qon quyilishi hisobiga termoregulatsiya markazining buzilishi (markaziy tipdagi isitma).

Gipertermik sindrom isitmaning patologik varianti bo'lib hisoblanadi, bunda tana haroratining tez va noadekvat ko'tarilishi, mikrosirkulatsiya buzilishi, metabolik

o'zgarishlar va hayot uchun muhim a'zo va sistemalarning funksiyasi buzilishi bilan birga kuzatiladi.

**Klinik tashxisi:** Bolada tashxis jarayonida isitma bilan farq qiluvchi «qizil» va «oq» gipertermiyani ajratish hamda sabablarini aniqlash kerak.

**Qizil gipertermiya (issiq urishi):** Yuqori harorat va namlikni kamayishi hisobiga yutiladigan issiqlik hajmi oshadi va tana harorati ko'tariladi va issiqlikni berish (issiqlikni ushlab qolish) pasayishi holati kuzatiladi. Gipotalamusda issiqlikni boshqarish markazining funksiyasi buziladi va ter ajratish to'xtaydi.

Issiqlik ajratishning birdan pasayishi bilan tana harorati ko'tariladi, agar harorat 42oC gacha ohsa hujayralar buzilishi, MNS, buyraklar, jigar, yurakda o'zgarishlar va ko'p a'zolar yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. O'lim kelib chiqish xavfi yuqori.

**Oq gipertermiya (issiqlik kamayishi, issiqlik talvasasi).** Issiqlik kamayishi – bu ko'p terlash tufayli suyuqlik va tuz miqdorining kamayishi bo'lib, yoz oylarida harorat yuqori bo'lganda suvsizlanish bilan xarakterlanadi.

Issiqlik talvasasi – ko'p terlash va tuzni kam iste'mol qilish natijasida qonda tuzlarning kamayib ketishidan mushaklarning og'riqli talvasasimon qisqarish holati.

**Gipertermiyada shoshilinch yordam va davolash:**

**Simptomlari, davolash va hamshiralik parvarishi,**

<b>shoshilinch yordam</b> Issiq urishi	Issiqlik pasayishi		Issiqlik talvasalari
Tana harorati	40-42oC (rektal harorat 40oC dan yuqori)	-normal yoki biroz oshgan	* Issiqlik pasayishi punkti bilan bir xil
Kuzatiladi-gan simptomlar	-butun tanadan ter ajralishi - ter ajralishining birdan to'xtashi -bosh og'rig'i, bosh aylanishi, holsizlik	-bosh aylanishi, bosh og'rishi, ko'ngil aynishi, charchash hissi, ishtaha yo'qolishi	* Issiqlik pasayishi punkti bilan bir xil

## **Buyrak yetishmovchiligi.**

1. Jigar

2. Buyrak usti bezi gipofunksiyasi.

3. O'sish gormoni yetishmasligi (ko'pincha gipofizar na-nizm).

Birinchi kompensator simptomlar namoyon bo'ladi: bezov-talik, agressivlik, kuchli qorin ochishi, ko'ngil aynishi, gipersa-livatsiya, qaltirash, sovuq ter bosishi, taxikardiya, qorinda og'riq, diareya, ko'p siyish.

Keyinchalik neyroglükopenik simptomatika qo'shiladi: asteniya, bosh og'rishi, diqqat buzilishi, qo'rquv hissi, gallyusti-natsiyalar, nutq va ko'rish buzilishi, dezorientatsiya, amneziya, hushning buzilishi, falajlikka almashinuvchi talvasalar, koma.

Gipoglikemik koma tez rivojlanadi, har doim 3 ta belgisi bo'ladi: hushdan ketish, mushaklar gipertonusi, talvasalar. Diaqnoz laboratoriya ko'rsatmalariga asoslanadi.

*Shoshilinch yordam:*

1. Bemorga shirin choy, murabbo, asal yoki shirin pechenelar berish.

2. Darhol somatik bo'limga yotqizish.

3. Vena o'zaniga tushish.

4. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash, oksigeno-terapiya.

5. Tahlil uchun qon, siydikni to'g'ri olish.

6. Shifokor ko'rsatmalarini bajarish.

*Hamshiralik parvarishi:* bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ishlar olib borish, bola uchun yetarlicha qulay sharoit yaratish.

### **Uremik koma**

O'tkir buyrak yetishmovchiligi (O'BY)- o'tkir rivojlanuvchi sindrom bo'lib, buyrakning gomeostazni ta'minlash funksiya-sining buzilishi bilan xarakterlanadi, suv-tuz balansining va kislota-ishqor holatining buzilishi, azotemiya kuchayib uremiya rivojlanishi, barcha sistemalar va funksiyalarning patologik zararlanishi bilan namoyon bo'ladi.

*Shoshilinch yordam:*

1. Darhol gemodializ yoki reanimatsiya bo'limiga yotqizish.

2. Vena o'zaniga tushish.

3. Tahlilni to'g'ri olish.

4. Shifokor ko'rsatmalarini to'g'ri bajarish.

5. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash, oksigenoterapiya.

*Hamshiralik parvarishi:* bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ishlar olib borish, bola uchun yetarlicha qulay sharoit yaratish.

### **7.4. Shok holatidagi bolalarda va ularning oilalarida hamshiralik parvarishi**

Shok o'tkir rivojlanuvchi, hayot uchun xavfli patologik holat bo'lib, MNS faoliyatining, qon aylanishi, nafas va modda almashinuvi o'g'ir buzilishi bilan xarakterlanadi.

Shokni kechish vaqtiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1. Shok oldi holati, gipertoniya (MNS qo'zg'alishi).

2. Gipotoniya va oligouriya aniqlanganda ham, a'zolar disfunksiyasining orqaga qaytmas holati bo'lmasligi.
3. Ortga qaytmas shok holati.

Intensiv davolash.

- Aylanib yuruvchi qon hajmini tiklash.
  - AB tiklash va stabillash.
  - Mikrosirkulyatsiyani yaxshilash.
  - Travma bilan bo'g'liq reflektor impulsatsiyaning kama-yishi.
  - Asidozni va metabolik o'zgarishlarni likvidatsiya qilish.
- Bu muammolar intensiv terapiya kompleksida hal qilinadi.

### ***Gipovolemik shok***

Aylanib yuruvchi qon hajmining patologik kamayishi natijasida yurak bosim hajmi pasayadi. Aylanib yuruvchi qon hajmi qon ketishi yoki suvsizlanish (qusish, ich ketishi, poliuriya, kuyganda va b.) natijasida kelib chiqadi.

Asosiy patologik mexanizm – venoz qon oqimi yetishmasligi natijasida, yurak urishi yetishmasligi va qon bosimi pasayishi kuzatiladi.

*Sababi:*

- Qon ketganda tomir ichida qon hajmining kamayishi.
- Nogemorragik tomir ichida qon hajmining kamayishi (qusish, ich ketishi, qandsiz diabet, peritonit, pankreatit, kuyish, atssit, diabetik ketoasidoz va b.).

*Shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi.*

1. Bemorni gorizontol holatda oyoqlarini 15-20 daraja ko'targan holatda yotqizish.
2. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.
3. Zich yopishib turuvchi niqob yoki burun kateteri orqali namlangan kislorod berish.
4. HZK ni o'lchash.
5. Sabablarni aniqlash va bartaraf qilish (qon oqishini to'xtatish).
6. Qon aylanish dekompensatsiyasi belgilarida venaga tushish va o'pka shishi va belgilari bo'lmasa kristall ko'rinishli infuzion terapiya o'tkazish (Ringer eritmasi, 0,9 % li natriy xlorid eritmasi). Infuzion terapiya yurak urishlar sonini, AB, o'pka auskultatsiyasi ko'rinishlarini, diurezni nazorat qilgan holda o'tkaziladi.
7. Aylanib yuruvchi qon hajmini to'ldirish (qon guruhini va rezus faktorini aniqlash.).
8. Zarur hollarda yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish.
9. Traxeya intubatsiyasi va yordam ko'rsatish.

### ***Kardiogen shok***

Miopatik kasalliklar natijasida va qonning qorinchaga oqimi va uning otilishi mexanik buzilishi sababli kelib chiqadi. O'tkir miokard infarkti yoki dilatatsion kardiomiopatiya miopatik shok

sabablarini keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan massiv mitral regurgitatsiya yoki qorincha anevrizmi kardiogen shokning mexanik sababi bo'lishi mumkin.

#### *Sababi*

- Aritmiyalar, kardial mexanik omillar, regurgitatsiyadagi buzilishlar (o'tkir mitral yoki aortal regurgitatsiya, qorincha-lararo to'siq nuqsoni, chap qorincha anevrizmasi, qorincha erkin devorining yorilishi).

Obstruktiv kasalliklar, chap qorincha tashlash fraksiyasining pasayishi (aorta klapani stenoz, idiopatik gipertrofik subaortal), chap qorinchaga qon kelish obstruksiyasi (mitral stenoz, chap bo'lmacha miksomasi va boshqa yurak o'smalari) – Kardiomiopatiyalar.

Birlamchi nasos funksiyasining buzilishi kam uchraydi. Ikkilamchi quyidagi hollarda rivojlanadi:

- gipoksiyada;
- asidozda;
- gipoglikemiyda;
- gipotermiyada;
- prepatlarning toksik ta'sirida.

#### *Shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi.*

Yuqorida ko'rsatilgan punktga mos keladi. Lekin yurak zo'riqishlarini bartaraf qilish uchun gorizontol holat qo'llaniladi. (1 punkt almashtiriladi)

#### **Metabolik shok**

Grammanfiy infeksiyalarda endotoksinlar va I tip allergik reaksiyalardagi anafilaktik shok chaqiradigan shok metabolik shokning sababi bo'ladi.

#### *Sababi*

Sepsis yoki endotoksemiya bolalarda har qanday yoshda kuzatiladi va ko'pincha grammanfiy (ichak tayoqchasi, kleb-siella) ba'zan grammusbat (pnevmokokk, tillarang stafilokokk, yashil streptokokk B) mikroorganizmlar va ularning toksini chaqiradi.

Metabolik omillar (o'tkir nafas yetishmovchiligi, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, jigar yetishmovchiligi, og'ir asidoz yoki alkoloz, dori moddalar dozasini oshirib yuborish).

Endokrinologik buzilishlar (qandli diabet ketoasidoz bilan, giperosmolyar ketonsiz giperqlikemik koma, buyrak usti bezi yetishmovchiligi, qandsiz diabet, gipoglikemiya)

Mikrosirkulatsiya buzilishi (chin polisitemiya, qon ivishining oshish sindromi, yog' emboliyasi)

Neyrogen omillar.

Anafilaksiya.

#### *Shoshilinch holat va hamshiralik parvarishi.*<sup>13</sup>

\* yuqorida ko'rsatilgan 1) punktga mos keladi.

#### **Travmatik shok**

**Travmatik shok** – bu travmadan so'ng kelib chiqqan shok holati. Ko'pincha ikkilamchi shok kuzatiladi. Gemorragik shokdan tashqari shok holati buyraklar zararlanishida ham kuzatiladi, shuningdek, kuyganda va to'qimalar ezilganda

sogʻlik uchun zararli moddalar qonga tushadi. Teri ostiga qon quyilish sindromida, butun tana shikastlangan yoki ezilgan yarasida (guruhli tajovuzda vab.) shok sababi qon quyilishi va ezilish sindromi hisoblanadi. Bunday hollarda qon quyilishi koʻp miqdorda kuzatiladi va qon quyilishi asosiy omil hisoblanadi.

A) Mexanik taʼsirlardan.

B) Kuyish.

C) Sovuq.

D) Uzoq ezilish sindromi.

E) Elektr taʼsiri.

Shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi:

\* yuqorida koʻrsatilgan 1) punktga mos keladi.

### **Anafilaktik shok**

Oʻtkir kechuvchi, hayotga xavf soladigan, organizmga allergen kirishi natijasida yuzaga keladigan tez kechar allergik jarayon boʻlib, ogʻir qon aylanish, nafas, MNS faoliyati buzilishi bilan xarakterlanadi.

Sababi koʻpincha dori moddalarni (penitsillin, sulfanila-midlar, zardoblar, vaksinalar, oqsil preparatlarini va b.) paren-teral yuborishga javoban hamda chang baʼzan ovqat allergen-lariga vaksinatsiya sinamasi oʻtkazilganda, hasharotlar chaq-qanda kelib chiqadi.

Anafilaktik shokni klinik sindromlariga qarab ikki turiga bolinadi:

– oʻtkir nafas yetishmovchiligi;

– oʻtkir tomir yetishmovchiligi.

Anafilaktik shokning otkir nafas yetishmovchiligini klinik belgilari, koʻkrak qisishi bilan birga havo yetishmayotgandek his qilish, qiynovchi yoʻtal, bosh ogʻrigʻi, yurak sohasida ogʻriq, qoʻrquv paydo boʻladi. Terida birdan oqarib ketish koʻkarish bilan almashinadi, ogʻizdan koʻpik kelishi, nafas chiqarganda hushtaksimon nafas quruq xirillashlar bilan birga eshitiladi.

Anafilaktik shokning tomir yetishmovchiligida klinik belgilar holsizlanish, quloqda shovqin, koʻp terlash paydo boʻladi. Terida rivojlanib boruvchi oqarishi, akrosianoz, rivojlanib boruvchi arterial bosimning tushishi, ipsimon puls, yurak tonlari susayishi aniqlanadi. Bir necha daqiqadan soʻng hushdan ketish, talvasalar boʻlishi mumkin. Tomir yetishmovchiligi zoʻrayib borishidan oʻlim yuz berishi mumkin.

*Shoshilinch yordam:*

1. Bemorni oyoqlarini koʻtarilgan holda yotqizish, til orqaga tortib ketmasligi, asfiksiya va qusuq massalari aspiratsiyasini oldini olish uchun yonboshiga yotqizish va pastki jagʻni itarish kerak.

2. Toza havo kelishini taʼminlash yoki kislород ingalatsiya qilish.

3. Organizmga allergen kirishini toʻxtatish.

4. Venaga tushish.

5. Medikamentoz muolajalar shifokor koʻrsatmasiga asosan.

*Hamshiralik parvarishi.*

Bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ish oolib borish, bolaga yetarlicha qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqot qilish, bolani tashxisni tekshirish uchun yuborish.

### ***Infeksion-toksik shok***

**Sababi.** Stafilokokk va streptokokklar ishlab chiqargan toksinlar hisobiga arterial bosimning pasayishi va og‘ir belgilar kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

### ***Belgilari:***

Birdaniga quyidagi simptomlar kuzatiladi:

- Tana haroratining 39-40°C ga ko‘tarilishi;
- Kuchli bosh og‘rig‘i;
- Tomoqda og‘riq;
- Charchash hissi;
- Qushish va ich ketishi (suyuq);
- Terida toshmalar.

Asosan 48 soat ichida hushni yo‘qotish, arterial bosim pasayishi, shok holati kuzatiladi. 3-7 kunda kaft va tovon terisi ko‘chib tushadi.

*Shoshilinch holat va hamshiralik parvarishi.*

\* yuqorida ko‘rsatilgan 1 punktga mos. Lekin yuqorida ko‘rsatilgan simptomlar boshqa sabablar orqali chaqirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tashxis to‘g‘riligini qon tahlili orqali tasdiqlanadi.

### **7.5. Bolalarda atrof-muhit ta‘sirida yuzaga keladigan shoshilinch holatlar**

Atrof-muhit ta‘sirida vujudga keladigan shoshilinch holatlar: sababi, klinik belgilari, shoshilinch yordam, asoratlari, hamshiralik parvarishi.

### ***Kuyishlar***

*Sababi* – issiq, kimyoviy vositalar, elektr toki, radiatsion ta‘sirlarning to‘qimani shikastlashi. Bu teri va boshqa to‘qimalarga olov, qizdirilgan metal, gazlar, issiqlik nurining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘siri natijasida kelib chiqadi. Kuyish bilan shikastlanganlarning eng katta guruhini 6 yoshgacha bolalar tashkil qiladi, undan so‘ng 2 yoshdan kichik bolalar. 6 yoshgacha bolalarning 80% dan ko‘pini qaynoq suvdan kuyganlar tashkil qiladi. Kuyishlar odatda ota-ona qarovsiz qoldirganda ro‘y beradi.

Bolalarda har qanday kuyishning tana yuzasining 5% ini egallashi og‘ir holatlar rivojlanishi va shokka olib kelishi mumkin. Kuygan joylarda to‘qima parchalanishining natijasida moddalar hosil bo‘ladi va organizmga so‘rilib butun organizmga tarqaladi. Kuygan sohalarga bakteriyalar tushadi, yaralar yiringlay boshlaydi. Qon plazmani yo‘qotadi, quyushlashadi o‘zining asosiy funksiyasi-organizmni kislorod bilan ta‘min-lashini bajara olmaydi. II darajali kuyishda tana yuzasining yarmidan ko‘p joyini egallashi bemor hayoti uchun katta xavf tug‘diradi.

### ***Klinik belgilari:***

Kuyishning 4 darajasi farq qilinadi: <sup>13</sup>

I daraja – terining turg‘un qizarishi, sezilarli shish va og‘riq, epidermisning faqat yuzaki qavatlarini kuyishi.

II daraja – epidermis ko‘chishi bilan terining qizarishi va shishishi va kuchli og‘riq bilan kuzatiladigan ichida sarg‘ish tiniq suyuqlik tutgan pufaklar hosil bo‘lishi.

III daraja – teri nekrozi hosil bo‘lishi.

III A – epidermis nekrozi va chin terining to‘liq bo‘lmagan nekrozi.  
 III B – teri hamma qavatlarining ba’zan teri osti yog‘ qavatining nekrozi.  
 IV daraja – to‘qimalarning ko‘mirga aylanishi (chuqur joylashgan to‘qimalar nekrozi).

Agar bolalarda kuyishlar yuzda yoki qo‘l yoki oyoq mayda bo‘g‘imlari sohasida bo‘lsa kuyish yuzasining o‘lchamidan qat’i nazar kasalxonaga yotqiziladi. Kuyish yuzasini aniqlash uchun esda tutish kerakki, bemor qo‘lining kaft yuzasi uning butun tana yuzasining 1% ini tashkil qiladi. Kasalxonaga yotqizish shart, bolalarda II-IV darajali kuyishlarda kichik yoshdagi, II-III darajali kuyigan hamma bolalar.

<i>Kuyish maydoni (% larda) va chuqurligini aniqlash</i> Kuyish sohasi	Cha-qa-loqlar	0-1 yosh	1-5 yosh	3 yosh	5-14 yosh	12 yosh	Kattalar
Bosh	18	21	19	15	15	6	9
Tana	40	32	32	40	32	38	36
Qo‘llar	16	9, 5	9, 65	16	9, 5	18	9
Oyoqlar	26	14	15	29	17	38	18

### NAZORAT UCHUN SAVOLLARI

1. O‘tkir nafas-yurak qon tomir yetishmovchiligi deganda nimani tushunasiz?
2. Bronxial astma xurujida shoshilinch yordam.
3. Nafas yo‘llarida yod moddalar bo‘lganda yordam berish usullari.
4. Obmork nima, keltirib chiqaruvchi sabablarini ayting?
5. Eshak yemda shoshilinch yordam ko‘rsatishni aytib bering.
6. Anafilaktik shokda shoshilinch yordamni bilasizmi?
7. Gipoglikemik va giperqlikemik komalarda shoshilinch yordam ko‘rsatishni ayting.
8. Shok nima, uning qanday turlarini bilasiz?
9. Kuyishda terining o‘zgarishi necha darajaga bo‘linadi?
10. Sovuq urganda qanday yordam ko‘rsatasiz?

### TEST SAVOLLARI

#### 1. O‘tkir nafas yetishmovchiligida asosiy klinik belgi qaysi?

- A) Ekspirator hansirash
- B) Inspirator stridor
- C) Bradipnoe
- D) Gipotenziya

#### 2. O‘tkir stenozning II darajasida kuzatiladi:

- A) Nafas ravon, teri rangi normal
- B) Stridor faqat bezovtalikda
- C) Perioral sianoz, ko'krak qafasi tortilishi
- D) Bradikardiya

**3. Nafas yo'llarida yot modda tushganda birinchi yordam:**

- A) Bolani suv ichirish
- B) Bolani orqasiga yotqizish
- C) Nafas yo'lini ochish va yot moddani chiqarishga urinish
- D) Antibiotik berish

**4. Anafilaktik shokda birinchi navbatda bajariladi:**

- A) Antibiotik yuborish
- B) Allergen kirishini to'xtatish
- C) Issiq kompress qo'yish
- D) Ovqat berish

**5. Gipoglikemik komaning asosiy belgisi:**

- A) Aseton hidi
- B) Gipertermiya
- C) Talvasa va hushdan ketish
- D) Quruq teri

**6. Giperglikemik komada qonda glyukoza miqdori:**

- A) 3 mmol/l
- B) 5 mmol/l
- C) 15 mmol/l va yuqori
- D) 2 mmol/l

**7. Kollapsda kuzatiladi:**

- A) AB oshishi
- B) Ipsimon puls, arterial bosim tushishi
- C) Bradikardiya
- D) Qizarish

**8. Kuyishning II darajasida:**

13

- A) Faqat qizarish
- B) Nekroz
- C) Ichida tiniq suyuqlik bo'lgan pufaklar
- D) Ko'mirlanish

## 9. Gipovolemik shokda asosiy patogenez:

- A) Bronxospazm
- B) Yurak mushagi nekrozi
- C) Aylanib yuruvchi qon hajmining kamayishi
- D) Gipertermiya

## 10. Gipertermik sindromda tana harorati:

- A) 36°C
- B) 37°C
- C) 38°C
- D) 39°C va undan yuqori

## TIBBIY ATAMALAR

1. **Stridor** – hiqildoq torayishida eshitiladigan hushtaksimon nafas tovushi.
2. **Asfiksiya** – kislorod yetishmovchiligi natijasida nafas va qon aylanish buzilishi.
3. **Gipoksiya** – to‘qimalarning kislorod bilan yetarli ta‘minlanmasligi.
4. **Kollaps** – o‘tkir tomir yetishmovchiligi natijasida AB keskin pasayishi.
5. **Anafilaktik shok** – allergen ta‘sirida rivojlanuvchi og‘ir allergik reaksiya.
6. **Giperglikemiya** – qonda glyukoza miqdorining oshishi.
7. **Gipoglikemiya** – qonda glyukoza miqdorining kamayishi.
8. **Koma** – hushning chuqur buzilishi.
9. **Gipovolemiya** – aylanib yuruvchi qon hajmining kamayishi.
10. **Nekroz** – to‘qimalarning o‘limi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.S.S. Qodirov. **Pediatriya**. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2019.
- 2.R.A. Axmedov. **Bolalar kasalliklari propedevtikasi**. – Toshkent, 2020.
- 3.Sh.I. Karimov tahriri ostida. **Shoshilinch tibbiy yordam asoslari**. – Toshkent, 2018.
- 4.M.A. Xudoyqulov. **Reanimatsiya va intensiv terapiya asoslari**. – Toshkent, 2021.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi SSV. **Klinik protokollar to‘plami (pediatriya)**. – Toshkent, 2022.
- 6.D.X. Yuldashev. **Hamshiralik ishi asoslari**. – Toshkent, 2019.
- 7.N.A. Usmonov. **Bolalarda shoshilinch holatlar**. – Toshkent, 2021.
- 8.B.T. Rasulov. **Bolalar reanimatsiyasi**. – Toshkent, 2020.
- 9.**Salomatlik -3 loyixasi** “Bemor bololarni parvarish qilish asoslari” 2014 y
- 10.V.N.Turakulov X.X.Egamov “Pediatriyada xamshiralik parvarishi” 2019

## **Rol o‘ynash (Role play) interfaol o‘yini ketma-ketligi**

Rol o‘ynash — real hayotdagi (masalan, klinik) vaziyatni sahnalashtirish orqali bilim, muloqot va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metod.

### **Maqsadni aniqlash**

- Qaysi ko‘nikma shakllantiriladi? (diagnostika, muloqot, maslahat berish va h.k.)
- Nazariy bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash maqsadi belgilanadi.

### **Vaziyat (ssenariy) tayyorlash**

- Real yoki shartli klinik holat tuziladi.
- Masalan: “Shifokorga ko‘krak og‘rig‘i bilan bemor murojaat qildi.”
- Kerakli ma‘lumotlar (anamnez, simptomlar) oldindan tayyorlanadi.

### **Rollarni taqsimlash**

Ishtirokchilar quyidagi rollarga bo‘linadi:

- Shifokor
- Bemor
- Hamshira (ixtiyoriy)
- Kuzatuvchi/ekspert

### **Qoidalarni tushuntirish**

- Vaqt chegarasi belgilanadi (5–10 daqiqa).
- Muloqot madaniyatiga rioya qilish.
- Kuzatuvchilar baholash mezonlari asosida kuzatadi.

### **Sahnalashtirish jarayoni**

- Vaziyat jonli tarzda ijro etiladi.
- Shifokor bemorni so‘roq qiladi, tekshiradi, taxminiy tashxis qo‘yadi.
- Zarur tavsiya yoki davolash rejasini aytadi.

### **Muhokama (Debrifing)**

- Kuzatuvchilar fikr bildiradi.
- Kuchli va zaif tomonlar tahlil qilinadi.
- Xatolar ustida ishlanadi.

### **Baholash**

## Mezonlar:

- Muloqot madaniyati
- To‘g‘ri savol berish
- Klinik fikrlash
- Qaror qabul qilish
- Jamoaviy hamkorlik

## **Afzalliklari**

- Amaliy ko‘nikma hosil qiladi
- Muloqot madaniyatini rivojlantiradi
- Klinik fikrlashni shakllantiradi
- Talabalarni faol ishtirokga undaydi